


34-102
A. 86.

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISH



KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi oliy
o‘quv yurtlarining pedagogika-psixologiya va boshlang‘ich ta‘lim
uslubiyati fakultetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etgan*



TOSHKENT "O‘ZBEKISTON" 2001

Tuzuvchi-mualliflar:

*M. Asgarova, S. Matchonov, M. Xudoyberganova, F. Qodirova,
X. G'ulomova, A. Boymatova, M. Bozorova, O'. Ro'ziboeva*

Taqrizchilar:

*M.R. Rizamuhamedova, M.N. G'ulomova — Toshkentdagi
282-o'rta maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari;
S. Jumaniyozova, V. Muhamedova — Toshkent shahar
Yakkasaroy tumanidagi 300-bolalar bog'chasi tarbiyachilari;
K. Nazarov — filologiya fanlari nomzodi, professor*

Mazkur qo'llanma-majmuada maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilari va birinchi sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish, ularni to'g'ri talaffuzga o'rgatish, so'z boyligini oshirish, ona tilining grammatik qurilishiga doir qonun-qoidalarni amalda qo'llash kabi masalalar yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar berilgan. Shuningdek, bolalar bog'chalarining rus guruhlarida tarbiyalanuvchilarni o'zbek tilida to'g'ri so'zlashga o'rgatishning har xil usullari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, pedagoglarning darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanishlari mumkin bo'lgan bolalar adabiyotidan namunalar berilgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining pedagogika-psixologiya va boshlang'ich ta'lim uslubiyati fakultetlarining talabalariga mo'ljallangan.

A $\frac{430500000 - 32}{351 (04) 2001}$ 2001

ISBN 5-640-02968-4

© "O'ZBEKISTON" nashriyoti, 2001 y.

SO'Z BOSHI

Mazkur qo'llanma-majmua Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ona tili ta'limini takomillashtirish" laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan yaratilgan bo'lib, pedagogika-psixologiya va boshlang'ich ta'lim uslubiyati fakultetlarining talabalariga mo'ljallangan. Qo'llanma-majmua 3 qismdan iborat. Birinchi qismda maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilari va birinchi sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish va ularni to'g'ri talaffuzga o'rgatish, so'z boyligini oshirish, ona tilining grammatik qurilishiga doir qonun-qoidalarni amalda qo'llash kabi masalalar yuzasidan metodik ko'rsatmalar yoritilgan, bolalar adabiyoti asarlari ustida ishlashga oid yo'l-yo'riqlar tavsiya etilgan.

Ikkinchi qismda bolalar bog'chalarining rus guruhrarida tarbiyalanuvchilarga o'zbek tilini o'rgatishning ta'limiy-didaktik asoslari bayon qilingan. Shuningdek, rusiyzabon bolalarni o'zbekcha to'g'ri talaffuzga o'rgatish, bolalar lug'at boyligini oshirish, bog'lanishli nutqini o'stirish, boshqa tilga o'rgatishdagi didaktik tamoyillar, o'zbek tilini o'rgatishda turli o'yin-she'r, o'yin-qo'shiqlar, sehrli ertaklar, tez aytishlar, mustaqil fikrlash va hozirjavoblikka yo'naltirilgan topishmoqlardan foydalanish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan, tarbiyaviy va o'quv mashg'ulotlarida nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ishlar namunasi keltirilgan. Og'zaki nutq o'stirish

yuzasidan tarbiyachi-o'qituvchilar olib borishi zarur bo'lgan o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarning ishlanmalari laboratoriya uchun belgilangan tajriba maydonlarida mualliflar tomonidan sinovdan o'tkazilgan.

Uchinchi qismda o'qituvchi-tarbiyachilarning darsda, sinfdan tashqari o'qish hamda ta'limiy-tarbiyaviy mashg'ulotlarda foydalanishlari mumkin bo'lgan bolalar adabiyotidan namunalar berilgan.

Birinchi qism

OG'ZAKI NUTQ O'STIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Xalq odobnomasida yoshlarni hayotga qadam qo'ya boshlagan paytidan tilga nihoyatda ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishga, til birliklaridan o'rinli foydalana olishga o'rgatib borish mumkinligi ta'kidlanadi.

Haqiqatan, insonning ichki dunyosi, ma'naviy qiyofasi, xulq-atvori, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo'ladi. Chunki har qanday kishining madaniyatligi, odobi, bilim darajasi, fahm-farosati, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, katta hayotga tayyor yoki tayyor emasligi uning nutqida o'z aksini topadi. Kimning tili boy bo'lsa, kim so'zlarni adabiy til asosida to'g'ri, aniq, ravon, ifodali talaffuz qilsa, o'z ona tiliga chuqur hurmat va ehtirom bilan qarasa, u bilimli sanalib, kishilar o'rtasida obro'-e'tibor qozonadi. Shuning uchun xalqimiz: "Tili boyning o'zi boy", "Til yurakning kaliti" deb bejiz aytmagan. O'z tilini yaxshi bilish o'z xalqining o'tmishi va hoziri hamda kelajagini yaxshi bilish, uning urf-odatlarini bilan tanishish, xalq yaratgan barcha boyliklardan bahramand bo'lish demakdir.

Shuni ham aytish kerakki, oramizda so'z boyligi kam, tili qashshoq, so'zlari qovushmagan, o'z fikrini ravshan ifodalay olmaydigan yoshlar ham uchraydi. Ba'zi yoshlar orasida ruscha, ayrim hollarda ko'pchilik tushunmaydigan so'zlarni to'g'ri kelsakelmasa qo'shib gaplashadiganlar ham bor.

Ma'lumki, yoshlikdan badiiy adabiyotga mehr qo'yish, uni o'qishga ko'nikma hosil qilish va ko'p o'qish yuksak madaniyatlikni, boy, go'zal, ta'sirchan tilga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Har qanday tilning go'zalligi yu nafosatlari bilan tanishish, ulardan bahramand bo'lishning birdan-bir yo'li shu tilning

yaratuvchisi bo'lgan xalqning tili va folklorini — dostonlariyu ertaklari, qo'shiqlariyu masallari, maqollariyu iboralari chuqur o'rganib olishdir.

Kishi dunyoga mukammal inson bo'lib kelmaydi. U tug'ili-boq ertak yoki dostonlardagi qahramonlardek aqlli, dono, bilimdon bo'lib qolmaydi. Umuman, inson yon-veridagi kishilar orasida, tabiat qo'ynida, hayvonot dunyosi, parrandalar, hashoratlar, turli-tuman voqea-hodisalar qurshovida, ular bilan muloqotda bo'ladi, o'sib-ulg'ayadi, kamol topadi. Yaxshilardan ibrat oladi, yomonlardan nafratlanadi. Insonning ana shunday kamolotga erishishida yillar davomida yaratilgan va bizgacha ko'z qorachig'iday asrab olib kelingan xalq og'zaki ijodi — folklorning ahamiyati benihoya kattadir.

Folklor asarlari kishiga o'tmishdan saboq beradi, bugunning qadriga yetish, uni e'zozlashni o'rgatadi, ertangi kunga tayyorlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'ngil ochishni, ermakni xohlaydilar. Bu tabiiydir. Ular hamma narsani o'yin va so'zlar orqali o'zlashtirish yo'lidan boradilar. O'zaro muloqot vositasida ona tilining nozik tomonlarigacha o'rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar so'z va iboralarni qiziqib o'rganadilar hamda osongina eslab qoladilar. O'sha so'zlar asta-sekin bolalarning lug'at boyligiga kiradi. Lekin bolalar so'z va iboralar ma'nosini hamisha to'g'ri tushunib yetmaydi. Ularni tushuntirish esa ota-onalar bilan tarbiyachilarning vazifasidir. Chunki bolalar lug'at boyligini xuddi shu yoshdan to'play boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sodda va qiziqarli o'yinlar, hisoblashlar, tez aytishlar, she'rlar, ertaklar kerak. Bolalar uchun yaratilgan kitoblar atrof-muhitni, hayotni bilish va uni sevishga yordam beradi, murg'ak qalblarning zehkini, ongini yuksaltiradi, turmushni sodda va haqqoniy ravishda tasvirlaydi, bolalarning lug'at boyligini oshiradi, nutqini o'stiradi. Aniq, ravon, qiziqarli tilda yozilgan asar bolalarga tez ta'sir etadi hamda oson o'zlashtiriladi.

Alisher Navoiy o'zining "Mahbub-ul-qulub" kitobining uchinchi qismida tilni ko'ngil xazinasining qulfi va so'z xazinasining kaliti deb ta'riflaydi.

Ma'lumki, ravshan va ravon imlo bilan yozilgan badiiy asarlar uning g'oyaviy mazmunini tushunishga yordam berish bilan

birga nutq madaniyatining tarkib topishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, xalq tilining kuchi va go'zalligidan bahramand etadi. Bu borada bolalar yozuvchilari o'z asarlari orqali maktab yoshidagi kichik bolalarning so'z boyligini oshirishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda o'zlarining katta hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Biz o'z oldimizga maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi kichik bolalar og'zaki nutqini o'stirish yuzasidan uzoq yillar mobaynida tajriba maydonlarida olib borilgan tadqiqotlar xulosalari — tavsiyalarimizni bayon etishni maqsad qilib qo'yganimiz tufayli mazkur kitobda xalqimiz yaratgan eng yaxshi ertak, maqol, rivoyat, topishmoq, qo'shiq, bolalar o'yinlari, tez aytishlar, shuningdek, bolalar yozuvchilarining sara asarlarini jamlaganmiz. U bolalar bog'chalarining tarbiyachilari, maktab, mahalla qo'mitalari qoshida tashkil qilingan bolalarni maktabga tayyorlov guruhlarini o'qituvchilari, ota-onalar uchun mo'l-jallangan.

Mazkur qo'llanma-majmuada maktabgacha yoshdagi bolalarning kichik, o'rta va katta guruh tarbiyalanuvchilari, shuningdek, birinchi sinf o'quvchilari og'zaki nutqining ravon bo'lishi, tovushlarni to'g'ri talaffuz etishlari, so'z boyliklari doirasining keng bo'lishi kabi masalalarga asosiy e'tibor berildi. Shu maqsadda nutq o'stirishga doir materiallar choraklarga ajratib berildi. Bu asarlar ustida ish olib borish, asosan, tarbiyachining bilim va mahoratiga bog'liq bo'lib, unda bolalarning umumiy saviyasi ham hisobga olinadi.

1-§. KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQIDA TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilari (hatto oliy o'quv yurti talabalari)ning og'zaki nutqining boy, sermazmun va ravon bo'lishi, ularning qanday mutaxassis bo'lishidan qat'i nazar, madaniyatli, yetuk inson ekanligini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Nutqi rivojlangan kishi puxta bilimli, komil inson hamdir. Inson uchun eng zarur bo'lgan bunday xislatni tarbiyalash bolaning tili chiqqan davrdanoq mohirlik bilan olib borilishi mutaxassislar tomonidan allaqachon e'tirof etilgan.

Nutqning boy, sermazmun bo'lishidagi asosiy shartlardan biri har bir tilning to'g'ri talaffuz me'yoriga to'liq rioya qilishni bilishdir. To'g'ri talaffuz ko'nikmalari maktabgacha tarbiya muassasalarida shu soha mutaxassisligini puxta egallagan tarbiyachilar tomonidan ma'lum reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bu masalada maxsus izlanishlar ob'ekti bo'lishi kerakligini ta'kidlagan holda, biz bu bo'limda bog'cha tarbiyalanuvchilari va quyi sinf o'quvchilari og'zaki nutqida uchraydigan ayrim xatolar hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha qisqacha ma'lumot beramiz.

Ayonki, o'zbek tili turli shevalarga boy va ayrim o'ziga xos tovushlarga ega bo'lgan turkiy tillarning biridir. Shu bois o'zbekcha so'zlashuvda orfoepik me'yordardan chekinish hollari ko'p uchrab turadi. Bu narsa jarangli undoshlarni qo'llashda, baynalmilal so'zlarni aytishda, qo'shma so'zlarni talaffuz qilishda, unilarni tushirib aytish, qator kelgan undoshlarni talaffuz qilish va boshqa holatlarda seziladi.

Tarbiyachi yoki o'qituvchi bolalar bilan mashg'ulot olib borganida va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda o'zi ham o'zbek tilining orfoepik me'yorlariga to'liq rioya qilgani holda bolalardan ham shuni talab qilishi zarur.

Tarbiyachi adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishi lozim. Chunki respublikamizning barcha tumanlarida turli millat vakillarining bolalari tarbiya oladi, o'qiydi. Tojiklar bilan yonmayon yashaydigan joylarda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida jo'nalish yoki jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi ishlatiladi. Masalan, **shu uyga yashayman. Yangi maktabga o'qiyman** kabi kelishik qo'shimchalarini noto'g'ri qo'llash hollari uchrab turadi.

Qozoqlar bilan birga yashaydigan tumanlarda bolalar nutqida **ilon** o'rnida **jilon**, **yumush** o'rnida **jumush** deb ishlatish hollari uchraydi. Bolalar og'zaki nutqida uchraydigan bu xildagi shevaga xos xatolarni bartaraf qilish uchun ma'lum guruh bolalari bilan alohida mashg'ulot olib borish kerak.

Ba'zi sheva vakillari adabiy tildagi ayrim so'zlarni boshqacha so'zlar bilan ifodalaydilar. Masalan, adabiy tilda **tuxum**, shevada **yumurtqa** (Xorazm shevasida) kabi. Bunday hollarda tarbiyachi shevada boshqacha aytiladigan so'zlarni adabiy tildagi so'zlar bilan almashtirib aytishni talab qilmay, sheva va adabiy tilda qo'llanadigan turlarini sinonimik holda ishlatishga odatlantirishi lozim.

Jismoniy oqibatida ma'lum tovushlarni to'g'ri ayta olmaydigan bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda o'sha soha mutaxassislari (logopedlar) bilan hamkorlikda mashg'ulot olib borish maqsadga muvofiqdir. Masalan, sonor undoshi **-r** ni talaffuz qilish, sirg'aluvchi **-sh** ni talaffuz qilish, til orqa undoshi **-k** ni talaffuz qilish kabi.

Umuman, so'zlardagi turli tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, to'g'ri aytishga odatlantirish yaxshi natija beradi.

So'z va gaplardagi urg'uli bo'g'in va urg'u tushgan so'zlarni kuchli ohangda aytishga o'rgatish ham tarbiyachidan katta bilim va mahorat talab etadi. Masalan, **ikkita olmani keltirdi. Bu kitoblarni olma** kabi gaplarda **olma** so'zidagi urg'uning o'zgarishi natijasida ikki xil ma'no ifodalanishi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishi bilan birga, mashg'ulotga qiziqishni ham orttiradi.

Aytilishi qiyin tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha ayrim mashg'ulotlar olib borish mumkin. Shulardan biri fonematik idrokni bog'cha tarbiyalanuvchilarida va quyi sinf o'quvchilarida shakllantirish bo'lib, quyida bu masala yuzasidan ba'zi tavsiyalarimizni bayon etamiz.

Fonematik idrokni takomillashtirishda tarbiyachi bolalarga mashq sifatida tubandagi topshiriqlarni taklif qilishi mumkin:

1. Berilgan so'zdagi tovushlarning miqdorini eshitib aniqlash.
2. So'zlar guruhi orasidan faqat berilgan tovush ishtirok etgan so'zni ajratish.
3. **S, Sh, Z** tovushlari bilan boshlanadigan yoki shu tovushlar ishtirok etadigan so'zlarni aytish.
4. Nomlanishida shu tovushlar qatnashgan buyumlarning suratlarini tanlash.
5. Jumalardan shu tovush ishtirok etgan so'zlarni ajratish.

Nutq ohangini rivojlantirish uchun tarbiyachi tez aytishlarni turli balandlikda, turli sur'atda talaffuz qilishni taklif etadi, so'roq va tasdiq gap ohanglaridan to'g'ri foydalanishni mashq qildiradi. Bitta nutqiy materialdan qayta-qayta foydalanish orqali tarbiyachi bir vaqtning o'zida bir necha maqsadni amalga oshiradi.

Tarbiyachi jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlashga qaratilgan o'yin va mashg'ulotlarda bolalar tovushlarni eshitib va to'g'ri talaffuz qilib, ularni farqlashni mashq qiladilar. Bolalardan jarangli va jarangsiz undoshlar ishtirok etgan so'zlarni

tanlash taklif qilinadi. Tarbiyachi ayrim tovushlarni farqlash bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazadi. Bolalar bilan shu tovushlar ishtirok etgan so'zlar topish, gaplar tuzish mashqlari ishlanadi.

Ovoz ohangini rivojlantirish uchun tarbiyachi bolalarga tez aytishlarni turlicha balandlikda, turli sur'atda talaffuz qilishni taklif etadi. Bolalar o'z ovoz ohangini o'zgartirib, u yoki bu tabiat hodisalari, buyumlar haqida o'z fikrini ayta olishga o'rgatiladi.

Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish masalasiga doir ma'lumotlar bilan qo'llanma-majmuaning keyingi qismlarida ham tanishtiriladi.

2-§. BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINI SO'Z BIRIKMASI VA GAP TUZISHGA O'RGATISH

Maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalar nutqini o'stirishda so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, yangi-yangi so'zlar bilan ularning lug'atini boyitish, kengaytirishga alohida e'tibor beriladi. Bu borada bolalarni so'z birikmasi va gap tuzishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalar u yoki bu narsalar, voqea-hodisalar haqidagi o'z fikrlarini gap orqali bildiradilar. O'qituvchi, tarbiyachi, o'rtoqlari va boshqa kishilar bilan muomala-munosabatda bo'lganda ular bilan fikr almashadilar, savollarga javob beradilar. Bolalarni fikrlash, savollarga to'g'ri javob berishga o'rgatishda so'zlarni grammatik jihatdan bir-biriga bog'lash, gapdagi bosh bo'laklar (ega va kesim)ning moslashuvi masalalariga e'tibor berilgandagina fikr tez anglashiladi.

Bolalar o'z hayotlarida turli narsa va hodisalarga duch keladilar. O'qituvchi har bir narsa haqida bolalarda to'g'ri tushuncha hosil qilishi, ularning nomi bilan tanishtirishi lozim.

Bolalarni mashg'ulotlarga qiziqtirish va ularning nutqini o'stirishda o'qituvchiga ko'rsatmali qurollar katta yordam beradi. O'qituvchi bolalarga narsa-buyumlarning o'zini yoki rasmini ko'rsatib, uning nomini, shaklini, rangini, mazasini, miqdorini so'rasa, uyatchan, tortinchoq, kamgap bolalar ham hech qiynalmay, tezgina javob beradilar.

O'qituvchi biror narsaning nomini aniqlash uchun o'sha narsaning o'zini yoki rasmini ko'rsatib "Bu nima?" degan savol

asosida suhbat uyushtiradi. Masalan, kattakon bitta qizil olmani ko'rsatib so'raydi:

O'qituvchi: Bu nima?

O'quvchi: Bu olma.

O'qituvchi: Nechta olma?

O'quvchi: Bitta olma.

O'qituvchi: Bu qanday olma?

O'quvchi: Bu qizil olma.

O'qituvchi: Yana qanday olma deyish mumkin?

O'quvchi: Shirin olma.

O'qituvchi: Yana qanday olma deyish mumkin?

O'quvchi: Qizil olma.

Bolalar o'qituvchining har bir savoliga to'liq javob berishda so'zlarni birikmali holda aytishga odatlanadilar. Bolalar nutqini ularni so'z birikmasi va gap tuzishga o'rgatish orqali o'stirishda ayniqsa o'yinchoq yoki rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, maktabgacha yoshdagi yoki maktab yoshidagi kichik bolalarning eng sevgan o'yinchoqlari (mashina, koptok, o'yinchoq-qo'g'irchoq)ni ko'rsatib, ularning nomi, shakli, harakatiga doir savollar yordamida yuqoridagidek suhbat o'tkazilishi mumkin.

Bolalar bilan kishilarning mehnati, kasb tanlash haqida suhbat o'tkazishda shifokor, o'qituvchi, shofyor, duradgor, oshpaz kabi turli kasb egalari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib: "Bu kim?", "O'qituvchi nima qiladi?", "Shifokor kimlarni davolaydi?", "O'qituvchi kimlarni o'qitadi?", "Shofyor, duradgor, oshpazlar nima ish qiladilar?" kabi savollar beriladi. O'quvchilar qisqa-qisqa gaplar bilan javob berish orqali gap tuzishga o'rganadilar.

Birinchi sinfda alifbogacha bo'lgan davrda "Alifbe" kitobida keltirilgan rasmlar vositasida nutq o'stirish maqsadida suhbat o'tkaziladi. Unda rasmlar guruhlanadi va o'ziga xos tomonlari aniqlanadi. Masalan, "Sabzavot va mevalar", "Poliz va sabzavot ekinlari", "Dehqonchilik va ish qurollari", "Erkaklar va ayollar kiyimlari", "Hayvonot olami", "Mevali va manzarali daraxtlar" kabi mavzularda ish olib boriladi.

"Sabzavotlar" mavzusini mustahkamlash maqsadida suhbat darsi o'tkaziladi:

Mavzu: SABZAVOTLAR.

Darsning maqsadi: O'quvchilarning sabzavotlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, sabzavotlarning belgilari, shakli, ko'rinishi va ta'mi haqida tushuncha berish.

Dars jihozlari: sabzavotlar — sabzi, kartoshka, sholg'om, piyoz, qalampir.

Darsning borishi.

1. O'qituvchi har qaysi partaga sabzavotlarning 2—3 xilidan qo'yib chiqadi. Ularga ruxsatsiz tegmaslikni tayinlaydi.

2. O'qituvchi "Sabzavotlar" mavzuidagi rasmni ko'rsatib suhbat o'tkazadi:

— Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?

— Dehqonlarni, karam, piyoz, lavlagi, pomidor, sabzi, bodring va baqlajonlarni ko'ryapmiz.

— Sabzavotlar qaysi faslda yetiladi?

— Sabzavotlar kuz faslida yetiladi.

— Qaysi sabzavotlar qizil rangda bo'ladi?

— Pomidor, sabzi, qalampir, lavlagi qizil rangda bo'ladi.

— Dehqonlar nima qilyaptilar?

— Dehqonlar karam uzyaptilar. Sabzavotlarni mashinaga tashiyaptilar.

3. O'quvchilarning diqqati partalarga qo'yilgan sabzavotlarga jalb etiladi.

O'qituvchi bolalardan sabzini qo'llariga olib, uning rangini aytishlarini so'raydi. Bolalar sabzining rangi qizil hamda sariq ekanligini aytadilar. O'qituvchi shu tarzda sabzi bargining rangi va shaklini ham aniqlatadi. Sabzi bargi rangining yashilligiga, ignabargligiga e'tibor qaratadi. O'qituvchi sholg'omning bargini ko'rsatib uning nimaning bargi ekanini so'raydi. Bolalar aniqlay olmasalar, sholg'omning o'zini ko'rsatib izohlaydi.

Shundan so'ng kartoshka haqida quyidagicha suhbat o'tkazish mumkin:

— Kartoshkaning shakli qanday? (Kartoshkani ko'rsatib)

— Kartoshkaning shakli dumaloq.

— Uning sirtida nimalarni ko'ryapsiz?

— Chuqurchalarini ko'ryapmiz.

— Ularni sanang-chi, nechta ekan?

— O'nta.

— Kartoshkani xomligicha yeyish mumkinmi?

— Kartoshkani xomligicha yeb bo'lmaydi.

— Qaysi sabzavotlarni xomligicha yeyish mumkin emas?

— Lavlagi va baqlajonni ham xomligicha yeb bo'lmaydi.

— Qaysi sabzavotlarni xomligicha yesa bo'ladi?

— Pomidor, sabzi, piyoz, karam, bodringlarni xomligicha yeyish mumkin.

Sabzavotlar shu xususiyatlariga ko'ra stol ustida ikki guruhga ajratib qo'yiladi. Bu ishni iloji boricha o'quvchilarning o'zlariga bajartirish lozim.

Sabzavotlar haqida topishmoqlar ham aytiriladi. Topishmoqni avval o'qituvchi aytadi, javobini o'quvchilar topadilar.

Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo'lar oziq.

Yoki:

Shakli uzunchoq, rangi qizil, sariq — bu nima? Bolalar: sabzi.

Topishmoq aytish navbati bolalarga beriladi: o'zi yumaloq, rangi qizil, mazasi shirin — bu nima? (Lavlagi). Shakli yumaloq, rangi qizil, o'zi yumshoq — bu nima? (Pomidor) Qat-qat to'nli, qarich bo'yli...

4. Sabzavotlar yig'ib olinadi. Bolalarga xohlagan sabzavot rasmini chizish va bo'yash topshiriladi. Bolalar ishlagan rasmlardan yaxshilari tanlab olinib, "Sabzavotlar" mavzuida albom tayyorlanadi.

Bolalar vaqti-vaqti bilan tabiatning to'rt faslini kuzatish uchun boqqa sayrga chiqadilar, mavsumiy o'yinlar o'ynaydilar. Sayrda tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish, tabiat qo'ynida o'ynalgan o'yinlar (qorbobo yasash, qorbo'ron, oq terakmi, ko'k terak, oq sholimi, ko'k sholi kabi), qushlar va hayvonot olami haqida suhbat o'tkazish, suhbat asosida so'z birikmalari hosil qilish, 2—3 so'zli kichik-kichik gaplar tuzish, ulardan 4—5 gapli bog'lanishli og'zaki hikoya tuzishga o'rgatib boriladi. Masalan, "Bahorgi ishlar" mavzusida bolalar bilan suhbat o'tkazilib, bahorda daraxtlarning tagini yumshatish, tanasini oqlash, mevali ko'chatlar o'tqazish (buning uchun yerni chuqurroq qazish, ko'chat ekilgandan so'ng suv quyish, tuproq tortish) aniqlab olinadi. So'ngra bolalar bilan ularning sevimli mashg'uloti — so'z topish o'yini o'tkaziladi. Buning uchun dastlab o'qituvchi bir so'z aytadi. O'quvchilar qo'l ko'tarib, unga mos so'z aytadilar. Masalan, Bahor keldi, o'tlar ko'kardi, daraxtlar barg chiqardi. Bolalar: Ko'chat ekdim, suv quydim, tanasini oqladim, tagini yumshatdim.

O'yin yakunlanadi: Bahor keldi. O'tlar ko'kardi. Daraxtlar kurtak chiqardi. Karim ko'chat o'tqazdi. G'ayrat suv quydi. Ko'chat tomir ola boshladi.

Shuningdek, bolalar bilan yodlangan she'r, o'qilgan hikoya, ertaklar yuzasidan ham ana shunday suhbatlar o'tkazish orqali ularning nutqini o'stirish, lug'at boyligini kengaytirib borish mumkin. Bunday suhbatlarni uyushtirishda o'qituvchining (tarbiyachining) bolalarga beradigan savollari aniq tuzilishi, ular 3—4 so'zdan iborat bo'lishi, o'quvchilarning o'qituvchi savollariga to'liq javob berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

3-§. OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISHDA BOLALAR ADABIYOTIGA DOIR ASARLAR BO'YICHA MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH

Bolalar lug'atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta'sirchanligini ta'minlashda bolalar adabiyoti ustida ishlash, shubhasiz, yaxshi natija beradi. Bolalar bog'chalarining tayyorlov guruhleri va maktab yoshidagi kichik bolalar bilan biror asarni o'qishda o'qituvchiga, tarbiyachiga asarning mazmuni, undagi asosiy g'oyani bolalar ongiga etkazish uchun asar tili ustida ishlash talab etiladi. Chunki asar tilini o'rganishda undagi ayrim so'z va iboralar bilan ishlash, bir tomondan, asar mazmunini oson hamda to'liq o'zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, bolalar lug'atini boyitish, til hodisalarini anglash ko'nikmalarini tarbiyalaydi, so'zlarni fonetik jihatdan o'zlashtirishga zamin bo'ladi.

Bog'chalarning katta guruhlaridagi ayrim bolalar nutq madaniyati boshqa bolalarga qaraganda birmuncha yaxshi bo'ladi. Ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladilar, savollarga qiynalмай, erkin javob beradilar. Lekin ko'pchilik bolalar nutqida ba'zi nuqsonlar uchrab turadi. Masalan, **s, z, sh, k, ch, b, p, g, j, r** kabi undoshlar talaffuzida bu ko'proq seziladi. Tarbiyachi ham, o'qituvchi ham bolalar bilan ishlashda shunday nuqsonlarni bartaraf etishga e'tibor berishi lozim. Buning uchun turli usul va vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, bolalarga "Oq terakmi, ko'k terak" she'ri o'qib beriladi:

Keling, qo'shiq aytamiz,
Qo'shilishib hammamiz.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?

Ola-bula kapalak,
Orqa sochim jamalak.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
— Xayri qizaloq kerak.

Mazkur she'r harakatli o'yin bilan bog'liq bo'lganligi uchun bolalar uni o'yin jarayonida aytadilar. O'qituvchi-tarbiyachi ushbu o'yin-qo'shiqqa doir mashg'ulotga bolalarni oldindan tayyorlaydi. Buning uchun she'r matni bolalarga yod oldiriladi. Shunisi ham borki, she'rdagi ko'pgina so'zlarni bolalar to'g'ri talaffuz qilishga qiynaladilar. Masalan, "oq" so'zini "ox", "terak" so'zini "teray" yoki "teyay", "qo'shiq" so'zini "qo'siq", "qo'shishib" so'zini "qo'silishib", "kerak"ni "keray", "Akbar"ni "Ak-bay", "kapalak"ni "kapalay", "sochim"ni "sosim", "jamalak"ni "samalak", "orqa"ni "oyqa" tarzida talaffuz qiladilar. O'qituvchi-tarbiyachi bunday holga befarq qaramasligi kerak. Aksincha bunday so'zlarning talaffuzi ustida maxsus qo'shimcha ish olib borilishi lozim. Buning uchun mashg'ulotning o'zi yetarli emas. Mashg'ulotdan tashqari sayr paytida, didaktik o'yinlar o'tkazilayotgan vaqtda bolalar bilan yakka tartibda ishlashga ham to'g'ri keladi. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishda quyidagi mashqlarni qo'llash yaxshi samara beradi:

1. So'zlarni bo'g'in va tovush tomondan tahlil qilish.

2. Bo'g'inlardagi harflarning tovush tomondan to'g'ri talaffuz qilinishiga e'tibor berish, ya'ni fonematik eshitishni rivojlantirish.

Bu bolalar talaffuzida qiynalayotgan tovushlarning paydo bo'lish o'rni og'iz bo'shlig'ida hosil bo'lishiga (artikulyatsiyaga) diqqat qaratishni taqozo etadi. Masalan, **r** undoshi tilning orqa tanglayga tegib, tovush paychalarining titrab chiqishi natijasida hosil bo'lishi, **b** undoshi ikki labning mahkam jipslashuvi natijasida o'pkadan chiqayotgan havoning portlashidan hosil bo'lishini amaliy ko'rsatish zarur.

Talaffuzi qiyin tovushlarni biror hayvon yoki parrandalarining ovozigacha taqlid qilish va uni takror-takror mashq qilish ham yaxshi natija beradi.

Masalan, **r** undosh tovushining to'g'ri talaffuzini o'rgatishda bolalar bilan quyidagicha savol-javob o'tkazish mumkin:

- Bolalar, qurbaqa qanday sayraydi?
- Qurbaqa "qur-r, qur-r" deb sayraydi.

— Kechqurunlari chigirtkalarining ovozi eshitganmisiz?
— ...
— Qishda kunlar isib qolgan vaqtda qarq'alar qanday ovoz beradi?

— ...

— Traktor yurganda qanday ovoz chiqaradi?

— ...

"Sh" tovushining to'g'ri talaffuzini o'rgatish uchun:

— Ilon sudralganda qanday ovoz chiqaradi?

— Vish-vish-vish.

Ba'zan buyumlarning nomini takror-takror aytiriladi: **shar, arra, choynak, cho'mich, chaqich** kabi. Shuningdek, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishda tez aytishlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, **s, sh, r** undoshlarining to'g'ri talaffuzi uchun, avvalo, quyidagicha mashqlarni o'tkazish lozim:

So-so-so-so Sodiq, sochiq, somon.

Sa-sa-sa-sa sa'va, sariq, sayr.

Sha-sha-sha-sha sharshara, Shahlo, shaqildoq.

Sho-sho-sho-sho sholi, oqshom, sholg'om.

Ra-ra-ra-ra rasm, randa, raketa.

Ro-ro-ro-ro rom, rohat, rost.

Bu mashqlarni bolalar tarbiyachi va o'qituvchi bilan birgalikda shoshilmay, bo'g'inlarni ifodali qilib aytadilar. Keyinchalik mazkur bo'g'inlar qatnashgan so'zlarning to'g'ri talaffuzini mashq qiladilar. So'ngra tez aytish mashqiga o'tish mumkin:

Sodiq sochini sochiqqa artdimi,

Sodiq sochiqqa sochini artdimi?

Saodat soatni soatsozga sozlatdi.

Shahlo shaqildoqni shoshib shaqillatdi.

Tohirning traktori tog' orqasida tirilladi.

Tez aytishni dastlab asta-asta aytib, keyin bir nafasda necha marta ayta olishga e'tibor qaratiladi.

Bolalar bilan tez aytishlar mashq qilinganda shoir va yozuvchilarning asarlaridan, xalq ertaklari va maqollardan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Bor ekanda, yo'q ekan, och

ekanda, to'q ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, yo'lbars o'kirar ekan, xo'roz qichqirar ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan. Ana shunday zamonda qora tovuqdek qaqillagan bir kampir bo'lgan ekan".


Shuningdek, quyidagicha badiiy asarlar matnidan foydalalanib ham mashqlar o'tkazish mumkin: "Bir boy bor ekan, uning oti Jomboy ekan, o'zi juda boy ekan, bir choynakda aynab qolgan choy ekan, yomg'ir yoqqanda bulutlar orasidan mo'ralab turgan oy ekan, suv o'tmagan soy ekan, birov minmagan toy ekan, kigiz ko'rpasi yo'q, birov yotmagan joy ekan, hech kim ichmagan choy ekan, ana shunday dong'i ketgan boy ekan".

Bolalar adabiyoti bilan ishlashda, o'qilgan asardagi talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarni o'rgatish bilan ham, kundalik turmushda qo'llanadigan so'zlarga diqqatlarini qaratish bilan ham ularning lug'at boyliklarini kengaytirib borish mumkin. Asar tili ustida ishlashda muallif tomonidan qo'llangan ko'p ma'noli, ma'nolari bir-biriga yaqin hamda qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ayrim so'z birikmalari bilan ishlash nutq o'stirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bunday so'zlar ustida ishlash bilan bolalar yangi bilim va tasavvurlarga ega bo'ladilar, hodisalar va buyumlarning nomlarini, sifat va xususiyatlarini o'rganadilar.

Bunday ishlar, avvalo, so'zlarning ma'nosini tushunish, sinonim, omonim va antonimlar hajmini kengaytirish, so'zlarni nutqda qo'llash ko'nikmalarini tarkib toptirishga yo'naltiradi.

Masalan, "Oq terakmi, ko'k terak" she'rida **bo'taloq, jamalak, qalqib** so'zlari uchraydi. Yoki Yayra Sa'dullayevaning "Xanjar" hikoyasida **avval, shosha-pisha, tong, yo'qlab, salga og'zini ko'pirtiradigan, tirqishidan mo'raladim, hovliqdi, issiqdan, gap sotmay, harchand, arazlab, gapga solib tur, pichirlab, darrov, bidillay ketdi, shashti tushganday, qarsillatib, qarshimizda, bo'yniga osilib oldim, jiddiyroq, ohista, faxr bilan, muhim topshiriq, niyat, qora kunlar** kabi so'z va so'z birikmalari uchraydi. Bu so'zlarning ayrimlari ma'no xususiyatiga ko'ra nimani bildirishi tushuntirilsa, ayrimlarining qarama-qarshi ma'nolari aniqlanadi. Ayrim so'zlarning yaqin ma'nolilari aniqlanib lug'at boyliklari o'stirib boriladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ko'maklashadi. Ular bilan savol-javob tarzida ish ko'radi.

Masalan, o'qituvchi "bolalar talpindi" deganda nimani tushunasiz? yoki "talpindi" so'zi qanday ma'noni bildiradi? degan savollar bilan murojaat etadi. B...



yurdi, o'sha tomonga intildi, degan ma'noni bildirishini o'zlaricha talqin qiladilar.

O'qituvchi: "Issiq bo'lmagan narsani nima deymiz", deb so'raydi. O'quvchilar issiq emas desalar, bir so'z bilan ayting, deyiladi. Shu tarzda savol-javob bilan **sovuq** so'zi "kashf etiladi". Ularning qarama-qarshi ma'no bildirishi aniqlanadi. Bolalardan lug'atiga kiritilayotgan so'zlar ishtirokida 3—4 so'zli gaplar tuzish talab etiladi. Ular: "Qo'g'irchog'im arazladi. Qo'g'irchog'im xafa bo'ldi. Qishda sovuq bo'ladi. Qor yog'sa sovuq bo'ladi. Ukam menga talpindi. Ziyoda buvisini achom-achom qildi. Biz qo'shiq aytdik. Chaqaloq avval yig'ladi, keyin kuldi" kabi gaplar tuzadilar. Lekin lug'at bilan ishlash jarayonida u yoki bu so'zning ma'nosini aniqlashda bolalarga "Bu so'zni yana qanday tushunish mumkin? Shu so'zni qatnashtirib gap tuzing-chi" kabi savollar bilan ularning diqqatini bir narsaga qaratish, so'zga qiziqish uyg'otish va uni o'z nutqida qanday qo'llashni tushuntirish o'qituvchidan mahorat talab etadi.

4-§. OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISHDA O'YIN VA QO'SHIQLARDAN FOYDALANISH

O'yin jarayonida bolalarning shaxsi takomillashadi, odamlar bilan muomala, o'quv va mehnat jarayoniga tayyorlanish kabi turli ruhiy holatlari shakllanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bog'chalarning tarbiyalanuvchilari orasida ko'p bolalar oddiy o'yinlar o'ynashga moyil bo'ladi. Buning sababi, birinchidan, o'yin o'tkazish usul va metodlarining yaxshi ishlanmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, o'yinlar bolalar hayoti bilan yetarlicha bog'lanmaganligidir. Pedagog olimlarning kuzatishlaricha, o'yin jarayonining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin, 2-bosqichi ajratib oluvchi, tanlab-saralab oluvchi o'yin bo'ladi. O'yinni bu xilda olib borish maktabgacha tarbiya muassasalarida va oilada bolalarning har tomonlama yetuk rivojlanishlariga yordam beradi.

Har bir o'yin bolalar hayotiga yaqin bo'lsa, ularning hayotidan lavhalar ifodalashga qaratilgan bo'lsa, o'yinchoqlar esa ular hayotida uchrab turadigan narsa-buyumlarni ko'rsatsa va o'yinchoqlar bilan o'ynash natijasida bolalar qiziqishi ortadi. Aks holda o'yindan kuzatilgan maqsadga erishish qiyin. Bunda

tarbiyachi bolaga yangi predmetning nomi va mohiyatini tushuntirishi lozim. Shu o'yin yoki o'yinchoqni o'ynash usullari bilan bolani tanishtirishi zarur. Quyida biz bolalar bog'chasida sport o'yinlarining ayrimlarini o'tkazish va unda nutq o'stirishga doir ishlarni olib borish haqida tavsiyalarimizni bayon etamiz:

"Biz quvnoq bolalar" o'yini. Bunda maydon chegaralaridan 2—3 metr masofada ikkita chiziq o'tkaziladi. Chiziqlar o'rtasida ovchi turadi. Bolalar chiziqlarning birida joylashadilar. Tarbiyachi baland ovoz bilan: "Uch, to'rt!" — deydi. Bolalar bir ovozdan javob beradilar:

Biz quvnoq bolalarmiz,
Hech to'yamaymiz o'yinga.
Chopqillaymiz jon-dildan
Qani, tutib ko'ring-a.

Bolalar maydonning boshqa tomoniga yugurib o'tadilar, ovchi esa ularni quvlab yuguradi. Qochayotgan bola chiziqni kesib o'tguncha ovchi unga qo'lini tekkizib ulgursa, u tutilgan hisoblanadi va chetga o'tib turadi. Bolalar 2—3 marta yugurib o'tganlaridan keyin tutilganlar hisoblab chiqiladi va yangi ovchi saylanadi. O'yin shu tarzda davom etadi.

"Qopqon" o'yini. Bolalar ikkita teng bo'lmagan guruhga bo'linadilar. Kichik guruh (o'yinchilarning, taxminan, uchdan biri) doira (qopqon) hosil qiladi. Qolganlar sichqon bo'ladilar. Ular doiraning tashqarisida turadilar. Qopqonni tasvirlovchi bolalar qo'l ushlab, doira bo'lib yuradilar va quyidagicha ashula aytadilar:

Axir sizdan sichqonlar,
Bezor bo'ldik biz qanchalar.
Kemirdingiz — semirdingiz,
Hushyor bo'ling, endi sizni
Qopqon qo'yib bir yo'la
Xo'p beramiz dodingizni!

"Uysiz quyon" o'yini. Bolalar — quyonlar arg'amchilarni dumaloqlab o'zlariga uycha yasaydilar. Tarbiyachining ishorasi bilan quyonlar uychalaridan yugurib chiqadilar. Bir-birlarining ketidan yuguradilar va bir oyoqlab sakraydilar. Quyonlar istagan

uychani egallashga shoshiladilar, lekin bir uycha yetishmaydi. Shunisi "uysiz quyon" bo'lib qoladi. Shundan so'ng u boshlovchi bo'ladi. Boshlovchi shunday deydi:

Dala bo'ylab qochar quyonlar qayga,
O'tloqda go'yoki boradi poyga...

Shuningdek, "Qarmoq" o'yini, "Qushim boshi", "Xurmacha bog'i" kabi milliy o'yinlar ashula aytilish bilan birga olib boriladi. Bunda bolalar milliy o'yinlarga taalluqli ashulalarni yod oladilar. Masalan, "Xurmacha bog'i" o'yinida:

Xurmacha bog'i,
Ichida yog'i.
Yog'i mij-mij etadi,
Palov oshga ketadi.
Men palovni bilaman,
Kichik oshpaz bo'laman.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bog'cha yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlariga xos bo'lgan harakatli o'yinlar jarayonida ham bolalar og'zaki nutqini o'stirishga erishish mumkin. Bunda ular turli narsa, hayvon, qush-parrandalar nomini, harakatini, ovozini bilishlari bilan birga, ularga taqlid harakatlar ham qiladilar. Shuningdek, har bir o'yinning o'ziga xos qo'shiqlarini, iboralarini qiziqish bilan yod olib, og'zaki nutqini o'stirib boradilar.

Ma'lumki, o'zbek milliy bolalar o'yinlari juda ko'p yillik tarixga ega. O'yinlarda bolalarning jismoniy jihatdan chiniqqan bo'lishi, aqliy jihatdan ziyrak bo'lishlari ko'zda tutilgan. Milliy o'yinlarga doir so'z va iboralarning ishlatilishi ham alohida o'rganishni talab qiladigan soha sanaladi. Odatda, bolalarning ko'pgina milliy o'yinlari o'ziga xos qo'shiqlar bilan ijro etiladi. Bunday o'yin-qo'shiqlarni maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilariga o'rgatish ancha ijobiy natija beradi. O'zbek millatiga mansub bo'lmagan bolalarning o'zbek tilini oson va tez o'rganishlariga shu xildagi o'yin-qo'shiqlarni bilish katta yordam beradi.

"Bog'landi" o'yin-qo'shig'i. O'yin maydoncha yoki zalda o'tkaziladi. Bolalar qo'l ushlab, yarim doira bo'lib turadilar.

Darvozabon bilan bolalar o'rtasida quyidagicha suhbat-ashula olib boriladi:

— Qo'yliqda qo'yingiz nima yeydi?

— Qo'yimiz shulxa, o't, kunjara, pichan, beda yeydi (Bu javoblarni hamma bolalar barmoqlari bilan sanab aytadilar.)

— Qo'yingiz nima ichadi?

— Qo'yimiz suv ichadi.

— Qo'yingiz nima beradi?

— Qo'yimiz go'sht, jun, yog' beradi.

— Qo'yingizni kim semirtirgan?

Bu savolga bolalar Gulnoraxon (Ahmadjon yoki Sattorxon) deb darvozabonlar yonidagi bolaning nomini aytishi kerak.

— Qo'yingizni semirtirgan Gulnoraxonga karnaymi, surnaymi, nog'orami, childirmami?

Bolalar: — Gulnoraxonga karnay, — deyishlari bilan yarim doiraning chap tomonidan boshlab, bolalar ketma-ket yurib, o'ng qo'lini yuqoriroq, chap qo'lini sal pastroq qilib karnay ovozini aytib, darvozabonlar yonidagi bolaning qo'li tagidan egilib o'tadilar. Kimning qo'li tagidan o'tilgan bo'lsa, shu bolaning qo'li qo'ltig'ida bo'lib, bog'lanib qoladi. Bolalar qaytib o'z yerlariga kelgach, hamma bolalar baravar quyidagi parchani kuylaydilar (bog'langan bolaning nomini aytib):

Bog'landi, bog'landi,
Gulnoraxon bog'landi.
Nima uchun bog'landi,
O'yin uchun bog'landi.

Bog'langan bola o'yinga tushib berishi shart. Shundan so'ng o'yin yana qaytadan boshlanadi. O'yinning ikkinchi takrori yana ham qiziqarli o'tishi uchun qatorning o'rtasidagi ikki bola qo'li tagidan o'tadilar. O'rtadan qo'li bog'langan bolani chetga chiqarib qo'yib, yana boshqa bolalar qo'li tagidan o'tadilar. O'yin oxirida qo'li bog'langan bir necha bola o'rtaga tushib o'ynaydi. O'yin qoidalari quyidagicha belgilanadi:

1. Darvozabonlarning savollariga hamma bolalar baravar javob berishlari kerak.

2. O'yinda aytilgan cholg'u asboblarning ovozini aks ettirib, go'yo shu asbobni chalib o'tgan bo'ladilar.

3. Bog'langan bola to o'yinga tushmaguncha qo'lini qo'ltig'idan tushirmaydi.

4. Tarbiyachi o'yin davomida bolalarga ham bir cholg'u asbobini chalish, uning ovozlarni to'g'ri aks ettirishni o'rgatib borishi lozim. Bu cholg'u asboblari bolalarga turmushda (loaqaq o'yinchoq shaklida bo'lsa ham) amalda ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Shunday qilib, o'yin davomida bolalar faolligining oshuviga erishiladi. Ular chaqqon va ziyrak bo'lib, ashulalarni qiziqish bilan aytadilar. Yanada muhimi shundaki, bolalar uy hayvonlari, ularni parvarishlash, ulardan qanday mahsulot olish mumkinligini ham bilib oladilar.

Bolalarning yana ham ziyrak, hozirjavob bo'lishlari uchun savol-javoblarni bir oz chalkashtirib ham berish mumkin (**Qo'y uchadimi? — Yo'q, qo'y uchmaydi, yuradi kabi**).

"Chuchvara qaynaydir-o" o'yin-ashulasi. Bolalar birlarining qo'llarini ushlab, doira bo'ladilar. So'ngra tez harakat qilib aylanadilar va kuylaydilar:

Chuchvara qaynaydir-o,
Aham menga bermaydir-o.
Bermasa, bermasin-o,
Uyimga kirmasin-o.
Elagimni olmasin-o,
Nonimni yemasin-o.

(2 marta takrorlanadi)

Bu qo'shiqni o'rgatishda ham tarbiyachi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga ahamiyat berishi kerak. Notanish so'zlarni (**acham, elagim** kabi) izohlab berishi zarur.

"Gullola" qo'shig'i.

N a q o r a t

Bahor keldi, ochildi gullola.
Chakkalarga taqildi gullola.
Bolalar o'ynab kuldi, gullola,
Bo'ling mehmon, ochilgan gullola.

Bunisi hali g'uncha,
Chiroyli ekan buncha.
Sabr qil ochilguncha,
Gullolaxon, gullola.

Naqorat

Endi a'lo o'qiyman,
Senga she'rlar to'qiyman.
Barglaringda o'ynayman,
O'ynay shu oy, gullola, gullola.

Naqorat

Bog'imiz gulga to'ldi,
Yana ham chaman bo'ldi.
Ko'klar gulga cho'mildi,
Gullolaxon, gullola, gullola.

Bu ashulani ko'proq katta guruh tarbiyalanuvchilari aytishi kerak. Buni ham aytishda tarbiyachi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirishga alohida ahamiyat berishi lozim. Bu o'yin-ashulalar bilan o'tkazilgan mashg'ulotga tarbiyachi, ayniqsa, tortinchoq bolalarni ko'proq jalb etishi kerak. Tarbiyachi shunday bolalarni yoniga olib, talaffuzlarini kuzatib borishi mumkin.

Bolalarda tabiatga mehr uyg'otishda tarbiyachilarning daraxtlar, qushlar yoki boshqa narsalar haqidagi kichik she'rlarni yod olishlari va ularning mazmunini tushuntirishlari maqsadga muvofiqdir. Qushlarning insonlarga foyda keltirishi shu kichik she'r orqali ifodalanganini aytish zarur. Bu she'rlarni yod oldirishdan oldin ular haqidagi rangli suratlarni ko'rsatib, qisqa suhbat o'tkazish kerak.

Bolalar nutqini o'stirishda o'zbek milliy ashulalarini o'rgatish har jihatdan foydalidir. Shunday ashulalardan biri bahor faslida kuylanadigan "Boychechak" qo'shig'i bo'lib, tarbiyachi bu ashulani aytishni o'rgatishdan oldin birorta boychechakni qo'liga olib (yoki rasmini ko'rsatib) suhbat o'tkazadi. Avvalo o'zi qisqacha izoh bergach, bolalarni suhbatga tortadi:

- Bolalar, rasmda nimani ko'rib turibsiz?
- Boychechakni ko'rib turibmiz.
- Boychechak qachon chiqar ekan?
- Boychechak bahorda chiqadi.
- Bolalar, hozir ana shu boychechak haqida ashula o'rganamiz.

Tarbiyachi avval ashula matnini ohangi bilan aytib beradi. So'ngra bolalarga qatorma-qator o'rgatishga o'tadi.

Tarbiyachi bu ashulani ota-onalarimiz, bobo-momolarimiz yoshligida aytib yurishganini eslatrsa, bolalarda qiziqish yanada ortadi:

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayroni.
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog'ing vayroni.
Qattiq yerdan tatalab chiqqan
boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan
boychechak (*ikki marta*)

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu milliy ashulani aytishda, avvalo, bolalarga yakka-yakka aytirib, ularning talaffuzidagi xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni tuzattirib, qayta aytirish nutq ustida ishlashning samarasini oshiradi. She'r matni ustida ishlashda ayrim so'zlarning ma'nosini izohlash lozim.

Ba'zan fasllarga bog'liq she'rlar, tez aytishlar, topishmoqlarni ham o'rgatib borish kerak. Yuqorida aytilganidek, bolalarni qiyin tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, topishmoqlar orqali ularning fikrlash qobiliyatini o'stirishga erishiladi. Bog'cha bolalariga:

Qishda kishmish pishmashmish,
Pishsa kishmish qishmashmish —

kabi tez aytishni,

Qishin-yozin bir xil kiyimda (Archa);
U tushganda dala-qir,
Kuladi qiqir-qiqir (Yomg'ir) —

kabi kichik va qiziq topishmoqlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ongli ravishda ta'lim metodikasi asoslana-digan "tilni sezish" shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan,

ikki nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bog'chada o'yin mashg'ulotlari o'tkazish uchun o'yin shakllarini dasturda berilganidek o'rganish, mustahkamlash zarur. O'yin jarayonida bolalarni turli xil rollarni bajarishga, bir-birlari bilan gaplashishi, o'yinchoqlari bilan muloqotda bo'lishga, o'z ismini va ota-onalarining ismini aytishga, boshqa bolaning ismini so'rashga o'rgatib borish zarur. Bu jarayonda bolalarning o'yin mashqlarini bajarishi orqali lug'at boyligi o'sib borishi bilan birga, so'zlarni bir-biriga moslashtirish, ularni o'z o'rnida qo'llay bilish malakasi o'sadi.

O'yin jarayonida tarbiyachi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishi, tovushlarni bir-biridan farqlashlariga e'tibor berishi, bolalar nutqini doim kuzatib borishi va xatolarni tuzatib borishi lozim. Boshqa millat bolalarining ham davlat tili bo'lgan o'zbek tilini egallashlariga harakat qilishi, tilimizga muhabbat uyg'otishi zarur.

Bola zerikmasligi, toliqmasligi uchun tarbiyachi albatta belgilangan vaqtda jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazishi kerak. Bu bolalarni charchashdan saqlaydi, ongini rivojlantiradi, nutqini faollashtiradi.

Ikkinchi qism

5-§. MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARIGA TILLARNI O'RGATISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi natijasida respublikamizning boshqa tillarda so'zlashuvchi aholisiga bu tilni o'rgatish muammolari tug'ildi. 1994 yilda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan konsepsiya asosida rusiyzabon bolalarga o'zbek tilini o'rgatishni maktabgacha yoshdan boshlandi. O'zbek tilini bolalarning o'z ona tilidagi nutqi asosan shakllanib bo'lgan vaqtda, ya'ni besh yoshdan boshlab o'rgatishga mo'ljallangan. Bunda o'zbek tili mashg'ulotlarining asosiy maqsadi — rusiyzabon bolalarni og'zaki o'zbekcha nutqni tushunishga va o'zbek tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatishdir.

Rusiyzabon bolalarni o'zbekcha nutqqa o'zbek va rus tillarini bilgan hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni ikkinchi tilga o'rgatish uslubiyatidan xabardor muallim o'rgatgani ma'qul. Muallim nutqi aniq, ravon va taqlid qilish uchun namunali bo'lmog'i lozim.

O'zbek tiliga o'rgatish, asosan, mashg'ulotlar shaklida haftada 2 marta, iloji boricha kunning birinchi yarmida o'tkaziladi. Har bir mashg'ulot katta guruhda 25—30 daqiqa davom etadi. O'zbek tili mashg'ulotlari samarali bo'lishi uchun har bir guruhdagi bolalar soni 12—15 tadan oshmagani ma'qul.

Mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar mazkur yoshdagi bolalarning aniq imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Mashg'ulotlarni o'tkazishda bolalarni yarim doira shaklida joylashtirilsa yaxshi bo'ladi.

Mashg'ulotlar uchun tanlangan manbalarning mazkur yoshdagi bolalar uchun qiziqarli bo'lishi bilan bir qatorda ularning kundalik muloqoti uchun zarurligi hisobga olinadi.

Nutq faoliyatining turlari bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni quyidagichadir:

Bolalarni talaffuzga o'rgatish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbekcha nutqqa o'rgatishda o'zbekcha tovush va tovush birikmalarini to'g'ri eshitish orqali ajrata bilish va talaffuz qilishga o'rgatish asosiy maqsadlardan biridir.

Mashg'ulotlar jarayonida hamda mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda bolalarda o'zbek tiliga xos tovushlarni ham alohida, ham so'z tarkibida bilish, ularni rus tilidagi shunga o'xshash tovushlardan farqlay olish, o'zbekcha talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Bu ish maxsus o'yinlar orqali turli hayvon va parrandalarning ovozlariga, qo'ng'iroq, transport vositalarining, tabiat hodisalarining tovushlariga taqlid qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'yinlar jarayonida bolalar e'tiborini har bir tovushni talaffuz qilishda lab, til, og'iz harakatiga tortish lozim. Kichkintoylar so'z va gapning ma'nosiga urg'u va ohangning ta'sirini ham tushunib borishlari kerak.

O'zbekcha tovushlar talaffuzi ustida ishlashda **q, o, g', h, j** tovushlari mashqiga alohida e'tibor berish zarur. Masalan, **q** tovushining to'g'ri talaffuzi ustida ishlash mashg'ulotini quyidagicha tashkil etish mumkin:

1. **Q** tovushi ishtirok etgan so'zlar bilan tanishtirish.
2. Tanlangan so'zlarning talaffuzini mashq qilish.
3. **Q** va **k** tovushlarining bir-biridan farqini aniqlash.
4. **Q** va **k** tovushlari ishtirok etgan so'zlarni talaffuz qilish.

Har bir tovush yoki tovushlar birikmasi talaffuzi bo'yicha ishlar muntazam olib boriladi. Bunda ushbu tovush yangi o'rganilayotgan so'z tarkibiga kiritiladi. Shunday qilib, tovush va tovushlar birikmasini to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bilan birga so'z boyligini oshirish ishi ham olib boriladi.

Lug'at boyligini oshirish

Bolalarning so'z boyligini oshirish, asosan, maxsus tizimdagi mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Ikki yil mobaynida bolalar jami 500 ga yaqin so'zni o'zlashtiradilar. Bu so'zlar amaliy zaruriyat, nutqda takrorlanish, ehtiyoj, qiziqish va muloqot mavzulariga mos ravishda tanlangan. Ushbu so'zlar mavzular bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: birinchi o'quv

yilida — "Tanishuv", "O'yinchoqlar bilan harakat", "O'yinchoqlar", "Bosh kiyim va poyabzal", "Oila", "Ranglar", "Hayvonlar va parrandalar", "Birdan o'ngacha sanoq", "Meva va sabzavotlar", "Idishlar", "Oziq-ovqatlar"; ikkinchi o'quv yilida — "Tana qismlari", "Bizning uy", "Mening kun tartibim", "O'ndan yigirmagacha sanoq", "Maktab", "Bizning shahar" (qishloq), "Yil fasllari", "Bayramlar", "Bizning vatan" mavzulari bo'yicha so'z va iboralarni o'zlashtiradilar.

Birinchi o'quv yilidagi mavzular bo'yicha 250 tacha so'z, ikkinchi yilda ham shuncha so'zni o'zlashtirishlari mo'ljallangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikkinchi tilga o'rgatishda har bir mashg'ulotda o'rta hisobda to'rtta yangi so'z bilan tanishtiriladi. Bu miqdor turli omillar tufayli o'zgarishi mumkin. Avvalo, so'zlarni esda saqlab qolishni tashkil etish metodikasi hamda o'rganilayotgan yangi so'zlarning ma'no jihatdan o'zaro farqlarini o'zlashtirish zarur.

Yangi so'zlar ustida ish olib borish bir necha bosqichdan iborat: yangi so'zlarni lug'at tarkibiga kiritish; ularni faollashtirish; qancha so'zlarning o'zlashtirilganini aniqlash; bog'lanishli nutqda ishlata olish; turli nutq qurilmalarida so'zlarning qo'llanishini faollashtirish.

Yangi so'zlar ko'rgazmali qurollar, atrofda aniq predmetlar, buyumlar, suratlardan keng foydalanish asosida o'rgatiladi. Ularni namoyish qilish jarayonida nomlari bir necha marta aniq qilib aytiladi. O'qituvchidan so'ng bolalar ham ikki-uch marta qaytaradilar. Shunday qilib, o'zga tildagi yangi so'zni eshitib qaytarish bilan birga shu so'z orqali ifodalangan narsa-buyumni ko'radilar. Bola narsa-buyum bilan uning nomi orasidagi bog'lanishni aniqlaydi. Ko'rgazmali qurollar yordamida o'zlashtirib bo'lmaydigan so'zlar (**chiroyli, issiq, sovuq, mazali, yaxshi, toza**) ona tilidagi tarjimai orqali o'zlashtiriladi.

Yangi so'zlar o'yin jarayonida bolaning kundalik hayotida qiladigan harakatlari, buyumlar bilan harakatlarni bildiruvchi so'zlari, o'qituvchining bolalarga, bolalarning bir-biriga qilgan iltimos, buyruqlari orqali o'zlashtiriladi va lug'atiga kiritiladi.

Bolalarning topshiriq va buyruqlarni tushunib, ularni bajarish bilan bog'liq bo'lgan, tinglangan ertak va hikoyalar, topishmoqlar, yodlangan she'r, ashula va qo'shiqlar, tomosha qilingan multfilmlar vositasida tanishgan so'zlari ularning passiv lug'atini

tashkil etadi. Bu lug‘atning hajmi faol lug‘atga nisbatan ancha katta bo‘ladi.

Yangi so‘zlarni o‘rganish jarayonida bolalarning nutq tajribasida uchramagan, ko‘pincha o‘zbekcha turmush tarziga oid bo‘lgan narsa va hodisalar haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi (masalan, xontaxta, nimcha, sumalak, navro‘z kabi).

So‘z ustida ishlash jarayonida yana quyidagilarga e‘tibor berish zarur:

— har xil ish turlarini tashkil etishda ma‘no jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir guruh so‘zlardan kerakli so‘zni tanlashga o‘rgatish;

— yangi so‘zlarni eshitib tushunib, faol qo‘llashni muayyan izchillikda amalga oshirish;

— bolada o‘zbekcha so‘zlarni tushunish, shuningdek, o‘z fikrini, niyatini bildirish maqsadida ushbu so‘zlarni turli vaziyatda qo‘llash ehtiyojini uyg‘otish.

Bog‘lanishli nutq

Nutqiy faoliyatning tovush va tovush birikmalarini to‘g‘ri talaffuz qilish va so‘z boyligini oshirish kabi turlari bo‘yicha ishlar bog‘lanishli nutqni o‘zlashtirishga xizmat qilishi kerak.

So‘z ustida ishlash faqatgina so‘zni tushunib olish, uni esda saqlab qolishdangina iborat bo‘lmay, bog‘lanishli nutq bo‘yicha ishning debochasi hamdir. Tilni o‘rgatishda so‘zga katta e‘tibor berilsa ham, lug‘at boyligini oshirish birdan-bir maqsad bo‘lmasdan, bolalarni o‘rganilayotgan so‘zni darhol nutqqa joriy etib, muloqot jarayonida qo‘llashga yo‘llash ham muhimdir.

Bog‘lanishli nutq dialog (ikki yoki bir necha shaxs orasidagi suhbat) yoki monolog (bir shaxs tomonidan xabar berish, hikoya qilish) tarzida bo‘lishi mumkin.

Bolalarda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini hosil qilish deganda biz nutq faoliyatining ikkala turi bo‘yicha ish olib borishni ko‘zda tutamiz. Chunki bog‘lanishli nutq bo‘yicha so‘zlash hamda bunday nutqni eshitib tushunish ko‘nikmalarini ham hosil qilish zarur. So‘z va iboralarning ma‘nosi tushunilsa, fikrni ravon bayon etish mumkin bo‘ladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida nutq faoliyatining bu turi asosiy o‘rinni egallaydi. Eshitib tushunishga o‘rgatishdan

maqsad aytilayotgan gapning ma'nosini idrok qilish ko'nikmasini shakllantirishdir. Bunga quyidagi usullar bilan erishish mumkin:

- dastavval kichkintoylarni o'qituvchining buyurganlarini bajarishga o'rgatish (oborib qo'y, olib kel, o'tir, tur va hokazo);
- nutq o'stirishning izlanish usullari yordamida (qaytar, aytchi, t harfini ayt, topib ol va hokazo).

Bog'lanishli nutqqa o'rgatish nutq qurilmalari asosida olib boriladi. Nutq qurilmalari deb, tuzilishi bilan ajralib, ma'lum leksik, fonetik va grammatik shakldagi so'z birikmalari va gaplarning namunasini aytamiz.

So'z va so'z birikmalari quyidagi nutq qurilmalari orqali o'zlashtiriladi:

- egalik kategoriyasi (Mening uyim. Sashaning kuchugi);
 - buyruq fe'li (bor, ol, tur, boringlar, turinglar);
 - ko'plik (koptoklar);
 - sifatning qiyosiy darajasi (katta, kattaroq);
 - sifatning orttirma darajasi (eng katta, eng yaxshi);
 - ma'qullash va inkor etish (ha, yo'q, ol, olma, mumkin, mumkin emas);
 - narsalarning o'rmini belgilash (stol ustida, stol tagida, javon yonida);
 - ko'rsatish olmoshlari (bu, ana, shu, ana u);
 - tushum kelishigi qo'shimchasi (qo'g'irchoqni bering);
 - so'roq gaplarda **-mi** va **-chi** yuklamasi (Bu sening uyingmi? Bu-chi? Kitobingmi? Qalamingmi?);
 - **va** bog'lovchisi (ayiqcha va shar);
 - **bilan** ko'makchili qurilmalar (Sen uyda kim bilan yashaysan?);
 - o'tgan zamon fe'li (Sasha keldi. Men choy ichdim.);
 - hozirgi zamon fe'li (Sen nima qilyapsan? Men choy ichyapman.);
 - jo'nalish va chiqish kelishigi qo'shimchalari (Men uyga boraman. Javondan ayiqchani olib ber.);
 - son (bir, ikki, uch, to'rt, besh va hokazo);
 - sanash (bitta, ikkita, uchta, to'rtta va hokazo).
- Bundan tashqari, bolalarda quyidagicha fikr almashuvga oid malaka va ko'nikmalar hosil qilish ko'zda tutiladi:
- kun tartibiga oid nutqni tushunish va shunga muvofiq buyruq hamda topshiriqlarni bajarish;
 - berilgan savollarga javob qaytarish va savol bera olish;

— mulozamatga oid o'rganilgan iboralarni nutqda qo'llash;
— o'zi va oila a'zolari haqida ma'lumot (ismi, familiyasi, yoshi) bera olish;

— o'zlashtirilgan lug'at doirasida rasm mazmunini bayon eta olish, tinglanayotgan ertak, topishmoq, she'r va qo'shiqlar-ni tushunib, mazmunini yoddan so'zlab berish;

— yangi so'zlarni ilgari o'zlashtirilgan nutq qurilmalari tarkibida ishlata bilish;

— yangi o'rganilgan nutq qurilmalarini nutqda erkin qo'llay bilish va hokazo.

Ushbu nutq qurilmalarini tanlashda quyidagi mezonlar e'tiborga olinadi:

a) namunaviylik, ya'ni o'zlashtirilgan nutq qurilmalari asosida unga o'xshashlarini tuzish mumkinligi;

b) turli xil fikrlarni bildirish uchun amaliyotda qo'llash zaruriyati;

v) nutq qurilmalari tanlangan leksik va grammatik manba asosida tuziladi. Ularning xolisligi (ob'yektivligi) ma'lum darajada lisoniy statistika bilan ta'minlanadi.

Nutq qurilmalarini o'zlashtirish deganda bolalar o'zlashti-rib olgan so'zlar yordamida mustaqil ravishda nutq qurilmalarini tuza olishi ko'zda tutilgan. Masalan, bolalar "mening ismim..." nutq qurilmasi asosida "ukamning ismi...", "uning ismi...", "bu qo'g'irchoqning ismi..." kabi iboralarni tuza olishlari kerak. Bu-ning uchun esa turli o'yinlar yordamida har bir nutq qurilmasini qayta-qayta qo'llash uchun imkoniyat yaratish tavsiya qilinadi.

Turli xil o'yinlardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. O'zbek tilida so'zlashga qiziqishni shakllantiradi.

2. Bolalarda o'zining lug'at boyligini jadal kengaytirish ista-gini uyg'otadi.

3. Nutq qurilmalarini ko'r-ko'rona qaytarmasdan, ular asosi-da o'z fikr va istaklarini ijodiy tarzda ifodalashga o'rgatadi.

6-§. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'ZGA TILGA O'RGATISHNING DIDAKTIK TALABLARI

Bolalarni o'zga tilga o'rgatishda tilni o'zlashtirishga ehtiyoj va qiziqish, intilish uyg'otish lozim. Nutq faoliyati qaysi tilda bajarilishidan qat'i nazar, til o'rganishning muvaffaqiyati —

bolalarning ichki faolligi, ularning o'z fikrini o'zbek tilida ifoda etishga intilishi va qiziqishidir.

Muloqotga ehtiyojning borligi yangi o'quv materialini tushunib olish va eslab qolishda katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida ularda bunday ehtiyoj paydo bo'lishiga harakat qilish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbek tiliga o'rgatishda ma'lumdan noma'lumga, o'zlashtirishda material qaytarilishini va mustahkamlanishini ta'minlash, ta'lim va tarbiyani uzviy bog'lash kabi umumdidaktik talablarga ham amal qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya konsepciyasida (1992) ta'kidlanishicha, maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim va tarbiya bolaning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin tarzida olib borilishi zarur. Shu bois rusiyzabon bolalarni o'zbek tiliga o'rgatishda o'yinning ahamiyati kattadir.

O'yinlar

Ma'lumki, nutq faoliyatiga ruhan yondashsak, fikr bayon qilish jarayoni bir necha bosqichdan iborat ekanini ko'ramiz. Bu bosqichlar so'z va jumlar orqali suhbatdoshga yetkaziladigan fikr, unga iltimos qilish, buyruq berish, uning fikrini ma'qullash yoki unga e'tiroz bildirish, uni ishontirish, gapini inkor qilish kabilar tarzida namoyon bo'ladi.

Mavjud hayotiy vaziyatda taxmin, maqsad va niyat tabiiy muloqot tarzida amalga oshadi. Biroq maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbek tiliga o'rgatishda kichkintoylarning fikr va istaklarini hamda ularni ma'lumot olishga undash uchun maxsus sun'iy vaziyatlar tashkil qilish zarurati bo'ladi. Bolalarda o'zbek tilida gapirish mazmun, maqsad va niyati paydo bo'lishi uchun bu vaziyatlar ularning ehtiyojidan kelib chiqishi zarur. Bunday vaziyatlarning mavjud holatlarga mukammal holda yaqinlashishi o'yinlarni qo'llash tufayli amalga oshadi.

L.S. Vigodskiy ta'kidlaganidek, bolalar o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u amalda bajara olmaydigan istaklarni xayolda amalga oshiradi.

Bolaning o'yin faoliyatini uning boshqa shakldagi faoliyatlardan ajratish mezonini shundan iboratki, o'yinda u xayoliy

vaziyatni yaratadi. Bolalarning boshqa bolalardan farqi xayoliy vaziyatlarni yaxshi tushunishi va bunday vaziyatlar yaratishga moyil bo'lishlaridadir.

O'yin bolalarning diqqatini bir joyga to'plashda yordam beradi. Bola mavjud hayotda hali uddalay olmaydigan narsalarni ham o'yin jarayonida uddalashga harakat qiladi. Bunda kichkintoylar o'z-o'zini boshqarishni o'rganib boradi.

Bugungi kunda o'yinlar amaliyotda keng qo'llansa ham, ilmiy-metodik nuqtai nazardan yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tilni didaktik o'yinlar yordamida o'rgatish ham bolaning tilga, ya'ni xayoliy vaziyatga kirishga intilishi, o'yin vaziyatiga qarab harakat qilishiga asoslanadi.

Bolani o'yinga, o'yin orqali til o'rganishga qiziqtirishda ko'rgazmali qurollar katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'zbek tili mashg'ulotlarida va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda rangli, harakatli rasmlar, o'yinchoqlar kabi turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Agar o'yinda tovushlar, so'zlar va nutq qurilmalarining ma'nosini anglash uchun yaxshi sharoit bo'lsa, bolalar ularni puxta o'zlashtiradi. Chunonchi, fonetik o'yinlar davomida bola o'zbekcha talaffuz ko'nikmalarini egallab boradi.

Maxsus o'yinlar davomida bola o'zbekcha nutqni eshitib, to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadi va kundalik muomalaga oid iboralarning ham ohangini o'zlashtirib oladi.

Leksik o'yinlar lug'atga kiritilgan so'zlarning ma'nosini yaxshiroq tushunishga, ularni mustahkamlash va faollashtirishga yordam beradi. O'yin jarayonida kichkintoylarning so'z boyligi ortib boradi va ular yangi kiritilgan so'zlarni o'zlashtirilgan so'zlar bilan bog'lab, ularni nutqda qo'llashga harakat qiladilar.

Sintaktik o'yinlar esa nutq qurilmalari bo'yicha vaziyatga qarab fikrni ifodalashga o'rgatadi.

7-§. MASHG'ULOTLARDAN TASHQARI VAQTLARDA RUSIYZABON BOLALAR BILAN ISH OLIB BORISH

Bolalar o'zbek tilini muomala vositasi sifatida o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda (kundalik muloqotda, sayr-sayohatlarda, ovqatlanish paytida,

yuvinish vaqtida, bayramlarga tayyorlanishda, o'yin va mehnat faoliyatlarida) ham ish olib borishi kerak.

Mashg'ulotlardan tashqari olib boriladigan ish ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Mashg'ulotlardan tashqari paytlarda bolalarni o'zbekcha nutqqa o'rgatish vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish. Bu tilning respublika xalqlari va bolalar hayotida tutgan o'rni hamda ahamiyatini tushuntirish.

2. Bolalar so'z boyligini oshirish hamda nutqiy malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash va faollashtirish.

3. Kichkintoylarni o'z yoshiga va bilim doirasiga mos o'zbekcha she'r, qo'shiq va ertaklar bilan tanishtirish, shu yo'l bilan ularning passiv lug'atini boyitib borish.

4. Bolalar bilan yakkama-yakka ishlab, ularning nutqini takomillashtirishda har birining layoqatiga qarab ish tutish.

Mashg'ulotlardan tashqari vaqtda bolalarni o'zbek tilidagi radio va televidenie eshittirishlari-ko'rsatuvlarini, jumladan, bolalar uchun har kuni birinchi dastur orqali namoyish etiladigan "Oqshom ertaklari" ko'rsatuvi haqida suhbat uyushtirish mumkin. Masalan, o'qituvchi bolalar bilan ular tinglagan ertakning qisqacha mazmuni haqida gaplashishi mumkin. Shunda bolalarda o'zbek tilini o'rganish qiziqarli ekani va zarurligi xususida tushuncha hosil bo'ladi.

Mashg'ulotlardan tashqari vaqtda o'tkaziladigan jismoniy daqiqalar va oddiy harakatli o'yinlarning o'zbek tilida olib borilishi ham bolalarda ushbu tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Bunday ish turlari jarayonida bolalar o'zbek tili bo'yicha bilimlarini mashg'ulotlardan tashqari muomala sharoitida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuni ham aytish kerakki, vaqti-vaqti bilan bolalarga qo'g'irchoq teatrini namoyish qildirish ham yaxshi natija beradi. Bunda o'zbek tilidagi kichik-kichik ertaklar yoki ertaklardan parchalar sahnalashtiriladi. Bu ishni avval o'qituvchi, keyinchalik esa bolalarning o'zlari ham tarbiyachi rahbarligida sahnalashtirishlari mumkin. Bu ishda quyidagi asosiy mezonlarni ko'zda tutish lozim:

— nutq materiali bolalarning yosh xususiyatlariga va nutq layoqatiga mos bo'lishi kerak;

— bolalarda qiziqish uyg'otishi lozim;

— mo'ljallangan ish turlari mashg'ulotlarda o'tilayotgan mavzular bo'yicha o'rganilayotgan so'z va nutq qurilmalari bilan bog'liq bo'lishini ko'zda tutish darkor.

Shunday qilib, mashg'ulotlardan tashqari vaqtda o'qituvchi bolalar bilan har xil ish turlaridan: o'yinlar, jismoniy daqiqalar, ertak va topishmoqlar, she'r va qo'shiqlar ustida o'zbek tilida ish olib borib, bolalarning o'zbekcha nutqini faollashtirishi mumkin.

Ertaklar

Rusiyzabon bolalarni o'zbekcha nutqqa o'rgatishda ertaklar ustida ishlash yaxshi vosita bo'la oladi. Chunki bola tabiatga yaqin, uni yangi olamga olib kiradi. Ertak tinglab, bolalar fikran undagi hamma voqea va hodisalarni chuqur his etadilar, ertak qahramonlari bilan harakat qiladilar. Ertaklar orqali bolalar o'zbek xalqining an'analari, urf-odatlari bilan yaqindan tani-shadilar.

Bolalarga o'zbek tilini o'rgatishda ertaklarni rasmlar orqali yoki ekranda, qo'g'irchoq teatrida namoyish qilish ma'qul. Chunki bola ertak matnini nafaqat eshitishi, balki ko'rish ham kerak. Ertaklar kichkintoylarni o'yin vaziyatiga yaqinlashtirib, ularning fikr va hislariga ta'sir qiladi.

Bolalarni ertaklar yordamida o'zbekcha nutqqa o'rgatishda ertak matni yuzasidan quyidagi vazifalarni berish mumkin: ting-langan ertak bo'yicha savollarga javob berish; ertak mazmuni-ni qisqacha hikoya qilish; ertak qahramonlari harakatini sharh-lash; o'qituvchi rahbarligida ertaklarni sahnalashtirish va hokazo.

Ertaklar ustida ishlash jarayonida bolalarning lug'at boyligi ortib boradi hamda ertak asosida muloqot qilishga o'rganadilar. Ertak matni ustida ishlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

— ertak qahramonlarining o'zaro suhbatlarini eslab qolish va qaytarish;

— ertakni sahnalashtirish.

Ertak sahnalashtirilganda bolalar uning matindagi nutq quril-malarini o'zlashtiradilar. Natijada muloqotga kirishish oson-lashadi.

Tanlangan ertakni rasmlar yordamida gapirib berish bolalar-ning monologik nutqini rivojlantiradi.

Ertaklar matnida til materiallarining (soʻzlar, soʻz birikmalari, jumalar, dialoglar...) berilishi ularning bolalar tomonidan oʻzlashtirilishini taʼminlaydi. Masalan, "Boʻgʻirsoq" ertagining matnida "Men buvimdan qochib ketdim, men buvamdan qochib ketdim" degan jumlaning koʻp marta takrorlanishi mazkur soʻz va soʻz birikmalarining bolalar lugʻatiga kirishiga hamda mustahkamlanib qolishiga yordam beradi.

Qoʻshiq va sheʼrlar

Taʼlimning ilk bosqichida qoʻshiq va sheʼrlar mazmunini tushunib, ular matnini yodlab olish ikkinchi tilni oʻrganishda katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun hajmi katta boʻlmagan, bolalar hayotiga bogʻliq sheʼr va qoʻshiqlar qoʻl keladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida qoʻshiq va sheʼrlar, asosan, oʻqituvchi ketidan yoki magnitofon vositasida eshitib qaytarish orqali amalga oshiriladi.

Sheʼr va qoʻshiqlar matnidagi soʻzlarni tushuntirish rangli oʻyinchoqlar, rasmlar yordamida olib borilgani maqsadga muvofiqdir. Shunda bolalar nomaʼlum soʻzlarni ham eshitadilar, ham ular orqali ifodalangan narsa-buyumlarni koʻradilar, ham oʻsha soʻzlarni talaffuz qilishni oʻrganadilar.

Sheʼr va qoʻshiqlarni yodlash jarayonida ularning matnini koʻp marta qaytarish natijasida undagi soʻz va jumalarni bolalar yaxshi oʻzlashtirib oladilar. Yodlab olish, esda saqlab qolish xususiyatlari hammada, shu jumladan bolalarda ham turlichadir. Shuning uchun qoʻshiq va sheʼrlar matni birgalikda yodlangani maʼqul. Chunki bunda tilni bilish darajasi past boʻlgan bolalar ham faol qatnashadilar. Biroq oʻqituvchi har bir bolaning talaffuzidagi xatolarni, kamchiliklarni payqamasligi mumkin. Shuning uchun avval matn ustida sust oʻzlashtiradigan bollar bilan yakkama-yakka ish olib borish, shundan keyingina boshqa bolalar bilan ishlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bolalarni 3—4 tadan guruhlarga boʻlib ham mashq qilish mumkin.

Yodlab olingan matnlardan bolalarning faol nutqiga qanchalik koʻproq soʻz va iboralar oʻtsa, ularning oʻzbekcha nutqi shuncha tez rivojlanib boradi.

Topishmoqlar

Bolalarni o'zbekcha nutqqa o'rgatishda topishmoqlar alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, topishmoqlar narsa yoki hodisalarning qisqacha ta'rifi bo'lib hisoblanadi. "Topishmoq, — deb yozadi adabiyotshunos M. Abdurahmonov, — narsa yoki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishga, sir tutishga asoslangan kichik poetik asardir."

Topishmoqlarda insonning turmushi bilan bog'liq bo'lgan, uning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar, buyumlar, o'simlik va hayvonot dunyosi kabilar ta'riflanadi. Ko'pincha topishmoqlarda narsa va hodisalarning hajmi, shakli, rangi, tovushi, mazasi, harakati kabi belgilari beriladi.

Topishmoq bolalarni obrazli va aniq so'zlashga o'rgatishni osonlashtiradi. Topqirlik, aqliy faollik kabi holatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tanlangan topishmoqlar sodda, qisqa va tushunarli bo'lishi kerak. Shu bois topishmoqlarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ayniqsa, o'zga tilni o'zlashtirish imkonini hisobga olishi lozim.

Rusiyazon bolalarni o'zbek tiliga o'rgatishda tanlangan topishmoqlarda narsa va hodisalarning eng muhim belgilari ifodalanishidan unumli foydalanish zarur. Masalan, hayvonlar haqidagi topishmoqlarda bunday belgi ularning ovozi hisoblanadi:

Vov-vov deydi, baqiradi,
Tug'ishganin chaqiradi.

(It)

Topishmoqlarni tanlashda, albatta, bolaning tarbiyasi va o'zbek tilidagi bilimi hisobga olinishi kerak. Chunki umrida eshitmagan yoki ko'rmagan narsasi haqida aytilgan topishmoqni bola hech qachon topa olmaydi. Shuning uchun ham topishmoqlar asosan, nomi o'zlashtirib olingan narsa va hodisalar haqida bo'ladi. Topishmoqlar orqali bolalarning mavjud bilimlari mustahkamlanadi.

Topishmoqlar o'zbek tili mashg'ulotida o'tilayotgan mavzuga ham muvofiq bo'lishi kerak. Aks holda bolaning diqqati chalg'iydi va ko'zlangan maqsadga erishish qiyin kechadi. Topishmoqlar ustida quyidagi tarzda ish olib borgan ma'qul:

- topishmoqda ko'rsatilgan narsa va hodisa belgilarini tushunib olish, ya'ni tahlil qilish;
- bu belgilarni bir-biriga taqqoslash va umumlashtirish;
- aniqlangan belgilar asosida xulosa chiqarish, ya'ni topishmoqning javobini topish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar topishmoq matni ustida ishlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Ko'pincha bolalar javob berishga shoshilib, topishmoqni oxirigacha eshitmaydi, uni har tomonlama batafsil tushunib yetmaydi. Ularning diqqati matndagi birorta belgiga bog'lanib qoladi. Xulosani ular faqat shu yagona belgi asosida, qolganlarini e'tiborga olmagan holda chiqaradilar. Topishmoqni topish uchun muhim bo'lgan belgi esa e'tiborga olinmaydi. Bunday vaqtda topishmoqni topish qiyinlashadi.

2. Topishmoq yechishda uning ma'nosini bolalarning yaxshi tushunib olishiga, izchillik va tartib bilan fikr yuritishiga harakat qilish kerak. Bunda fikr yuritish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- umumiy ko'rinishda nimani qidirishni aniqlash;
- qolgan hamma belgilarni aniqlash;
- taxmin qilinayotgan yechimni keltirish;
- aniqlangan belgilarni birlashtirish;
- xulosa chiqarish.

O'qituvchi-tarbiyachi topishmoqlarni ifodali tarzda bayon etadi, bolalar aytilayotgan narsa-buyumning hamma belgilarini eslab qolishlari uchun matnni qaytaradi. Savollar yordamida bolalarning e'tiborini belgilarga va ular orasidagi aloqaga qaratish kerak.

Bir narsa haqida turli topishmoqlar aytilishi bolalar lug'atini boyitish imkonini beradi.

Topishmoq topishni yengillashtirish uchun o'qituvchi bolalarga topishmoq yuzasidan quyidagicha savollar berishi mumkin:

"Toppinglar-chi, bu mevami yoki sabzavotmi? U qaerda o'sadi? Bu qanday faslda bo'ladi? Bu qaysi hayvon ekan?" kabi. So'ng topishmoqni ifodali o'qib, rasmga qarab uning javobini topishni taklif qiladi. Masalan, "Stolni bezatish" o'yinida stol tasvirlangan rasm tanlab olinadi, idishlar hamda oziq-ovqat rasmlari va ular haqida topishmoqlar tayyorlanadi. Topishmoqqa javob bo'lgan rasmni bolalarning o'zlari tanlaydilar. Topishmoqni rasmga qarab topish uni topishda yordamchi savollar berish yaxshi samara beradi.

Ota-onalar bilan ishlash

Bolalarda davlat tilini o'rganishga qiziqish va intilishni tarbiyalash uchun bevosita ota-onalar yordami zarur. Binobarin, ota-ona maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarga davlat tili bo'lgan o'zbek tilini o'rgatish qanday olib borilayotgani haqida xabardor bo'lishi lozim. Buning uchun ota-onalar majlislari va maslahatlar tashkil qilinadigan mashg'ulotlarga ota-onalarni taklif qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, quyidagicha mavzular bo'yicha materiallar to'plab, ularni ota-onalarga tavsiya etish mumkin:

"Bolalar bilan tomosha qiling" (O'zbek tilidagi jajji kitoblar tavsiya etiladi).

"Javobini toping" (Topishmoqlar beriladi.)

"Bolalar bilan yodlang" (Kichik-kichik she'rlar beriladi).

"Bolalar bilan o'ynang" (O'zbekcha so'z o'yinlari tavsiya etiladi.)

"Bolalar bilan ko'ring va eshiting" (O'zbek tilidagi teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar dasturi tavsiya etiladi).

Bundan tashqari, ota-onalar burchagi tashkil qilinib, unda "O'zbek tilini o'rganamiz" sarlavhasi ostida mashg'ulotlar va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan materiallar, lug'at, nutq qurilmalari, she'rlar, jismoniy daqiqalar matni, topishmoqlar hamda o'zbek tilida kichkin-toylarga olib berish mumkin bo'lgan bolalar adabiyoti ro'yxati beriladi.

Mashg'ulot ishlanmalari

1-mashg'ulot. Mashg'ulotning maqsadi.

Bolalarni hikoya tuzishga o'rgatish. Lug'at va grammatika. I tovushini to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish.

Ko'rgazmali qurollar: o'yinchoqlar, it, ilon, echki, eshak kabilar.

Mashg'ulotning borishi.

1. Rasmlarni olib qo'yib, ularning nomini bolalar bilan aytish.
2. It, ilon, echki, eshaklarning qanday tovush chiqarishini aytirish. It: **vov-vov**, ilon: **vish-vish**, echki: **me-e**, eshak: **i-ho-i-ho**

3. Bu hayvonlar qaerlarda bo'ladi? Nimalar yeydi?

4. Siz shu hayvonlardan qaysi birini yoqtirasiz?

"Echki va uning bolalari" yoki "Qo'rqmas it" ertaklarini ham aytib berish mumkin: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Bir echkning bolalari ko'p ekan. U o't olib kelgani o'rmonga ketadi..." Tarbiyachi shu tariqa ertakni aytib beradi. So'ngra ertak syujetiga mos rasmlarni ko'rsatadi.

Imkon bo'lsa, "Echki bolalari va bo'ri" o'yinini o'ynashlari mumkin. Buning uchun echki va uning bolalari bilan bo'ri alohida o'tqaziladi. Echki o'tloqda yurganda bo'ri kelib qoladi. Bo'ri kelishi bilan echki bolalari qochib bekinishadi.

Mashg'ulot davomida bolalarga "it, ip, igna, til, baliq, behi, sabzi, lavlagi, echki, bo'ri" so'zlari takrorlattiriladi.

2-mashg'ulot.

Mashg'ulotning maqsadi.

Bog'lanishli nutq. Bolalarni hikoya tuzishga va qisqa hikoyalashga o'rgatish.

Lug'at va grammatika. Narsa-buyumlar nomlarini aytirish. Nutqning tovush madaniyati.

So'zlarni bo'g'inga ajratish bo'yicha mashq-o'yin o'tkazish. Masalan, tarbiyachi sabzavotlardan sabzi, karam, kartoshka, pomidor, bodring, piyoz, qovun, rediska kabilarning suratini yoki o'zini bolalarga tanishtiradi. Ularni stolga qo'yib, nomini so'raydi.

— Bu nima? (**Sabzi, karam, qovun, kartoshka, piyoz, pomidor.**)

— Bularni eb ko'rganmisiz? (**Ha.**)

— Sabzining rangi qanday? (**Sabzining rangi sariq.**)

— Sabzi shirinmi yo achchiqmi? (**Shirin.**)

— Pomidor-chi, u qanaqa rangda? (**Qizil.**)

— Uning mazasi qanday? (**Shirin.**)

— Qovunning mazasi qanday? (**Shirin.**)

Tarbiyachi bolalarni stol oldiga taklif qilib aytgan sabzavotlarini birma-bir oldirib ko'rsatadi.

3-mashg'ulot.

Mashg'ulotning maqsadi.

Bog'lanishli nutq. Bolalarni hikoya tuzishga o'rgatish.

Lug'at. Qiz va o'g'il bolalarga qo'yilgan ismlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish.

Nutqning tovush madaniyati. A tovushini so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish.

1. Tarbiyachi qiz, o'g'il bola rasmini yoki qo'g'irchoqni ko'rsatadi. Bolalar ularga ism qo'yadilar. (**Abror, Jamila, Aziz, Aziza, Alisher, Ravshan, Jasur, Nigora.**)

Tarbiyachi bolalardan ikkitasini chiqarib, bu qo'g'irchoqning nomi nima deb so'raydi. Bolalar javob beradilar. (**Anvar, Ra'no...**) So'ngra o'zlarining va o'rtoqlarining ismlari so'raladi. Boshqalar ularni takrorlaydilar.

2. Tarbiyachi "Alla" she'rini aytib beradi:

Alla bolam, alla-yo,
Uxlab qolgin, alla-yo.
Suyar so'zim alla-yo,
Jonim qo'zim alla-yo...

Tarbiyachi qo'g'irchoqni olib, **alla, bolam, alla** so'zlarini bolalar bilan birga takrorlaydi.

3. Tez aytishlarni tez aytishga o'rgatish.

Lola allalaydi,
Sora arralaydi.

4-mashg'ulot.

Mashg'ulotning maqsadi.

Bog'lanishli nutq. Bolalarni qisqa hikoya tuzishga o'rgatish.

Nutqning tovush madaniyati. **M, p, b** tovushlarini so'zlar tarkibida aytirib mustahkamlash. Tovushlarni eshitib farqlashga o'rgatish.

Lug'at va grammatika. Bolalarning ismlari, sifat va harakatlarini ifodalashda so'zlardan foydalanish malakasini shakllantirish.

Ko'rgazmali qurollar. O'yinchoqlar: mushuk, sigir, echki, bo'ri, bo'g'irsoq, ayiq, sichqon, mashina, baliq, quyonchalar, chumchuqlar, Shahnoza nomli qo'g'irchoq.

Mashg'ulotning borishi.

1. Tarbiyachi "Do'konimiz ochildi. Qaranglar-chi, ularda nimalar sotilar ekan" deb so'raydi va o'yinchoqlarni birma-bir ko'rsatadi.

— Bu nima? Mushuk qanday miyovlaydi?

Javoblar umumiy yoki yakka tartibda bo'lishi mumkin. Bolalarni ayiq yoki boshqa hayvonlar haqida ham shu tarzda suhbatga tortish mumkin.

2. Tarbiyachi echki yoki qo'y ovoziga taqlid qilib "mea-a, mea-a"laydi. Nimaning ovozi ekanini topishni buyuradi va hokazo.

3. "O'yinchoq do'koni" o'yini o'tkaziladi.

5-mashg'ulot.

Mashg'ulotning maqsadi. Tanlangan o'yinchoqlar bo'yicha ijodiy hikoya tuzishga o'rgatish. Grammatik mashq. Nutqning tovush madaniyati.

Dastur mazmuni. Bog'lanishli nutq. Bolalarni o'yinchoqlardan foydalangan holda mazmunli hikoya tuzishga va undagi qahramonlarni tasvirlab berishga o'rgatish.

Grammatika va lug'at. Gap tuzish. Bolalarning so'z boyliklaridan foydalanib, 2—3 so'zdan iborat gapni mustaqil o'ylab tuzishni mashq qilish.

Nutqning tovush madaniyati. Bolalarni s, z tovushlarini eshitib, farqlashga o'rgatish. Bu tovushlarning alohida va to'g'ri talaffuzini aniqlash hamda shu haqdagi tushunchalarni mustahkamlash.

Ko'rgazmali qurollar. O'yinchoqlar: qo'g'irchoq, kuchukcha, mushukcha, ayiqcha, quyoncha, tulki.

Tarbiyachi bolalarga hikoya tuzdirgandan so'ng hikoyada foydalanilgan so'zlarni tanlab olib, ular ishtirokida gap tuzishga o'rgatadi. Masalan, **daraxt, ko'chada, qushcha, bolalar, shoxida, qo'nib turibdi, o'ynayaptilar.**

1. Qushcha daraxt shoxiga qo'nib turibdi.

2. Bolalar ko'chada o'ynayaptilar.

6-mashg'ulot.

Mashg'ulotning maqsadi. Bolalarni badiiy asarni qayta hikoya qilishga o'rgatish. "Ikki echki" xalq ertagi. Grammatik mashq. Nutqning tovush madaniyati.

Dastur mazmuni.

Bog'lanishli nutq. Asarni qayta hikoyalashga o'rgatish davom ettiriladi. Asar voqealarini bayon qilayotganda o'jarlik, qaysarlik ohangini qo'llay olishlariga erishish.

Grammatika va lug'at. Yaqin ma'noli so'zlar topish. Berilgan so'zlar asosida gap tuza olish ko'nikma va malakalarini o'stirish. So'zlarni aniq va burro aytish. So'zlayotganda to'g'ri nafas olishni o'rgatish. (Tarbiyachi ertakni o'qib beradi.)

Ertak yuzasidan savollar.

1. Echki qayerda va qanday holatda uchrashib qoldilar?

2. Echkilar bir-biriga qanday do‘q qildilar? Ohangini keltirib so‘zlang.

3. Echkilar tortishuvi nima bilan tugadi?

Grammatik mashq. Ertakda echkilar qanday tasvirlangan? (O‘jar, qaysar, urushqoq.)

1. O‘jar echki. 2. Qaysar bola. 3. O‘jar quyoncha. 4. Qaysar kuchukcha.

Tarbiyachi va o‘qituvchi yuqorida berilgan mashg‘ulot namunalariga ijodiy yondashuvi, mashg‘ulotga bolalarni qiziqtiradigan hamda ularga bilim va tarbiya beradigan ish turlari kiritib borishi va shu tariqa o‘z metodikasini yaratishi lozim.

Uchinchi qism

NUTQ O‘STIRISH UCHUN MATERIALLAR

BIRINCHI CHORAK

Oqib berish uchun

QAND

Agar kim ko‘p qand yesa,
Burni qonar, der Tolib.
Shuning uchun men uni
Ichaman choyga solib.

To‘ra Mirzo

BOLARI ILA PASHSHA

Bir pashsha qir tomondan uchib kelayotgan arini ko‘rib: "Do‘stim, qayerdan kelursan?" — dedi. Ari: "Qirdan kelurman. Biroz bol yig‘dim. Uy yasamoq uchun mum ham hozirlab keldim", — dedi. Pashsha: "Oh, birodar! Bir boshing uchun buncha harakat qilursan? Nima bo‘lurki, sen ham men kabi rohatda yashasang. Chunki mening yashamog‘imda hech bir mashaqqat yo‘q. Insonlar tomonidan hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib umr o‘tkazurman. Ba‘zi vaqtlarda sen yasagan bolingdan ham to‘yguncha yerman. Mana, yashamoq, mana! Umr kechirmoq uchun olamda bundan yaxshi turmush bo‘lurmi? Menda na bol hozirlamoq mashaqqati, na uya solmoq kulfati bor", — dedi. Ari bu so‘zlarga javoban dediki:

"Oh, do‘stim! Sening bu turmushing o‘z boshingdan beri kelmasin. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo‘lurmi?! Insonlar seni supradan quvarlar, urarlar, o‘ldirarlar. Sen olamda o‘g‘rilar kabi umr o‘tkazursan. Oxirida bir o‘rgumchak luqmasi bo‘lmakdan boshqa narsaga yaramassan. Ammo mening tayyorlagan mumim hamma ibodatxonalarni yoritur. Bolim dunyoning

hamma yerinda maqbuldir. Insonlarning og'izlarini totli qilur. Shu sababli insonlar meni o'zlari tarbiya qilurlar va har yerda meni maqtarlar, — dedi-da, — qo'y, birodar, mening ishim ko'p, sen ila behuda so'zlarni so'zlashib tururga vaqtim yo'q" — deb uchib ketdi.

Hissa: Mehnat — oxiri rohat,
 Yalqovlik oxiri xorlikdir.

Abdulla Avloniy

TOPISHMOQ SHE'RLAR

Kartoshka

Guli ko'pincha oppoq,
O'zi pushti, sarg'ishroq.
Qo'rga ko'msangiz uni
Xuddi rostakam saryog'.

Tish-tish bo'lib o'sar g'uj,
Uch burchakli har tishi.
Go'yoki bir to'p oqqush,
Suv ichar — bir idishi.

Turp

Piyoz

Ko'k soch kiyar ko'klam choq,
Yetti qavat to'ni bor.
Usiz yoqilmas o'choq,
Qozon osilmas bekor.
Bori-yo'g'i mushtdag-u,
Ammo xizmati katta.
Katta-kichik demay u
Yig'latadi, albatta.

Nokdan sag'al kattaroq,
Usti-boshi yam-yashil.
Kertik-kertik ko'k yaproq,
Suvli, chuchuk, xilma-xil.
Kuch-quvvatga boy rosa,
Palov bilan esa soz.
To'g'rab qaylaga solsa,
Qancha ichsang shuncha oz.

Sabzi

Sarimsoq

O'zi qamish yaproqli,
Ammo juda muloyim.
Piyoz kabi tuproqni
Turtib chiqar u doim.
Ham achchiq, ham mazali,
Pishsa, dumbayog' go'yo.
Taomlarning lazzati,
Har bir dardga u davo.

Erda qoziq singari
Qoqilganday u atay.
Taram-taram barglari.

Bilol Mambet

Oq terakmi, ko'k terak

Keling, qo'shiq aytamiz,
Qo'shilishib hammamiz.

Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak, hey?
Akbar bo'taloq kerak, hey.

Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak, xey?
To'lqin toychoq kerak, hey.

Ola-bula kapalak,
Orqa sochim jamalak.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak, hey?
Xayri qizaloq kerak, hey.

O'ynab-o'ynab kuylaymiz,
Kuylab-kuylab o'ynaymiz.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak, hey?
Erkin qo'zichoq kerak, hey.

Olma oqib keladi,
Behi qalqib keladi.

G'afur G'ulom

IKKI XIL YORDAM

Bir xotin sabzavotlar solingan og'ir to'r xaltani ko'tarib ketayotgandi. Orqada ketma-ket ikki bola, ularning ketidan bir chol kelmoqda edi. Bir mahal to'r xaltadan bir kartoshka tushib, dumalab ketdi.

— Xola, kartoshkangiz tushdi, — deb birinchi bola o'tib ketaverdi. Ikkinchi bola hech narsa demadi-yu, yerdagi kartoshkani olib to'r xaltaga soldi. Orqadan yetib kelgan chol bolaga:

— Baraka top, bolam, — dedi.

— Bobo, menga hech narsa demadingiz? Axir men ham xolamga "kartoshkangiz tushdi", deb aytdim-ku, — dedi birinchi bola.

Bobo unga javob berish o'rniga ikkinchi bolaning yelkasiga qoqdi:

— Ota-onangga rahmat, bolam.

Mahmud Murodov

TUTUN

Elga xizmat etar qish,
O'tirmaydi dam olib.
Dahlizdagi o'choqqa
Tutun qolgan qamalib.
To'rt tomoni g'isht devor,
Yo'q ninadek teshigi.

"Kirmasin", deb uylarga
Berkitilgan eshigi.
Kim ham rohat topardi,
Qo'lansa hid tutundan?!
Yashamagur ivirsib
Chiqdi qaysi o'tindan?
Pechkamizga ming rahmat,
Xippa bo'g'ib ushlabdi.
Qahri kelgan olov ham
Chars-chars etib mushtlabdi.
Tutun bo'lsa ko'karib
Qiynoqlarning zo'ridan,
Shamol urgach ostiga
Bursib chiqar mo'ridan.
Ochiq yerga chiqiboq,
Tarvaqaylab cho'zar bo'y,
Pisand qilmay shamolga
Der: "g'uv-g'uv"ingni endi qo'y!
Men osmonning jiyani
Sen o'zing kim bir daydi!
Shaddod shamol g'uvillab
"Uf" deb damin purkaydi.
Zumda to'zg'ib yo'qolar,
Rangi o'chib tutunning.
Biz ham o'tdik bahridan
Dardisar ho'l o'tinning.

Qudrat Hikmat

INJIQ

Salima uyda o'tirishni yaxshi ko'radi. Gulchehra opa: "Ko'chaga chiqib o'ynab kel!" — desayam sira unamaydi. Chiqsayam bir narsani bahona qilib, uyga qaytib keladi. Hozir ham oyisi: "Ko'chadan yaxshi-yaxshi o'rtoqlar top!" — deb qistalang qila-qila zo'rg'a ko'ndirdi.

Salima o'ralib-chirmalib ko'chaga chiqdi. Qarasa, hamma o'zi bilan ovora, kimlardir koptok tepyapti. Kimlardir "mehmon-

mehmon" o'ynayotgan... Hech kim unga qaramaydijam. Salima xafa bo'lib orqasiga qaytmoqchi edi, bir-birini quvlashib kelayotgan qizlar bexosdan uni turtib yuborishdi. Salima qalqib ketdi-yu, haytovur yiqilmadi. Ushlab qolishdi. Shunda u biram yig'iga tushdiki, zo'rg'a ovutishdi.

Qizcha sal nariroqda yurgan edi. Qo'shni hovli eshigidan chiqqan Botir: "vah" deb uni cho'chitib yubordi. Salima turgan joyida qotib qoldi.

— Sen ekaningni bilmadim. Lola deb o'ylabman, — deya yupata boshladi Botir.

— Qo'rqitding-ku, o'zing, — dedi Salima battar o'kirib.

— Yig'lama, Salima, yig'lamagin! Yur, birga o'ynaymiz.

Botir uni "Oq terakmi, ko'k terak" o'ynayotgan bolalar yoniga boshlab bordi. Ikkovlari birpas tomosha qilib turishdi. Keyin Botir o'yinboshiga bir nima deb imo qildi. Buni Salima sezmad. Bir daqiqa o'tar-o'tmas qarshi tomondan bolalar:

"Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?" —

deb qolishdi. Shu payt yuzma-yuz qatordagi bolalar baravariga: "Sizdan bizga Salima kerak", — deyishdi.

Bolalar o'yin qoidasi buzilsa ham vakillarini hang-mang bo'lib qolgan Salima oldiga yuborishdi. Salima Botirning orqasiga yashirinib olgandi. Botir unga o'girilib, quloqlariga pichirladi:

— Bor, chopib bor. Bilasanki, qo'llarini uzsang, yutasan...

Qizchani yuzlari lovillab ketdi. Bir oz tortinib turdi, keyin chopib borib, qo'llar zanjirini uzib yubordi.

Yayra Sa'dullaeva

DARAXTLAR NIMA DEYDI?

Terak

Ko'kka sari o'samiz,
Shamol yo'lin to'samiz.
Zo'rimiz bor: ko'k va oq,
Tik qomat, kumush yaproq.
Binoga yog'och-taxta
Bo'lish ham katta baxt-da.

Chinor

Biz daraxtlar ulkani,
Yashnatamiz o'lkani.
Tanimiz go'yo qasr,
Yashaymiz asr-asr.

Shaftoli

Danagimiz g'archcha moy,
Yig'arsiz-a, hoynahoy.
Uning foydasi katta,
Ayniqsa sanoatda.
Xilma-xil dori bo'lib,
Yashaymiz o'ynab-kulib.

Olma

Ko'pdir temir moddamiz,
Lekin bir oz soddamiz.
Yemoqchi bo'lsang olma,
Ishlov berishda tolma.

Ibrohim Donish

Buvijonimga

Sochingiz paxtaday oq,
Mehri daryo, qalbi pok.
So'zlari bol-u qaymoq, —
Buvijonim.

"Oltin bo'lsin olsang tuproq", —
Bizni alqaydi har choq.
Siz bilan ko'nglimiz chog' —
Buvijonim.

O'zingiz har ishda bosh,
Hurmat qilar keksa-yosh.
Bizning uydagi quyosh —
Buvijonim!

Hilola Is'hoqova

Hikoya qilib berish uchun

MEHNAT HOSILI SHIRIN

Bir bolaga katta bo'lgach, otasi: "Bolam, endi biror hunar o'rgan, oxirida xor bo'lmaysan", — debdi. Bola xo'p deb ishga ketayotganida onasining unga rahmi kelib: "Bolam, sen og'ir mehnat qilib joningni qiynab yurma, ko'chaga chiqib o'rtoqlaring bilan o'yna, qaytib kelishingda otangga mana shu tangani berarsan", — deb bir tanga pul beribdi. Bola "xo'p" deb ko'chaga

chiqib ketibdi. Qaytib kelib otasiga onasi bergan pulni beribdi. Otasi hovuz bo'yida o'tirgan ekan. Ota bolasidan bir tangani olib, hovuzga tashlabdi. Ertasi kuni ham shunday bo'libdi. Shunda onasi bolasiga: "Otang bu pulni mehnat qilmasdan olib kelayotganingni bilganga o'xshaydi. Bugun mehnat qilib pul topib kelsang-chi, nima qilar ekan", — debdi. Uchinchi kuni bola ishlab yarim tanga topibdi va kechqurun kelib uni otasiga beribdi. Otasi uni ham olib hovuzga tashlabdi. Bola dod solib o'zini hovuzga tashlab, pulni topib chiqibdi. Shunda otasi bolasining bu pulni halol mehnat bilan topganiga ishonibdi.

TO'G'RILIK

Bir kampirning uyida bir tup balx tuti bor edi. Nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampirning shu tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishgan vaqtda quritib olib, butun vaqtini tut sotib o'tkazar edi. Bir kuni ul shaharning podshosi bir ayvon solmoqchi bo'lib, ustun axtarganda kampirning tuti to'g'ri keldi. Podshoh tutni ming oltinga sotib oldi. Bechora kampir boy xotin bo'lib qoldi. Bir kun tutni ko'rgali bordi. Ko'rdiki, tut jannat kabi bir ayvon o'rtasida turibdi. Kampir tutga qarab dedi:

Ey tutim, to'g'riliging qildi bizni davlatga yor,
Egri bo'lsang, san o'tin bo'lgay eding, man xor-zor.
To'g'rilar jannatning ayvonindadur,
Egrilar ranju alam konindadur.

OCHKO'ZLIK

Bir bola ko'chada yig'lab o'tirib edi. O'tib-ketib turgan kishilardan biri: "O'g'lim, senga nima bo'ldi? Na uchun buncha yig'larsan?" — deb so'radi. Bola: "Bir tiyin oqcham bor edi, yo'qotib qo'ydim. Shuning uchun yig'larman", — dedi. U kishining bolaga rahmi kelib: "Mana, o'g'lim, oqchang yo'qolgan bo'lsa, man sanga boshqasini berurman", — deb cho'ntagidan bir tiyin oqcha chiqarib berdi. Bola oqchani olib yana avvalgidan ortiq yig'lamoqqa boshladi. Ul kishi: "Daxi nimaga yig'lar-

san?" — desa, bola: "Oh, otajon, agar o'z oqcham yo'qolmagan bo'lsa edi, hozir oqcham ikki tiyin bo'lur edi", — dedi.

Ko'zing och bo'lmasin, o'g'lim, ko'zing och,
Qanoatsiz kishini uxlatib qoch.

Abdulla Avloniy

QOVUN SAYLI

Bu yil Nigora birinchi sinfni tugatdi. Buvasi uni atay qovun sayliga taklif qildi. Nigora uyga kelishi bilan buvasi uni polizga ola ketdi.

— Mana, bu tomonda handalak. Bunisi — bosvoldi degan qovun. Hu ana, unisi sheroziy, huv qo'zichoqqa o'xshab yotgani — qoraqand. Bunisi — gulobi.

Nigora buvasidan qovunlarning nomini eshitib, angrayib qoldi. Ularning familiyalari ham bormi, deb so'rashdan o'zini tiydi. Buvasi koptokka o'xshagan qovun tepasiga kelib to'xtadi.

— Buning nomi — bo'rikalla. Go'shtdori shu.

Nigora bo'rikalla degan so'zni eshitib buvasiga qaradi. Uning ko'z oldiga hayvonot bog'ida ko'rgan bo'ri keldi. Buvasi gap nimadaligini darrov tushundi.

— Ha-ha, nomi shunaqa, — ko'z qisdi buvasi, — ke, shuni-sidan totib ko'raylik. Buvasi bir quchoq keladigan qovunni kaftida ko'tarib Nigorani chayla tomon boshladi. — Qani, pat-nisni olib kel.

Buvasi qovunga pichoq tortishi bilan tirsillab yorildi.

— Voy, qovun yirtildi, — dedi ko'zlari ola-kula bo'lib Nigora.

— Ona qizim-ey, — xandon tashlab kuldi buvasi. — Bu azbaroyi shiraga botganidan. Qovun yirtilmaydi. Sharbatga to'lsa xuddi shunday yoriladi.

Buvasi unga kosa qilib berdi. Nigora yarim kosa qovun yemasdan qo'lini tortdi.

— To'ydim.

— Kechroq yersan, — dedi buvasi. — Endi qizim, kechda shu chaylada qolib poliz qo'riqlaymiz. Men bilan qolasanmi?

Nigora rozilik berdi. Anchagacha buva-nevara poliz yonida yonboshlab, gplashib o'tirishdi...

— Buva, buva, — Nigora shoshib buvasining pinjiga kirdi.

— Ha, ona qizim?

— Bir nima tars etdi, — U qoʻrqib javob berdi.

— Ha, qovun-povun yorilgandir. Yotaqol, ona qizim...

Nigora qulogʻi ding boʻlib atrofga quloq tutdi, polizning etagidan yana "tars" etgan ovoz keldi. Endi u buvasini uygʻotishdan choʻchidi. Ammo oʻzi tashvishga tushdi: "Qovunlarning hammasi bu kecha yorilib ketsa-ya?"

Nigora shu tashvishda oʻylay-oʻylay uxlab qoldi.

Safar Barnoev

AKA-UKA

Bir zamonda ikki aka-uka yashab oʻtgan ekan. Ularning ota-onalari hayot paytlarida: "Bolalarim, ahil boʻlinglar, bir-biringizni yolgʻiz qoʻymanglar. Boʻlinganni boʻri yer, shuni esda tutinglar!" deb nasihat qilgan ekanlar.

Aka-uka oʻsib ulgʻayibdilar. Akasi bola-chaqali boʻlibdi. Kichkinasi esa har ishda akasiga madad beribdi.

Bir yili ular otasidan qolgan yerga bugʻdoy, arpa ekishibdi. Hosil moʻl boʻlibdi. Hosilni teng ikkiga boʻlib olishibdi. Ukasi: "Akamning bolalari koʻp, qishda unga qiyin boʻladi" deb oʻylabdi. Kechasi turib oʻz xirmonidagi donlardan olib, akasining xirmoniga qoʻshib qoʻyibdi.

Akasi ertalab turib qarasa, xirmonidagi donlar koʻpayib qolganga oʻxshabdi. Ukasi bu yil uylanishi kerak ekan. Akasi shuni oʻylab kechasi ukasiga bildirmay oʻz xirmonidagi donlardan olib, ukasining xirmoniga qoʻshib qoʻyibdi. Ukasi buni sezmabdi.

Shunday qilib, akasi kech kuzda ukasini uylantirib qoʻyibdi. Bolalari ham xuddi otalari kabi bir-birlari bilan doʻst-inoq boʻlib oʻsishibdi. Qishloq ahli ham bu oilalarga havas bilan qarashar va ularni hurmat qilishar ekan.

ANQOV

Ona oldinda borar
Orqada anqov.
Hadeb ortiga boqar,
Erinchoq yalqov.

Ko'cha yuzi ko'lmak loy,
Kechaverar u.
Kalishning holiga voy,
Ichigacha suv.

Yerga emas, osmonga
Tikar ko'zini.
Duch kelgan har tomonga
Urar o'zini.

Katta ko'chadan o'tar,
Imillab anqov.
Yuz-yuz mashina to'xtar,
Chunki anqov — g'ov.

Militsiya hushtak chalar,
Anqov bunga shod.
Anqov dastidan, do'stlar,
Ona deydi: "Dod!"

Shukur Sa'dulla

FERUZA "NON" YOPDI

Feruz kattagina qo'g'irchog'ini oftob tig'i tushib turgan devorga suyab qo'ydi. Atrofni supurib tozaladi. Oldiga dasturxon — gazeta yozdi. Unga ozgina qand-qurslardan tashqari kichkina shishachada gul qo'yishni ham unutmadi.

— Endi-chi, bilasanmi? — dedi qo'g'irchoqqa. — Nima kerak? Non kerak. Non qo'ysak dasturxonimiz juda chiroyli bo'lib ketadi. Nonni, kichkina-kichkina kulchalarni o'zim yasayman.

U jajjigina paqirchasida tuproq, suv keltirib, loy qordi. Uni mushtlab-mushtlab iyladi, "xamirdan zuvala yasadi". So'ng qo'g'irchog'iga: — qarab tur. Xamir qilishni ko'rib bilgandirasan. Non yasashni ham o'rganib ol, — deya tayinladi.

Qo'g'irchog'i xo'p degandek shod. Ochilayotgan g'unchadek jilmaygani-jilmaygan.

Feruz onajonisi yasayotganida ko'rgandek jajji barmoqlarini ishga soldi. Non va kulchalar o'rtasida shakllar yasadi.

Ularni oftob tig'li joy — tandirga qo'ygach, qo'g'irchog'iga tayinladi: "Men uyga kirib chiqay, nonlarga qarab tur".

Bu vaqt ko'chada yurgan qo'zichoq kelib, qo'g'irchoqni hidlab, yaladi. "Non"larni esa tepkilab bosdi. Feruzani ko'rishi bilan qo'zichoq dikirlab, onasining oldiga qochdi.

— Voy-vuy, nonlar uvol bo'пти-ku... Qo'zichoq bosguncha qarab turaverdingmi? Achinish o'miga kulib turishingni qara. Nonni hurmat qilmasang, endi yopib bermayman. — Shunaqa. Feruza kichkina bo'lsa ham juda zukko. Ish va so'zlari qiziq-qiziq.

G'ani Abdullaev

BUZOQ

Men buzoqman, buzoqman,
Shoxim chiqqan — suzoqman.
Lekin yumdalab tortmang,
U yon-bu yonga otmang.
Irkrit yerga yo'latmang,
O'yinchoqman, qulatmang.
Buksangiz qayrilaman,
Oyoqdan ayrilaman.
Mayli, o'ynang erta-kech,
Lekin ozor bermang hech!

Shukur Sa'dulla

JONZODLAR NIMA DEYDI?

Toshbaqa

Men toshbaqa, toshbaqa,
Rangim o'zi toshdaqa.
Sira yo'lda shoshmayman,
Oyoq bo'lmasin chaqa.
Qadam bosaman sekin,
Kasal emasman lekin.
Olmangiz mendan ibrat,
Qilingiz doim g'ayrat.

Baqa

Kir-chirni yoqtirmayman,
Tanim toza, vaq-vaq.
Suvda suzib cho'milish,
Qanday soz-a, vaq-vaq.
Dilim yayrab ketadi
Qo'shiq aytсам, vaq-vaq.
Do'stlar bilan xor bo'lib,

Jo'shib aytsam, vaq-vaq.
Nega ba'zi bolalar
Cho'milmaydi, vaq-vaq.
Kir yurar, qulog'iga
Gap ilmaydi, vaq-vaq.
Men-chi, aslo o'zimga
Bermayman zeb, vaq-vaq.
Kir boladan kulaman
Uyalsin deb, vaq-vaq.

Kirpi

Men kirpiman, kirpiman,
Ignalarim ming-million.
Kimki bersa gar ozor,
Bermayman unga omon.
Bo'lib olsam dumaloq,
Bo'ling hamisha ogoh.
Koptok deb tepib yurmang,
So'ng yig'lab chopib yurmang.

Ilon

Keltirmangiz qahrimni,
Sochmagayman zahrimni.
Jonimga qasd qilmagin,
Gazanda deb bilmagin.

Qo'ng'iz

Xush ko'raman oftobni,
Va sevaman kitobni.
Lekin o'qiyolmayman,
Qushday cho'qiyolmayman.

Ibrohim Donish

ASSALOM

Har kun tongda turaman,
Dildan quvnab yuraman.
Quyosh, maysa, o'tloqqa,
Duch kelgan do'st, o'rtoqqa —
Yayrab desam assalom,
Zavq olaman bir olam.
Salom so'zi muqaddas,
Salom o'zi muqaddas.
Tog'a, xola, ammaga,
Salom deyman hammaga.
Hamma dildan salom, der,
Rahmat, dono bolam, der.

DADAM ISHDAN KELSALAR

Dadam ishdan kelsalar,
To'lib ketar uyimiz.
Ko'kka yetgudek bo'lar,
Xursandlikdan bo'yimiz.

Kelsalar peshvoz chiqib,
Beramiz bir-bir salom.
Eng avval ukam bilan
Qilarlar achom-achom.
Kiyimlarin yechsalar
Cho'tkalaymiz bittamiz.
Qo'llariga suv quyib,
Oppoq sochiq tutamiz.

Qambar Ota

NORTOJINING KURAK TISHI

Nortojining hozir yoshi oltida,
Biroq chollar kabi kemshik bechora.
Bir parcha go'sht yoki non yeb qo'ydimi,
Kechgacha tish kovlab bo'lar ovora.
Oldidagi to'rtta kurak tishining
Sog'i yo'q — hammasi chirik, darz ketgan.
Ba'zisi juda past, ba'zisi baland,
Ba'zisi lab yular — misoli tikan.

Bolalar tegishib: "So'yloq" deydilar,
Shishgan milklari juda ko'rimsiz.
Shuncha yosh Nortoji nimaga bunday,
Nega tishi tushgan sho'rlikning, esiz?

"S" bilan "Sh" harfini ayta olmaydi,
So'z o'rniga tili hushtak chaladi.
— "Sho'rva", "shamol" degin, — desa bolalar
Yaxshilab aytolmay hayron qoladi.

Nortoji o'zi sho'x, erinchoq bola,
Yuzini haftada arang yuvadi.
Ko'cha-ko'ylarda chang-tuproq kechib,
Olapar, To'rtko'zni doim quvadi.

Og'zidan uzilmas xo'rozqand, o'rik,
Danakni qo'rqmasdan tishda chaqadi.

— Tishingni yuvsang-chi, — desa onasi,
Iljayib, beparvo unga boqadi.

Bir kun Nortojining tishi og'ridi,
Lunjlari olmaday shishgan, osilgan.
— Voy tishim, voy tishim, voy tishginam-ey,
Ayingiz o'rtoqlar, ne qilsam ekan?

Do'stlari, bolalar uni qurshashib,
Og'ziga qildilar ekskursiya.
— Qani och og'zingni, biz tekshiramiz,
Tishingni og'rishi nimaga, deya.

Nortoji: "Shoshmanglar" demoqchi edi.
So'z emas hushtagi chalinib ketdi.
Karnayday og'zini ochishi bilan,
Sassiq hid hammaga bilinib ketdi.

Bolalar birma-bir tekshiradilar:
— Voy-bayov! Bunisini qarang, o'rtoqlar!
Tishlarida istagan narsa topilar:
Jiydami, o'rikmi, pista po'choqlar.

Ayniqsa, oldingi kurak tishlarda
Bir hafta oldingi ovqat qoldig'i.
Yonida, boshida, oralg'ida
Saqich bo'laklari, tuxum sarig'i.

Bir bola so'raydi: — O'rtoq Nortoji,
Umringda tishingga cho'tka tekkanmi?
Nortoji aytadi: Voy, yuvolmayman,
Tishimni yuvishmi endi bir kami?

Do'stlari yetaklab olib ketdilar,
Maktabga qatnovchi do'xtir yoniga.
Do'xtir tishin ko'rib bir "dori" yozdi,
Juda orom oldi og'riq joniga.

Bilasizmi, o'rtoqlar, bu dori nima?
Bir quti poroshok, kichkina cho'tka.

Nortoji erinmay har kun tish yuvar,
Qizillik yugurgan kulcha yuziga.

Endi Nortojining tishlari durday:
Og'riqni, sasishni bilmaydi, toza.
Har kimki, tishini tozalab tursa,
Joni orom olur, o'zi pokiza!

G'afur G'ulom

ESHAK NEGA HANGRAYDI?

Aytib bering hikoya,
Deya so'rading boya.
Sening uchun atayin,
Mayli, aytсам, aytayin.

O'tgan qadim zamonda,
Go'zal janub tomonda,
Ko'p maqtanchoq bir eshak
Bo'lganiga yo'qdir shak.

Doim hangrab, kekkayib,
Quloqlari dikkayib,
Yurgan tog'-u tosh ora,
Tusi tundeк qop-qora.

Sher bir kuni o'rmonda
Chaqirib fil, tulkini,
Kiyik, eshak, cho'chqani,
(Nima qilar, xo'sh, qani?)

Majlis ochib dastavval,
Ularga berar savol:
— Qaysi hayvon dunyoda
Kuch-quvvatda ziyoda?

Javob uchun chamasi,
O'ylab qolar hammasi.
Birov aytayotganday,
Mo'ljalga o'q otganday.

Eshak hangrab, tepib yer,
— I-ho, men, i-ho, men, — der.
Sher ma'qullar uni chin:
— Ma'qul, sen zo'r, ko'p kuching!

Shu payt yana o'rtaga
Savol tashlar jo'rtaga:
— Qaysi hayvon dunyoda
Go'zallikda ziyoda?

Na bo'rsiq, na jirafa,
Na kenguru bir daf'a
Hali gapga cho'zmay lab,
Birdan tag'in u hangrab:

— I-ho, men, i-ho, men, — der,
— Xo'p, sen ko'rkam, — deydi sher.
Bahsda go'yo tong otar,
Sher so'ng marta so'z qotar:

— Dunyoda eng ahmoq kim?
Majlis ahli qolar jim.
Bu gal ham elburundan
Eshak turib o'rnidan:
— I-ho, men, i-ho, men! — der.
— Ha, sen o'zing! — deydi sher.

Shundan beri nachora,
Hangrar ekan bechora.
Ovoziga berib zeb:
— I-ho, men, i-ho, men! — deb,

Qudrat Hikmat

TUYAQUSH BILAN QOPLON

(O'zbek xalq ertagi)

Sirdaryoning bo'yida, to'qayzorlar orasida bir tuyaqush in qurib yashar ekan. Shu to'qayzorda bir qoplon ham yashar ekan.

Kunlardan bir kuni tuyaqush daraxt shoxlari tagida o'tlab, o'ziga ovqat qidirib yursa, yonginasidan bir narsaning ingragan ovozi eshitib qolibdi. Asta shu ovoz kelgan tomonga yurib boribdi. Qarasa, bir qoplon tomog'iga suyak tiqilib qolib ingrayotgan ekan. Tuyaqush darrov qoplonga yordam berishga shoshilibdi:

— Osmonga qarab og'zingni ochib tur, men suyakni olib qo'yay, — debdi tuyaqush.

Qoplon osmonga qarab og'zini ochib turibdi. Tuyaqush tumshug'ini qoplonning og'ziga tiqib, suyakni sug'urib olib tashlabdi.

Qoplonning ko'zlari ravshan bo'lib, o'limdan qutulibdi. Biroz joni orom olgandan keyin qoplon tuyaqushga qarab shunday debdi:

— Sen mard ekansan, menga yaxshilik qilding, endi kel, ikkalamiz do'st bo'lamiz. Zarur vaqtda bir-birimizga yordamga kelamiz, — debdi.

Tuyaqushga bu gap ma'qul bo'libdi. Tuyaqush bilan qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar.

Ko'p kunlar o'tibdi. Bir kuni tuyaqush do'sti qoplonning va'dasini tekshirib ko'rmoqchi bo'libdi. Bir tepaning ustiga chiqib, atrofqa qarab baland ovozda:

— Voy dod, o'lyapman, qoplon, meni qutqar, — deyaveribdi.

Qoplon to'qayning narigi chetida bir hayvonni ushlayman deb poylab yotgan ekan. Shu paytda do'sti tuyaqushning dodlagan ovozi eshitib qolibdi. Qoplon ovini ham tashlab, tuyaqushga yordam berishga shoshilibdi. Shox butalar orasidan, ustidagi junlar yulini, harsillab yetib kelibdi. Kelsa, tuyaqush tepaning ustida o'zicha yolg'ondan dodlab turgan ekan.

— Do'stim tuyaqush, senga nima bo'ldi? — debdi qoplon. Tuyaqush bo'lsa:

— Ey do'stim, ko'rmaganimga ancha bo'ldi, ahdi-paymonimiz esingdan chiqib qolmadimkan deb seni sinab ko'rmoqchi bo'lgan edim, — debdi tuyaqush.

Qoplonning ko'ngli ranjibdi. Axir u tayyor ovini tashlab kelgan edi-da. Shu kuni tuyaqushni deb bolalari och qoladigan bo'ldi.

— Sen tuyaqush, meni sinamay qo'ya qol, — debdi qoplon. — Biz qoplonlar, bir narsaga ahd qilsak, shu ahdimizda qattiq turamiz.

Qoplon xayrlashib ketaveribdi. Tuyaqush uyalib qolaveribdi. Oradan bir-ikki kun o'tibdi. Xuddi shu changalzorda tuyaqush ovqatlik izlab yursa, oldidan bo'ri chiqib qolibdi. Bo'ri bir sakrab tuyaqushning ustiga chiqib olibdi. Tuyaqush bechora zo'r berib:

— Voy dod! Qoplon, kel, meni qutqar! O'ldim! — debdi.

Shu paytda qoplon issiq kunda bir butaning tagida cho'zilib, dam olib yotgan ekan. U tuyaqushning ovozi eshitibdi, biroq "Tuyaqush bu gal ham meni sinayotgan bo'lsa kerak", — deb joyidan jilmay yotaveribdi.

Bo'ri bo'lsa o'z ishini qilibdi: tuyaqushni "dodlagan sen bo'ldingmi" deb burda-burda qilib yeb tashlabdi.

Shuning uchun aytishadi-da: "Do'stingni aldasang, o'zingni aldagan bo'lasan", deb.

SHARQ HIKOYASI

Aniq yili esimda yo'q,
Allaqaysi zamonda,
Bir qishloqda ota-o'g'il
Yashar ekan omonda.

Ular g'oyat totuv ekan,
O'rtada mol-joni bir.
Ming qilsa ham ota-o'g'il,
Ming qilsa ham qoni bir.

Bir kuni deng shu ikkovlon,
Qaygadir yo'l olishdi.
Minay desa ot-ulov yo'q,
O'ylanishib qolishdi.

Qurib ketsin yo'qchilik ham,
Kim nelarga zor edi.
Ikkovining o'rtasida
Bitta eshak bor edi.

Garchi u ham biroz yag'ir,
Garchi andak bedarmon.

Shu eshakni minsakmi, deb
O'ylab qoldi ikkovlon.

Ota dedi: — O'g'lim, bundan
Na sen, na men tinmaymiz.
O'g'il dedi: — Ota, buni
Galma-galdan mingaymiz.

Ota doim ota axir,
Ya'ni mudom izzatda.
Eshakka u mindi dastlab,
O'g'il yayov, albatta.

Bir qishloqdan o'tdilar,
Ikkov sekin tiqirlab.
Ortlaridan to'rt-besh odam
Kulib qoldi qiqirlab.

— Ahmoq ekan manavi chol,
Ahmoq haddan ziyoda.
O'zi ulov minib olgan,
O'g'li esa piyoda.

G'alati bir hisni tuyib,
Shartta pastga tushdi chol.
— Kela qolgin, o'g'lim, — dedi, —
Eshakka sen mina qol.

Endi o'g'li to'qimda-yu,
Ota yayov ketardi.
Endi ular boshqa qishloq
Ko'chasidan o'tardi.

Borardilar so'zsiz, sekin
Asta-sekin tiqirlab.
Ortlaridan to'rt-besh odam
Yana kuldi piqirlab.

— Ahmoq ekan manov bola,
Ahmoq haddan ziyoda.
O'zi ulov minib olgan,
Otasi-chi, piyoda.

Yosh emasmi, birdan uning
Oriyati qo'zg'aldi.
Shartta pastga tushdi u ham,
U ham yayov yo'l oldi.

Yurib-yurib ikkalasi
Necha adir, qir oshdi.
— Bor-e, — deya so'ng eshakka
Ikkovi ham mingashdi.

Ammo tag'in bir manzildan
O'tar bo'ldi ikkovlon.
Ne kulfatki, bu joyda ham
Tinch qo'ymadi olomon:

— Ahmoq ekan bular rosa,
Insofi yo'q, lavanglar.
Ikki odam bir eshakni
Minib opti, qaranglar.

Malomatdan ota-o'g'il
Tamom horib qoldilar.
G'azab bilan bir-biriga
Termulishib qoldilar.

— Aytmabmidim, — dedi ota, —
Gap uqmading tirrancha,
El-u yurtning o'rtasida
Bo'ldik rosa bo'lgancha...

Abdulla Oripov

FIL BILAN XO'ROZ

(Ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dakang xo'roz bilan fil bor ekan. Kunlardan bir kuni dakang xo'roz filning oldiga kelib qattiq qichqiribdi: — Qu-quv-qu-quv!

Fil hayron bo'lib: "Muncha chiranadi bu", — deb o'ylabdi. Xo'roz hamma yoqni titib, cho'qib, don terib yuraveribdi, yana:
 — Qu-qu-qu-q-u-v-v! — deb qichqiraveribdi.
 "Uning ovozi bir o'chiray", deb:
 — Kim ko'p ovqat yeydi, senmi yo menmi? — so'rabdi fil.
 Xo'roz:
 — Men ko'p ovqat yeyman, — debdi chiranib.
 Ular: "Kim ko'p ovqat yer ekan?" — deb garov bog'lashibdi. Fil juda ko'p ovqat yebdi, keyin to'yib uyquga ketibdi. Uyg'onib qarasa xo'roz hali ham donlab yurganmish. Fil yana ovqat eya boshlabdi, ovqatni eb bo'lib yana uyquga ketibdi. Bir vaqt uyg'onib qarasa, kech bo'lib qolibdi. Xo'roz bo'lsa haliyam donlab yurgan emish. Don terib yeb, tez-tez:
 — Qu-qu-qu, — dermish xo'roz.
 — Yeb to'ymas ekan-ku! — debdi fil hayron qolib. — Bunaqa jonivorni sira ko'rgan emasman.
 Xo'roz garovda yutgach, o'zicha: "Filning ustiga chiqib bir tomosha qilay", — deb o'ylabdi.
 U pir etib uchib filning ustiga chiqibdi. Filning jon-poni chiqib ketibdi.
 — Voy-dod! Meni yeb qo'yadi! — deb qichqiribdi-da, shu qochganicha o'rmonga kirib ketibdi.
 Xo'roz bo'lsa uning orqasidan qarab, qanotlarini tipirlatib:
 — Qu-qu-qu-quv! Men zo'rman! — deb qichqiribdi.

TILI UZAYIB QOLDI

Botir katta bo'ldi-yu,
 Tili katta bo'lmadi.
 Katta bo'lib qolganin
 Botir o'zi bilmadi.

Akalari Botirning
 Tili kalta deyishar.
 Gapirishni bilmaydi,
 Bo'lsa hamki besh yashar.

"Ot" degin-chi, desangiz,
 "Xachu" deydi, kuladi.

Ot soʻzini aytolmay
Rosa tajang boʻladi.

"Non" degin-chi, desangiz,
Non deyolmay der: "nanna".
"No" va "n" degin, desak,
"Nanna", deydi u yana.

Itni koʻrsatib, nima?
Desak, "Bobov", deydi u.
Qandga qoʻngan pashshani
Soʻrasak, der: "Bu gʻuv-gʻuv"...

"Suv" degin, desak "umma",
Oshni esa der "ashsha".
Osh degin deb qistasak
Qiladi u xarxasha.

Agar ismin soʻrasak
Deydi burro: "Men Botir".
Botir soʻzin aytar-u,
Traktorni der: "tir-tir".

— Seni Botir deb boʻlmas, —
Dedik, — sen bir qoʻgʻirchoq.
Gapirishni bilmagan
Tili kalta va qoʻrqoq.

— Men qoʻgʻirchoq boʻlmayman, —
Deb u yigʻlab yubordi.
"Osh" degin-chi, desak u
Hijjalab: "o...sh" devordi.

Shundan keyin mashq qilib,
Har soʻzni bilib oldi.
Endi tili kaltamas,
Ancha uzayib qoldi.

Oʻtkir Rashid

TULKI BILAN G'OZLAR

Bir kuni bir tulki o'tloqqa kelibdi. O'tloqda ajoyib semiz-semiz g'ozlar sayr etib yurgan ekan. Tulki ularni ko'rib juda sevinib ketibdi-da:

— Mazza bo'ldi, hozir hammangni yeyman, — debdi.

G'ozlar esa:

— Tulkijon, bizlarni yema, rahm qil! — deyishibdi.

— Rahm qilish bo'lmagan gap. Hammangni yeyman, — debdi yana tulki.

"Endi qanday qilib qutulsak ekan", — deb o'ylashibdi g'ozlar.

Shunda ulardan bittasi:

— Tulkijon, o'lish oldidan bitta qo'shiq aytishimizga ruxsat ber. Qo'shiqni aytib bo'lganimizdan so'ng hammamizni yeysan. Hatto o'zimiz qarshingda qator tizilib turamiz, semizrog'imizni tanlashing oson bo'ladi, — debdi.

— Mayli, qo'shiq aytsanglar, ayta qolinglar, — debdi tulki. Dastlab bitta g'oz qo'shiq aytibdi. Uning qo'shig'i mana bunaqa uzundan uzun ekan:

"G'a-g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!"...

Undan keyin ikkinchi g'oz jo'r bo'libdi: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!"

Undan keyin uchinchi g'oz: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!"

Undan keyin to'rtinchi g'oz xonish qilibdi: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!"

To'rtinchi g'ozdan keyin beshinchi g'oz ham: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!" — deb qo'shiq boshlabdi.

Oxiri hamma g'ozlar birgalikda qichqirib "g'a-g'a-g'a"lashga tushibdilar: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a..." Qachonki, g'ozlar qo'shig'i tamom bo'lsa, ertak ham tugaydi. Shundagina tulki g'ozlarni yeydi. Biroq aqli g'ozlar qo'shiqni to'xtatishni o'ylamabdilar. Ular hozir ham: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a", — deb qichqirib turishgan emish.

Aka-uka Grimmlar

BO'RI CHAQIRGAN MAJLIS VA
BEODOB OT HAQIDA LATIFA

Bo'rining qorni to'ydi,
Go'sht ham tegdi joniga.
Echki, quyon, ot, qo'yni
Chaqirdi u yoniga.

Dedi: — Hozir to'q paytim,
Foydalanib qolinglar.
Menga dashnomlar aytib
Tanqid qilib olinglar.

Bugun minbar sizniki,
Fuqarolik bizniki.
Sizni to'rga chiqarib
Pastda bo'lay men g'arib.

Qani, boshla, quyonvoy,
Bir eshitay so'zingni.
Botirsan-ku, biyronboy,
Ko'rsatib qo'y o'zingni.

O'rtağa chiqdi quyon
Avaylab o'z jonini.
Tingladi bo'ri polvon,
Qashlagancha qornini.

Quyon dedi: — Ming rahmat,
Menda hech shikoyat yo'q.
Sizdek oliymarhamat
Sohibi inoyat yo'q.

Men qulingiz ne derdi,
Sizga fidodir jonim.
Bo'ri xursand hayqirdi:
— Barakalla, quyonim!

Buncha shirinsan, oqil,
Chidash qiyin, ne deyman?
Hozir to'qman, tongda kel,
Nahorga seni yeyman.

Quyon ketdi bosh egib,
Mung'aygancha, dilxasta.
So'ng qo'yga navbat tegib,
Minbarga chiqdi asta.

Dedi: — Hech vaqt hech bo'ri
Bizdan gap so'rgan emas.
Minbar berib joy to'rin
Munosib ko'rgan emas.

Bu obro',bu hurmatdan
Men terimga sig'madim.
Bunday zo'r marhamatdan
Ta'sirlanib yig'ladim.

Bizlar mo'min, ma'qul el,
Rahm et, o'zga ne deyman.
Bo'ri dedi: — Indin kel,
Seni tushlikka yeyman.

Qo'y ko'z yosh to'kdi ma'rab,
Isyon qilmadi lekin.
Ketarkan mayus qarab,
Rahmat deb qo'ydi sekin.

U ketgach keldi navbat
Uzunsoqol echkiga.
Unga tegdi taklif xat,
Payshanba kun kechkiga.

Nihoyat oxirgi gap
Navbati otga yetdi.
U bo'rini mo'ljalab
Jag'iga chunon tepdi.

Olov chaqnab ko'zidan
Bo'rida jon qolmadi.
Ketganicha o'zidan
Qaytib tura olmadi.

Hamon unutmas otning
Bu ishini va der har vaqt:
— Mendek xalqparvarning
Padariga ming la'nat.

Bema'ni majlisga men
Ikki dunyo qaytmayman.
Ot beodob, ot o'lsin,
Ziyofatga aytmayman.

Erkin Vohidov

OFTOBXON

Bog'cha qizi Oftobxon,
Kecha to'ldi besh yoshga.
Gap-so'zi biram shirin,
Yuzi o'xshar quyoshga.
Kiyinadi ozoda,
O'zi juda ham quvnoq.
Bo'sh payti onasiga
Yordam berar qizaloq.

Obid Rasul

O'Z TILIM

Qonga kirgan sut bilan,
O'zbek tilim, o'z tilim.
Ardoqlayman yurt bilan,
O'zbek tilim, o'z tilim.
Burro-burro so'zlayman,
Kelajagim ko'zlayman.
Istiqbolim, iqbolim,
O'zbek tilim, o'z tilim.

Safo Ochil

YOMG'IR YOG'ALQ

Yomg'ir yog'aloq,
Yam-yashil o'tloq.
Endi ekinlar
Chiqarar quloq.

Tarnovdan oshib
Tushadi shoshib.
So'ng jilg'alardan
Oqadi toshib.

Ariqlar to'lar,
Zo'r anhor bo'lar.
Suv serob ekan,
Ko'p paxta unar.

Yomg'irdan foyda
Maysaga, donga.
Yurt serob bo'lar,
Oq bug'doy nonga.

Yomg'ir yog'aloq,
Tomchi yumaloq.
Yomg'ir tinganda
Chiqar kamalak.

Shukur Sa'dulla

INSON VA MEHNAT — OG'A-INI

— Sendan qudratliroq bormi? — so'rashdi Tog'dan.
— Bor, — javob berdi azim Tog'. — Hecham ajralmas og'a-
ini yashaydi. Shular mendan qudratliroq.

— Kimlar ekan ular, bilsak bo'ladimi?
— Inson bilan Mehnat, — dedi azim Tog'.
— Voy, shu mitti inson-a?
— Ha, to'g'risi, bo'ronu zilzilalar, jalayu qor-yomg'irlar men uchun unchalik xavfli emas. Ammo Inson bilan Mehnatga kelganda ularga teng kela olmayman.

— Asov Daryo, sen nima deysan?

— To'g'risini aytganda, meni kuchli desa bo'ladi. Asablarim buzilib, junbushga kelsam, bu azim tog'laringu cho'lu biyobonlaring qahrimga bardosh berolmay qoladi. Qa'rimga tortib, bir pasda yamlab yutaman. Lekin... qanchalik asov bo'lmay, men ham ojizman. Negaki, Inson va Mehnat meni jilovlab olib, istagan ko'yiga sola oladi.

— Sen-chi, sen ham shunday fikrdamisan, Ona-yer?

— Ha, men Inson va uning yo'ldoshi Mehnat bilan tirikman. Tashnaligimning qondirilishi, ko'ksimni tikanlar qoplamasligi, aksincha, chiroyimga chiroy qo'shilib, noz-ne'matlarga burkanishim shu og'a-ini tufayli. Ular oyoq bosmasa bormi, qaqqshab, alanga bo'lib yonaman. Inson bilan Mehnat uzoqlashsa, "odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadi" holatiga tushaman-qolaman. Shundan ham bilsa bo'ladiki, bu og'a-inilarning saxovati, kuch-qudrati oldida men ham bosh egaman, — dedi ona-Zamin.

— Ha, azim Tog', asov Daryo, ona-Zaminning hukmdori Inson va Mehnatdir. Shu og'a-ini hamroh ekan, kundan kunga tog'lar talqon, daryolar jilovlangan, yerimiz go'zallashib boraveradi.

"G'uncha"dan

JASUR YIGIT

Ilk bahor. Tog'lardan erigan qor suvlari pastga shiddat bilan oqib tushadi. Nahr ko'prigining o'rtasida bo'lgan kichkina bir uy ichida ko'prik qorovuli va uning shahardan ko'rgani kelgan xotini, ikkita bolasi suhbatlashib o'tirishardi. Shu payt har tomondan:

— Qorovul, tezroq bo'l, o'zingni va oilangni halokatdan qutqaz! — degan tovushlar eshitildi.

Sel va to'lqinlar ko'prikdan oshib, qorovul uyi atrofini yemira boshladi. Qorovul uychasining tomiga chiqib olib:

— Bizga yordam bering, yordam! — deb qichqirdi.

Bir qari chol:

— Ularning halok bo'lishlariga ozgina vaqt qoldi. Uycha ag'anay deb turibdi, nega qarab turibmiz? Bir jasur yigit bormi axir? — deb faryod qildi. Boshqa qishloqdan kelgan bir yigit qari cholning so'zlarini eshitgach, otilib o'rtaga chiqdi.

Jasur yigit nahr qirg'og'idagi kichkina bir qayiqchaga o'tirib shiddat bilan oqib turgan suvda ko'p mashaqqatlar chekib, uychaning yoniga yetib keldi. Avval qorovulning ikki bolasini qayiqchaga o'tqazib, ularni sohilga sog'-salomat yetkazdi. So'ngra yana ko'p mashaqqat tortib, qorovul va uning xotinini olib keldi.

Hamma haddan ziyod shodlanib, olijanob, jasur yigitni olqishlab, minnatdorchilik izhor qildi. Qari chol va kampirlar ko'zlaridan shodlik yoshlarini to'kdilar, jasur yigitga tahsinlar o'qidilar.

O'sha yerdagi mo'tabar bir odam jasur yigitni mukofotlamochi bo'lib:

— Rahmat, olijanob yigit, qilgan odamgarchiliging, yaxshi xizmating uchun mana bu mukofotni qabul qil, — deb uning qo'liga pul uzatdi.

Jasur yigit mukofotni qabul qilmay:

— Iltifotingizga rahmat, men mukofot olish uchun emas, vijdon amri bilan insoniy vazifamni ado etdim, buni pulga sotmayman. Menga beradigan shu pullaringizni qorovulga bersangiz, men juda xursand bo'laman, chunki u ro'zg'ordagi hamma narsasini boy berdi, yordamga muhtojdir, — deb hamma bilan xayrlashib, o'z qishlog'iga jo'nadi. Hamma u yigitga qoyil qoldi.

"G'uncha"dan

SALIMJON NIMJON

(Hazil qo'shiq)

Salim, Salim, Salimjon,
Buncha bo'lding sen nimjon?
Koptok misol semirding,
Go'yo taning xamirjon.
Salimjon nimjon.

Hech bir chiqmay oftobga,
Ranging o'xshar betobga.

Uyqu bosib ko'zingni,
Qarolmaysan kitobga,
Salimjon nimjon.

Ayta bersak bir chetdan:
Doim qochding mehnatdan,
Hech qilmaysan zaryadka,
Aslo bormi g'ayratdan?
Salimjon nimjon.

Bizlar kabi kuch yiqqin,
Tur, o'rtoqjon, tez chiqqin,
Ishlab maktab bog'ida
Terlab-terlab chiniqqin,
Bo'larsan polvon.

Po'lat Mo'min

Tez aytishlar

Olima Olimga olma berdimi?
Olim Olimaga olma berdimi? l-o
Soqi quritgan qoqi quruq qoqi. s-q
Sovuqda tustovuq sovuq qotdi. s-v
Tog'am tog'da bir tog'oracha tog'olcha terdi. t-g'
Salim sariq qalamda sariq qovoq rasmini soldi. s-q
Tut tagida traktor tirillab turibdi. t-r
Bir tup tut yonida to'rt tup turp. t-p
Qirg'ovul qirdamas, qirg'oqda. q-g'
Hali Vali, Soli sholi o'rdi. s-l

Topishmoqlar

1. Oppoqqina qor emas, yumshoqqina par emas.
2. Pishirsang osh bo'ladi,
Pishirmasang qush bo'ladi.
3. Og'zi yo'g'u, tishi bor,
Duradgorda ishi bor.
4. Po'lat qushim uchdi-ketdi,
Bir zum o'tmay uyga yetdi.
5. Bir qop un,
Ichida ustun.

6. Qavat-qavat ko'ylagi bor, tugmasi yo'q.
7. Qo'shaloq tovoq,
Ichi to'la yog'.
8. Ko'zga ko'rinmas,
Qo'lga ilinmas.
9. Oyog'i yo'q, qochadi,
Qanoti yo'q, uchadi.
10. O'lgudayin ayyorman,
O'rmon ichra sayyorman.
Dumim supurgi sifat,
Na do'stim bor, na ulfat.
Meni qilmang ko'p kulgi,
Nomim to'g'ri ayt...
11. Gullaganda oy deysiz,
Pishgach tatib moy deysiz.
12. Qozon ichra oppoq qor.
13. Beli qilday,
Boshi xumday.
14. Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.
15. Guli to'rtta yarim oy,
Boshginamdan olar joy.
16. Kelar-ketar izi yo'q,
Qaragali ko'zi yo'q.
17. Bir tayoqda to'rt barmoq,
Beda ko'tarar inoq.

Topishmoqlarning javobi

1. Paxta. 2. Tuxum. 3. Arra. 4. Raketa. 5. Jiyda. 6. Karam.
7. Yong'oq. 8. Havo. 9. Bulut. 10. Tulki. 11. Kungaboqar. 12. Shir-
guruch. 13. Chumoli. 14. Anor. 15. Do'ppi. 16. Shamol. 17. Pan-
shaxa.

Maqollar

To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan,
Egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan.

*

Ona yurting omon bo'lsa,
Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

*

Hunari yo‘q kishining,
Mazasi yo‘q ishining.

*

Oltin olma, duo ol.

*

Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir.

*

Birni birov berar,
Ko‘pni mehnat.

*

Intilganga tole yor.

*

Azob ko‘rmay, rohat yo‘q.

*

Yaxshiydan bog‘, yomondan dog‘ qoladi.

*

Avval o‘yla, keyin so‘yla.

*

Mehnat qilsang yasharsan,
Katta-katta osharsan.

*

Birovga chuqur qazisang, unga o‘zing yiqilasan.

*

Rahmat olgan omondir,
La‘nat olgan yomondir.

*

Hunarli xor bo‘lmas.

*

Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.

*

Yolg‘onchining rost gapi ham yolg‘on.

IKKINCHI CHORAK

O'qib berish uchun

JONZODLAR QO'SHIG'I

Xo'roz qo'shig'i

Men ketyapman qaddim g'oz,
Qu-qu-qu.
Chetroq turing, iltimos,
Qu-qu-qu.
Axir shohman — hukmdor,
Qu-qu-qu.
Boshda tilla tojim bor,
Qu-qu-qu.
Toj kiyaman atayin,
Qu-qu-qu.
Bir sirim bor aytayin,
Qu-qu-qu.
Tepakalman, sochim yo'q,
Qu-qu-qu.
Toj kiymay ilojim yo'q,
Qu-qu-qu.

Sigir qo'shig'i

"Qand" deb yig'lar buzog'im,
Tinchimaydi qulog'im,
Mo'-o'-o'.
Ko'nmayapti u sira,
Bersam hatto kunjara,
Mo'-o'-o'.
Bilmaydiki esi past,
Ko'k beda ham yomonmas,
Mo'-o'-o'.
Nima u "qand" degani,
Arziydimi yegani,
Mo'-o'-o'.

Quvnoq ayiqcha qo'shig'i

Boshpanam shu — o'rmon,
Sokin-u bepoyon.
Bormish zo'r shaharlar,
Sotilarmish sharlar.
Bunda netaman?
Uydan ketaman.

Yursam ko'p piyoda,
Charog'im — ziyoda.
Shaharda tramvay,
Chiqsam zum o'tmay —
Ko'lga yetaman,
Uydan ketaman.

Ko'lda bor qayiqcha,
"Qani siz, Ayiqcha!"
O'rmonda eski gap,
Na bog'cha, na maktab,
Na xat bitaman...
Uydan ketaman.

Bolalar saroyi
Emish ko'p g'aroyib.
To'garakka kirib,
Samolyotcha qurib,
Parvoz etaman...
Uydan ketaman.

Ulg'ayib albatta,
Ishlayman zavodda.
Ko'cha-uy, bog' go'zal,
Do'konda mo'l asal, —
Navbat kutaman...
Uydan ketaman.

...Azizim, onajon,
Sen bilan soz o'rmon.
Sen borki, dilim shod,

Yoningda umrbod —
Kuylab o'taman,
Qayga ketaman!

To'tining talabalari

To'tiqushga yalinishdi
Qarg'a, Cho'chqa, It, Mayna.
— Odamlardek gapirishni
Bizga ham o'rgat, oshna.
To'ti dedi:
— Men roziman,
Mushkul ishdir bu garchi.
Qani, aziz talabalar,
"Ar-r-rabaliq" denglar-chi?
Qarg'a dedi:
— Qar-r-rabaliq,
— Ir-r-rabaliq, — dedi It.
— Xir-r-rabaliq, — dedi Cho'chqa.
Mayna dedi:
— Vit-vit-vit.

Anvar Obidjon

VELOSIPED

Ko'chamizda Botir degan bola bor. U bog'chani katta guruhiga qatnaydi. Bog'chadagi o'rtoqlari unga "Botir maqtanchoq" deb nom qo'yishgan. Chunki u: "Men Botirman. Ko'chamizning zo'riman, hamma bolalar mendan qo'rqadi", deb maqtanarkan.

Biz qo'shnilar esa uni "Botir xira" deymiz. Buning ham sababi bor.

Botir ko'pincha nojo'ya qiliqlari bilan bolalarning o'yinlarini buzadi. U velosipedini minib ko'chaga chiqdimi, qo'ng'irog'ini jiringlatib, to'ppa-to'g'ri o'ynab yurgan bolalar ustiga haydaydi. Botir avvaliga kichkintoylarni, bora-bora o'rtoqlarini ham bezdirib qo'ydi. Botir ko'chaga chiqishi bilan ular uy-uyiga kirib ketadigan bo'lishdi. Botir esa "hammasi mendan qo'rqadi" deb o'ylab xursand bo'ldi.

Ko'p o'tmay Botir ko'chaga chiqqanida bir o'zi qoladigan bo'ldi. Bir kuni kechki payt nima qilishini bilmay turganida yo'lakdan kuchuk o'tib qoldi. Botir velosipedini jiringlatib quvgan edi, kuchuk lip etib ko'chaning narigi betiga o'tib ketdi. Endi nima qilsa ekan?

Bunday qarasa, nariroqda bir chol ketyapti. Qo'lida hasa. Botir bir narsani o'ylab iljaydi-da, velosipedini chol tomonga haydadi. Bir-ikki jiringlatib qo'ydi, chol o'zini chetga — gulzor yoniga oldi. "Cholni ham qo'rqitdim", dedi Botir ichida sevinib. Keyin unga yaqin borib ustma-ust jiringlatib yubordi. Chol cho'chib ketiga qaradi. Shunda Botir bu qariya o'zining bobosi ekanini ko'rib:

— Men sizni boshqa kishi deb o'ylabman. Kechiring, buva-jon, — dedi yalinchoqlik bilan.

— Hali shundaymi, — dedi bobosi. — Mendan boshqa chollarni hurmat qilmas ekansan-da, — dedi bobosi. — Agar shunday bo'lsang, endi senga buva bo'lmayman.

Botir nima deyishini bilmay, ko'zlarini jovdiratib qolaverdi.

Mahmud Murodov

MUSICHALAR

Bizning hovlida doim
Yashar bir juft musicha.
Ququvlab muloyim
Sayrashadi o'zicha.

Sadoqatli qushcha bu,
Derlar uni beozor.
Shul sabab musichaga
Hech kimsa bermas ozor.

Mehribon bir-biriga,
Ketmaydi uzoqlashib.
Bahor payti so'riga
In qo'yadi cho'p tashib.

"Qu-qu", deb takror aytib,
Rizqin terib yurishadi.

Bola ochib, ulg'aytib
Har yili uchishadi.

O'tkazib yozu kuzni
Qishda ham ketmas ular.
Ikkisi hovlimizni
O'z uyimiz deb bilar.

Barot Isroil

BOG'CHAMIZDA

Hamma bolalar inoqmiz,
Yaqin do'stmiz, o'rtoqmiz.
Bog'chamizda.
Sog' bo'lg'in deb o'ynatar,
Quvnoq bo'l deb kuylatar,
Bog'chamizda.

Tanimiz kuchga to'lar,
Tilimiz burro bo'lar,
Bog'chamizda.
Yuzlar o'xshar oftobga,
O'rganamiz odobga
Bog'chamizda.
Yo'llar bizni hayotga,
Minnatdormiz g'oyatda
Bog'chamizdan.

DO'PPI KIYGAN BOLA

Do'ppisining kashtasida
Aks etadi tilim oy,
Tepasida nur sohib,
Turar go'yo so'lim oy.
Do'ppi kiygan bolaning
Yo'llari yorqin bo'lar.
Mehr to'la yuragi
Xalqiga yaqin bo'lar.
Assalom degan so'zi,
Hurmatiga hurmatdir.
Do'ppi kiygan bolalar
Hayotda unib-o'ssin,
Peshonasi yarqirab,
Boshlariga baxt qo'nsin!

Qambar Ota

SUV BILAN SUHBAT

— Hoy sen, jiyron toychamdek
O'ynab-o'ynab oqqan suv,
Dalalarga bayramdek
Guldan bezak taqqan suv.
Quloq solgin so'zimga,
Nega buncha shoshasan?
Qayerdan bu kelishing,
Qirg'oqlardan toshasan?
— Yaxshi bola, toychangdek

O'ynab, kishnab kelishim,
Qir-adirlar oralab
Shamol kabi yelishim, —
Ko'rasanmi, ho' o'sha
Oppoq qorli tog'lardan,
Shoshib oqib kelaman
Dalalardan, bog'lardan.
— Yo'l-yo'lakay shildirab,
Sen yoqimli kuylaysan.
Jilolanib azizim,
Ne xususda so'ylaysan?
— Zarrin quyosh nuridan
Quvvat olib o'ynayman:
U mehribon onaning
Maqtovini so'zlayman.
— Endi menga toshqin suv,
Aytgin borar yeringni:
Yomon bo'lmas shoshqin suv,
Gar bilsam manzilingni.
— Borar yerim-manzilingni
Cheksiz paxta konidir.
Unutdingmi, azizim,
Suv ekinning jonidir.
— Yaxshi, jiyron toychamdek,
O'ynab-o'ynab oqqan suv,
Dalalarga bayramdek
Guldan bezak taqqan suv.
Unday bo'lsa, to'xtama,
O'ynab-kulib oqaver,
G'o'zalarning ko'ksiga
Guldan bezak taqaver!

GUNAFSHA

Gunafshaxon, gunafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Bog'imizda ochilib
Turishlaring chiroyli.

Hamma chiqar dalaga
Gunafshalar terkali.

Men ham yig'dim bir dasta
Opamizga bergali.

— Mana, opa, gunafsha,
Qarang, qanday chiroyli.
— Yuring, — dedi opamiz, —
Gunafshalar teraylik.

Gunafshalar ochildi,
Chakkangga taq, chakkangga.
Atir hidi sochildi
Chakkangga taq, chakkangga.

Lazzat olib hidingdan
Bolarilar uchadi.
Ipak qanot kapalak,
Barglaringni quchadi.

Seni maqtab kuylaydi,
Bog' aylanib g'unchalar.
Darak berib bahordan
Quvontirding shunchalar.

Gunafshaxon, gunafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Ko'ksimizda hid sochib
Turishlaring chiroyli.

KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Muncha shoshib uchasan,
To'xta, so'zlayin andak.

Uchrataman har kuni
Seni go'zal bog'chamda.
So'rib gullar sharbatin
O'ltirasan olchamda.

Borib ushlay deganda,
Shoshib darhol uchasan.
Sira tutqich bermasdan
Guldan gulga ko'chasan.

Mendan aslo qochmagin,
Do'st bilaman o'zimga.
Pildir-pildir uchishing
Oh, yoqadi ko'zimga.

Uch, uchaver, uchaver,
Go'zal bog'cham gulshanda,
Sira ozor bermayman
Sevgim, fikrim ham senda.

Kapalakjon, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Do'st bo'laylik ikkimiz,
To'xta, so'zlayin andak!

TO'P

To'pim, to'p-to'p etasan,
Ursam uchib ketasan.
Havolanib nariga
Do'stlaringga yetasan.

O'ynatasan ko'zimni
Hovliqtirib o'zimni,
Bir oz ko'proq o'ynasam,
Terlatasan yuzimni.

Senga sira to'ymayman,
Bo'sh ekanman, qo'ymayman.
Ovunchog'im deb seni
Do'stlarimla o'ynayman.

To'pim, to'p-to'p etasan,
Ursam, uchib ketasan.

Xandalakdek yumalab
Bizni xursand etasan.

Zafar Diyor

"HA" BILAN "XO'P"

"Ha" bilan "xo'p" bir so'zki,
Bir-biridan ko'p yiroq.
"Ha"dan ko'ra "xo'p"ni
Ishlatsak biz yaxshiroq.

"Xo'p" — bu hurmat belgisi,
"Ha"-chi, unga teskari.
"Ha"ni qo'yib "xo'p" desa
"Rahmat" — der yoshu qari.

Tolib Yo'ldosh

DASTYOR DEGANI NIMA?

Savol berar Naima:
— Dastyor degani nima?
So'zni yig'ib fikrimni
Uqtiraman singlimga:

Uy ishiga qarashgan,
Har bir ishga yarashgan,
Ukasini ovutgan,
Reja bilan ish tutgan,
Aqlli qiz, loabar qiz —
Deyiladi dastyor qiz.

Uyg'un

KEYIN QARASAM

Ertalab xursand
Uyqudan tursam,
Bir mushuk turar
Bolish quchoqlab.
O'ljasin chog'lab,
Qoshi, ko'zi yo'q,
Aytar so'zi yo'q.
Na bir miyovlar,
Na sichqon ovlar.
Keyin qarasam,
Junin tarasam,
"G'ing" demay yotgan,
Xayolga botgan
Telpagim ekan...

Narimon Boqizoda

YAXSHILIK

Fazliddin o'rtog'i Nabi bilan o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilari Normamat boboning kelayotganini ko'rib qoldi. Cholning qo'lida tugunchasi ham bor edi. Fazliddin hovliqib o'rtog'iga kerildi.

— Hozir-chi, men borib Normamat bobomlarga yordam beraman. Qo'llaridagi tugunchani ko'tarishib yuboraman. Bilasanmi... men doim qariyalarga yordam beraman. Meni Normamat bobo juda yaxshi ko'radilar, doim odobli bola

ekansan, deb maqtaydilar. Ishonmasang, men bilan yur, yurgin, o'zing ko'rasan.

Bolalarga yaqinlashib qolgan Normamat bobo Fazliddinning so'zlarini eshitdi, chog'i, miyig'ida jilmayib qo'ydi. Fazliddin cholning oldiga yugurib borib, uning qo'lidan tugunchani oldi.

— Bobo, keling, yordamlashib yuboray, sizga doim yordam beraman-a, — so'radi Fazliddin, Nabi eshitsin uchun jo'rttaga baqirib.

— Ha, har doim yordam berasan, — boshini liqillatib tasdiqladi Normamat bobo.

Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada yo'lga tushdilar. Uyiga yetgandan keyin Normamat bobo Fazliddinning qo'lidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek "Barakalla, bo'talog'im, odobli bola ekansan", deb maqtamadi. Faqat quruqqina qilib: "Rahmat", dedi va engashib Fazliddinning qulog'iga nimadir deb pichiriyadi. Keyin kulinsiraganicha uyiga kirib ketdi.

Fazliddin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab chap oyog'i bilan yer chizdi. Uning yoniga yugurib o'rtog'i keldi.

— Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi, — so'radi Nabi. — Normamat bobo nima dedilar?

Fazliddin boshini ko'tarolmasdi.

— Nega indamaysan?

— Yaxshilik qil, lekin ketidan maqtanib yuvib yuborma, — dedilar Normamat bobo, — zo'rg'a javob berdi Fazliddin.

Ferhod Musajon

QAND BERSANGIZ QILAMAN

Nosirjon shirinlikni juda yaxshi ko'radi. Kattalardan birortasi ish buyursa, "Qand bersangiz qilaman", deb javob beradi. Rostdan ham qand bermasangiz qilmaydi.

Bir kuni to'satdan Nosirjonning buvisi kasal bo'lib qoldi. Uйда Nosirjondan bo'lak hech kim yo'q, dadasi bilan oyisi ishda edi. Kampir qo'shnilarga aytib do'xtir chaqirtirdi.

Do'xtir Nosirjonning buvisini sinchiklab ko'zdan kechirgach, har xil dorilar yozib berdi.

— Qoningiz kamayib ketibdi, ko'proq shakar-qand yeng, — deb tayinlab ketdi.

Kechga yaqin karavotda yotgan buvisining qorni ochdi. U karavotning tagidan choynakni olib piyolaga choy quydi. Keyin rasmlı kitob ko'rib o'tirgan nabirasiga qaradi.

— Nosirjon, qanddonni olib bergin, choy ichmoqchi edim, — dedi.

— Qand bersangiz olib kelib beraman, — dedi Nosirjon odati bo'yicha.

— Mayli, bolam, beraman, qand sendan aylansin, — dedi buvisi.

Nosirjon qanddonni buvisiga oborib berdi. Buvisi qanddonni ochsa, aksiga olib ichida bittagina qand qolgan ekan, olib Nosirjonga berdi. Nosirjon qandni og'ziga soldi-da, yana rasmlı kitobchasini varaqlay boshladi.

Xudoyberdi To'xtaboev

NILUFARNING OLMALARI

Nilufar bilan yana dala hovli tomon yo'l oldik. "Yozuvchilar bog'i" degan bekatda har doimgidek avtobusdan tushdik. U endi bu yoqdagi yo'lni bilgani uchun mendan oldinga tushib oldi. Temir yo'ldan o'tishimiz bilan Nilufar chap tomondagi olmazorga qarab so'radi:

— Dadajon, bu daraxtlarni kim ekkan?

— Bog'bon amakilar.

— Olmadan olsam bo'ladimi?

— Qorovul amaki urishadi.

— Qorovul amaki bolalarni urishmaydi.

Nilufar shunday dedi-yu, tegma deyishimga qaramay, yerga osilib turgan shoxdagi olmaga qo'l uzatdi. Hali olmani uzib olar-olmas olmazor atrofıni otda aylanib yuradigan murtli amaki qarshisida paydo bo'ldi.

— Hoy, olmani uzma, — murtli amaki otining jilovini tortib, do'rildoq ovozda baqirdi.

Nilufar qotib qoldi. Shoxdan qo'lini tortdi.

— Amaki, bola-da, — dedim.

— Bu yo'ldan har kuni qancha bola-chaqali odam o'tadi, — murtli amaki qo'lidagi qamchisini bigiz qildi. — Har biri bittadan uzib olaversa, olma qoladimi?

Nilufar dam menga, dam qorovul amakiga qaradi. Mendan sado chiqmagach, o'zi javob berdi.

— Amaki, sizning olmangiz achchiq.

— Shirinini bozordan sotib olasan, — qorovul amaki otiga chuh deganicha bizdan uzoqlashdi.

Nilufar yengimdan tortdi.

— Dadajon, endi sira bu yo'ldan yurmaymiz.

— Nega, qizim?

U ot ustida tebranib borayotgan qorovul amakini ko'rsatdi:

— Anovi amakining olmasi achchiq.

— Achchiq-achchiq, — dedim uni quvvatlab. — O'zimiz eksak shirin bo'ladi. Nilufarning bir oz bo'lsa-da ko'ngli yorishdi, chehrasi ochildi. — Ertaga olma, shaftoli, behi, xurmo, anjir, eh-he, yana qancha nihol olib kelamiz.

— Olmasini men ekaman, — dedi u o'ynoqlab.

— Bu boshqa gap. Hozir borib yer chopamiz. Nihol ekiladigan joy tayyorlaymiz.

Shu kuni ishimiz yurishdi. Men kattakon ketmonda, u bo'lsa belkurakchada ancha-muncha ishni qilib qo'ydik. Ertasi kuni ekiladigan nihollarni ko'tarib yana o'sha joydan o'tdik.

— Dadajon, — dedi u, — olma niholini men ekaman-a?

— Ha, ha, ona qizim.

— Shirin olma qiladi-a?

— Pishganda ko'rasan. Sen ekan olma shunaqa shirin bo'ladiki, bay-bay... bunaqasini...

Nilufar olma niholini qo'limdan olib, qadamini tezlatdi. Aytganimdek, shu kuni u nihollarni ushlab turdi. Men avaylab, har birini qazib qo'ygan chuqurchalarga o'tqazdim.

Kechga yaqin qaytar ekanmiz, oldimizdan ot mingan qorovul amaki chiqib qoldi. Men murtli amaki bilan salom-alik qilgandim, Nilufar yer ostidan tumshayib qarash qildi. Otlq buni sezmedi.

Oradan o'n kunchami, undan ko'proq vaqt o'tdi. Nihollardan xabar olgani borsam, Nilufar o'tqazgan olmadan bittasi qovjirab qurib qolibdi. Nilufar qurigan olma niholini ko'rib so'rab qoldi:

— Dadajon, mana bu olma nega quribdi?

— E, — dedim manglayimni qashlab, — faqat senga aytmovidim, nihol ekan bola doim kulib, o'ynab yurishi kerak. Ana o'shanda niholi darrov ko'karadi. Ertaroq shirin meva beradi.

Nilufar bo'shshib qoldi. Bir kun oldin u singlisi Nodira bilan ko'ylak talashib ostona oldida yotib olib yig'lagan edi. Men o'shanga ishora qilib dedim:

— Nihol ekkan bola yig'lasa, narsa talashib, qizg'anchiqlik qilsa, o'tqazgan niholi buni eshitib xafa bo'ladi. Umuman, bolalar qancha ko'p yig'lasa, nihollar shuncha tez quriydi. Qulog'ingda tursin, — so'zimning ta'siri kuchayganini ko'rib qo'shib boraverdim. — Qayerda qurigan ko'chat ko'rsang, bilginki, shu yaqinda birorta bola yig'lagan.

Nilufar o'zi o'tqazgan olmalari oldida ma'yus tortdi. Bolalarcha xo'rsinib, ko'zlarimga tikildi.

— Endi sira yig'lamayman, dadajon, Nodiraga ham ayta-man.

— Bu boshqa gap.

Nilufar baribir kechgacha o'zi o'tqazgan olma nihollari yonidan ketmadi. Suv quydi. Begona o'tlarni yuldi. Aytgan gapimni aytib, men kuzatishimni kanda qilmadim.

Horib-charchab nabiram bilan uyga qaytdim. Eshik oldida hiqillab yig'layotgan Nodira bizni qarshi oldi.

— Voy, ona qizim, senga nima bo'ldi? — deyishim bilan Nilufar hovliqib bidillab ketdi:

— Yig'lama, ekkan nihollarim quriydi... Dadajon, bunizga ayting, yig'lamasin. Sizni ekkanglariz ham quriydi.

Nilufar shu bilan tinchimadi. Yugurgilab uyga kirdi-yu, qaysi kuni Nodiraning qo'lidan yig'lab olgan atlas ko'ylagini olib chiqdi.

— Ma, Nodiy, san kiy, yig'lama.

Nodira atlas ko'ylakni ko'rishi bilan tinchidi-qoldi. Nilufar singlisining boshini silab qo'ydi.

— Nodiy, yig'lashing to'xtadimi?

Nodira "ha" degandek boshini qimirlatdi.

— Yur, — dedi Nilufar uning qo'lidan ushlab. — Senga yashirib qo'ygan konfetimni beraman.

Opa-singil burchakdagi uyga kirib ketishdi. To'xtab birpas quloq soldik. Nilufar mendan eshitganlarini Nodiraga aytib berardi. Agar yig'lasang... degan so'zini tinimsiz takrorlardi.

Oldiniga Nilufarning gap-so'zlarini mazza qilib eshita boshladim. Keyin quloq solish odobdan emas dedim-u, men ham o'z xonamga kirdim.

Safar Barnoev

TOSHBAQANING NASIHATI

O'sib yotar qulupnay
Tarvaqaylab, chirmashib.
Emish izlab Shilliqqurt,
Chiqdi bargga tirmashib.
Imillab yurish asli
Shilliqqurtga juda mos.
Oyog'i toyib birdan
Yiqilib tushdi bexos.
Piching qilar Toshbaqa:
— Ehtiyot bo'lish kerak,
O'pkani qo'ltiqlamay,
Shoshilmay yurish kerak.

Tursunboy Adashboev

QAHRAMONGA O'LIM YO'Q

Paq-puq qilib bolalar
O'ynashar urush-urush.
Avjga chiqar urralar,
Bir-birini quvish.

Nor qichqirar: — Hakim, o'l,
Axir senga tegdi o'q.
Hakim borar siltab qo'l:
—Qahramonga o'lim yo'q.

Habib Rahmat

"IT-MUSHUK" O'YINI

- Quvnamizmi?
- Quvnamiz!
- O'ynamizmi?
- O'ynamiz!

— Men mushukman:
Miyov-miyov...
— Men kuchukman:
Vov-vov...
— Ana qaymoq
Yalayman.
— Yalab bo'psan,
Talayman!
...Timdalashdi,
Talashdi.
Bir-birin
Piypalashdi.
Yig'i-sig'i,
Ters qarash...
Bo'ldi so'ng
Yarash-yarash.
Toy bo'lamiz
Deyishdi.
Qo'y bo'lamiz
Deyishdi.
Mayli otib
Shataloq.
Bo'lamiz
Echki-uloq.
Hatto bo'taloq
Biroq...
Bo'lmaymiz hech
It-mushuk.
Bo'lmaymiz hech
Xit-shumshuk.

HAKKA XOLA

— Hakka xola,
Cho'p tashiysiz.
G'iz-g'iz qatnab
Ko'p tashiysiz.
To'y-po'y bormi,
Yoqib olov

Damlayapsiz
Balki palov?
Cho'pingiz yo
Tandirdami —
Somsa, jizza,
Patirdami?
— G'iz-g'iz qatnab
Ko'p tashiyman.
Tumshug'imda
Cho'p tashiyman.

Xas-cho'plarim
Bolam uchun.
Qanotlari
Olam uchun.
Bitsin, deyman
Tezroq uyi...
Keyin bo'lar
Beshik to'yi.

Muhammadjon Rahmon

OQ KABUTAR

(Qozoq xalq ertagi)

Bu voqea juda qadim zamonda bo'lib o'tgan. U paytda odamlar bir-birlarini o'ldirmas, umuman urush degan narsani bilmas ekan. U davrda na boylar, na kambag'al, na ziqnalar bor ekan.

Bir kuni Yaxshilik degan odamning xotini qo'chqorday o'g'il tug'ibdi. Uzoq-yaqindan mehmonlar chaqirilib, katta ziyofat berilibdi. Ularning orasida sehrigar ham bor ekan. U chaqaloqqa qarab:

— Ishqilib bu bola odamlarga kulfat keltirmasa bo'lgani, — debdi.

Oradan yillar o'tibdi. Bola kamolga yetibdi. Lekin u ulg'aygan sayin ziqna bo'laveribdi. Atrofga ochko'zlik bilan ko'zlari qonga to'lib qararkan. U pichoq, ustara, bolta kabi o'tkir narsalarga juda o'ch ekan. Oxiri odamlar bunday buyumlarni yashirib yuradigan bo'lishibdi.

Kunlardan bir kuni o'sha ochko'z farzand o'zi yasagan o'q-yoyi bilan qo'rqitib qari ota-onasini uydan haydab yuboribdi. Yolg'iz qolgach, dunyodagi hamma hayvon va qushlarni o'ziniki qilish rejasini tuza boshlabdi. Bir kuni u uydan chiqibdi. Bahor fasli ekan, butun tabiat uyqudan uyg'ongan, quyosh zarrin nurlarini atrofga sochar, bog'larda qushlar ajoyib qo'shiqlar kuylar ekan. Bola hovlidagi olma shoxiga qo'ngan kaptarga ko'zi tushibdi.

— Mening olmamda o'tirgan kaptar, albatta, meniki bo'lishi kerak, — o'ylabdi u va qushni mo'ljalga olibdi. Shu payt birdan

kaptar ko'zdan g'oyib bo'lib, bola uning o'rniga o'zining oq soqolli otasini ko'ribdi. Qo'li qaltirab, kamoni tushib ketibdi. Shunda mo'jiza ro'y berib, shoxda yana kaptar paydo bo'libdi. Bola yoyni yana qo'liga olgan ekan, qush g'oyib bo'lib u yana otasini ko'ribdi. Bola g'azablanib, nishonga olaveribdi. "Ot, ot" dermish unga ichidan bir yovuz ovoz. Bola kamonni tortib turib, o'qni qo'yib yubordi. Qonga belangan chol pastga qulabdi. Oq kabutar esa ayanchli faryod chekib, uchib ketibdi.

Shunday qilib, ilk bor inson insonni halok qilgan ekan.

O'shanda olmaning oppoq gullariga cholning qoni tomgan ekan. Shuning uchun u doimo oq emas, pushti bo'lib gullar ekan. Aytishlaricha, oq kabutar shundan beri daraxtga qo'nmas emish. Yer yuzida inson qonini ko'rgandan beri uning ko'zlari doimo qizarib yurar ekan.

QUSH BO'LIB UCHGAN ONA

Ona va uchta o'g'il
Yasharkan bir shaharda.
Onasi ish bilan band
Har kun erta sahardan.
O'g'illar-chi, o'g'illar,
Doim yarim kechada
Kir-chir bo'lib qaytishar,
Rosa o'ynab ko'chada.
So'ng onasi ularni
Ertak aytib allalar.
Ana shunday yashashar
G'ussa bilmay bolalar.
Lekin doim shundaymas,
Kutilmagan fursatda
Qayg'u kelar, g'am kelar,
Chaqin kabi to'satdan.
Bu uyga ham shunday tez
Kirib kelibdi qayg'u.
Onani betob qilib
Yotqizib qo'yibdi u.
Bolalar-chi, bolalar

Hamon o'yin bilan band.
Chillak otar, to'p tepar,
Avvalgidek uch farzand.
Ona esa cho'q — olov,
Titraydi-yu, qaqshaydi.
Eh, farzandlar, onangiz
Suvsaganga o'xshaydi.
— O'g'lim, — debdi onasi
To'ng'ichiga mo'ltirab, —
Suv keltirgin, jon bolam,
Chelakchani to'ldirib.
— Olib kelsin erkangiz,
Kirardingiz so'ziga.
Endi hamma ishlarni
Aytavering o'ziga.
Mana o'rtancha o'g'il
Kirib kelar xonaga.
— Nima deysiz, — hovliqib
Yuzlanadi onaga.
— Chaqirgandim, bir cho'mich
Suv keltirgin, jon bolam.

Ona qarar entikib,
Chanqoq bosilsa zora.
— Bir ish bo'lsa doim men,
Yo'qmi axir boshqalar?
Onaning ko'zlarida
Umid so'nar, yosh qolar.
— Kenjatoyim, jon bolam,
U yalinar so'nggi bor.
— Suv keltirgin bir qultum,
Menda qolmadi mador.
Kenja o'g'il eshitmas,
O'yin bilan ovora.
Ona suvsab yotibdi,
Titrab, qaqshab bechora.
Juda muhtoj bo'lganda
Inson oddiy mehrga.
Kutar ekan mo'jiza,
Ishonarkan sehrga.
— Eh, — o'ylabdi onasi, —
Bo'lsa edi qanotim,
Daryo tomon uchardim,
Hech qolmadi sabotim.
Shu mahal deng mo'jiza
Sodir bo'lib bir onda,
Ona qushga aylanib
Charx uribdi osmonda.
Buni ko'rgan farzandlar
Ishonmayin ko'ziga,
So'ngra hayron qolibdi,
Kelolmayin o'ziga.
Qo'llaridan tushibdi,
Yerga koptok va chillak.
Onalari ketyapti,
Tezroq qaytarish kerak.
Yugurarkan farzandlar
Qush ortidan silkib qo'l,

Ketmang, — derlar, — oyijon,
Axir u yoq cheksiz ko'l.
— Endi sizga, — debdi qush, —
Ish qiling, — deb aytmayman.
Yaxshi qoling, bolalar,
Yoningizga qaytmayman.
Suv to'ldirib uchragan
Ko'l, adir, buloqlardan,
Yugurishar bolalar.
Chaqir tosh, so'qmoqlardan
— Oyijon, mana, suv, suv, —
Oyoqlari qontalash.
Hansirashar, oqar ter
Ko'z yosh bilan aralash.
Endi ayting bularni
Bo'larmi hech kechirib,
Onalarni farzandlar
Yubordilar uchirib.
— Oyi, mana suv, faqat,
Qaytaman, deb ayting siz.
Gunohkormiz, onasiz
Yasholmaymiz, qayting siz.
— Yo'q, bolalar, — debdi
qush, —
Daryo tomon uchaman.
O'sha yerda suvni ham
To'yib-to'yib ichaman.
Kunlar o'tar, bolalar
Chelaklarni to'ldirib,
Kutmoqdalar onasin,
Ko'l bo'yida mo'ltirab.
Bu bir ertak. mayliga
Qolsin xayol, tush bo'lib,
Ammo hech ham onalar
Uchmasinlar qush bo'lib.

Kavsar Turdieva

TABIAT MO'JIZALARI

Qaldirg'och

Bir zamonlar butun tirik mavjudotning podshosi og'zidan o't sochib turuvchi dahshatli ilon bo'lgan ekan. Bir kuni u o'zining ashaddiy ayg'oqchisi bo'lgan qora ariga:

— Hammadan ham go'shti mazali hayvonni bilib kel, — debdi.

Ari juda ko'p hayvonlarni chaqib ko'ribdi. Unga hammadan ham odamning go'shti mazali bo'lib tuyulibdi. Qora ari bu xabarni ilonga yetkazmoq niyatida ketayotganida yo'lda qaldirg'ochga duch kelibdi hamda tilida inson go'shtining ta'mi borligini aytibdi. Qaldirg'och bunga ishonqiramay, tilini ko'rsatishni talab etibdi. Ari tilini chiqargan zahoti qaldirg'och uning tilini cho'qib olibdi.

Tezda ilonning xizmatida bo'lgan ari o'z muddaosini gapira olmay, nuqul g'ong'illarmish. Shu payt qaldirg'och yetib kelibdi va "Ari hammadan ham qurbaqaning xushta'm ekanini gapirmoqchi", debdi. Shundan beri ilonning yemishi qurbaqa bo'lgan ekan.

Ayyor tulki

Kunlarning birida tulkinging qiziq harakatini kuzatishgan ekan. U og'zida nimanidir tishlagan holda orqasi bilan soydagi ko'lmakka kira boshlagan. Avval beligacha, so'ng bo'ynigacha g'arq bo'lgan. Bir lahzadan keyin esa butunlay suvga cho'kkan. Faqat og'zidagi o'ljasi suv yuzida qolgan. So'ngra o'ljani suv yuzida qoldirib o'zi cho'kib ketgan.

Agar tulkini burga bossa shu tadbirni qo'llarkan. Tulki butunlay g'arq bo'lganda, ular tulkinging og'zidagi o'ljasiga chiqisharkan. Shunday qilib, ayyor tulki burgalardan qutularkan.

Hujumkor beshiktervatar

Agar qaldirg'ochning inidagi bolalariga ilon hujum qilsa, ona qaldirg'och darhol beshiktervatarni topib kelarkan. Beshiktervatar esa ilonning ko'zini o'yib olar ekan. Yoki unga hujum qilib haydab yuborar ekan.

ILM O'RGANISH FAZILATLARI HAQIDA

(*Hikoyat*)

Sangzor dahasida bir savdogarning ikki xizmatkori bor edi. Biri ko'proq maosh olardi, ikkinchisi kamroq. Ikkinchisi birinchisiga hasad qilar, doim tuhmat toshini otardi.

Bir kuni savdogar ikkinchi xizmatkorini savolga tutdi.

— Nechun Solihga g'ayri ko'z ila qaraysan, qattiq muomalada bo'lursan?

Xizmatkor turmushidan noluvdi. Maoshi ozligini pisanda qiluvdi:

— Andin ko'p yumushni bajarurmen, lokin olar maoshim oz?

— Yaxshi, — dedi savdogar o'ylanib, — bir vazifa yuklar-men. Ani ko'ngildagidek bajarsang, maoshingni o'n hissa oshururmen.

Ikkinchi xizmatkorning yuziga qizillik yuguribdi:

— Buyuring.

— Karvonsaroyga bor-chi, qaysi eldan savdogarlar kelibdur?

Xizmatkor Sangzor karvonsaroyiga borib, tezda qaytibdi.

— Bugun tongda Chin elidan savdogarlar kelishibdur.

— Qanday mollar keltiribdurlar? — deb so'rabdi savdogar.

Xizmatkor ichida: "E attang, shunisini so'ramabmen, deya yana karvonsaroyga shoshilibdi va yana tezda qaytibdi:

— Shoyi gazmollar keltiribdurlar.

— Narxi qanday ekan? Qanday matolarga almashish niyatidalar? — deya savolga tutibdi savdogar.

Shu tariqa xizmatkor bir emas, bir necha marta karvonsaroyga boribdi, biroq qoniqarli javob keltirmabdi.

Kunlar o'tibdi. Samarqandi azimga yana turli ellardan savdogarlar keladigan vaqtda haligi savdogar ikki xizmatkorini yoniga chaqiribdi va birinchi xizmatkorga: "Bor, karvonsaroyga borib, sharoitni bilib kel, so'ng huzurimga ikkingiz birga kirin-giz", deya buyuribdi.

Maoshi katta xizmatkor tezda qaytib kelibdi. Ikkisi yana xojalari yoniga kirishibdi.

Birinchi xizmatkor barcha tafsilotni: necha eldan necha karvon kelganini, necha tuya mol borligini, narxi qandayligini

va sifatini oqizmay-tomizmay soʻzlabdi. Shunda savdogar ikkinchi xizmatkorga qarab:

— Endi buning maoshi kattaligini va doim izzat-hurmatda ekanligini anglagandursan, — deb soʻrabdi.

Ikkinchi xizmatkor javob bermabdi.

Savdogar:

— Yoshligingda ilm olmoqqa qunt qilmading. Qobiliyating durust ersa-da, dangasalik qilding. Endi ersa taqdir hukmiga itoat etmoqdin oʻzga chorang yoʻq, — debdi.

Ey oʻgʻil, yoshligingdan otang ilm olmoq uchun yaratgan sharoitdan koʻz yumma! Ilm bir chiroqdirkim, seni rohat va farogʻat saltanatiga hech bir zahmatsiz yetkazadi.

Abu Lays As-Samarqandiy

BIZNING BAHOR

Bahor doim bahor-da,
Kimligini bildirar.
Qotib yotgan toshdan ham
Gul-chechaklar undirar.
Qir-adirga loladan
Toʻshar alvon — poyonдоз.
Hatto jarlik, daraga
Gul taqib, berar pardoz.
Haydab kelar choʻponday
Turfa qushlar "poda"sin.
Tizar simga marjonday
Qaldirgʻochlar shodasin.
Sayratvorar qish boʻyi
Churq etmagan borliqni.
Sharaqlatib kuldirar
Shashti past soy, ariqni.
Bahor shunday hunarlar
Koʻrsatar biz yoqlarda.
Ogʻzining suvi oqib
Qarar ulkan togʻlar ham.

Dilshod Rajab

QIZIL TUGMACHA

Ra'noning qizil paltosida uchta cho'g'day-cho'g'day qizil tugmachasi bor ekan. U paltosining tugmalarini juda-juda yaxshi ko'rar ekan. Paltosini kir qilmasdan, ozoda bo'lib yurar ekan. Lekin Ra'noning bir g'alati odati bor ekan. Tugmalarini sira-sira tinch qo'ymasdan, hadeb ushlab, aylantirib o'ynayverar ekan. Uning bu ishidan tugmalari xafa ekan.

— Qo'yvoring, Ra'no opa, bizlarni qiynamang, — deb yalinar ekan. Ra'no esa ularning gapiga quloq solmay, qiynayverar ekan. Bir kuni tugmalari yana yalinib-yolvorishibdi:

— Jon Ra'no opa, bizlarni qiynamang, bo'lmasa, ketib qolamiz.

Ra'no bu gal ham ularning gapiga quloq solmabdi. Ayniqsa, o'rtadagi tugma juda qiynalib ketibdi. Chunki Ra'no uni hammadan ham ko'p ushlab, doim u yoqdan bu yoqqa aylantiraverar ekan.

— Ra'no opa, -- debdi o'rtadagi tugma, — yaqinda meni yo'qotib qo'yasiz. Iplarim bo'shashib qoldi. Qarang, zo'rg'a osilib turibman.

— Uzilib yerga tushsang ham qo'rqmayman, — debdi Ra'no. — Oyim boshqatdan joyiga qadab qo'yadilar.

Tugma xafa bo'libdi-yu, indamabdi. Bir kuni o'sha tugma uzilib tushib qolibdi. Lekin Ra'no buni bilmabdi. Chunki u chanani tortib chopqillab ketayotgan ekan. Bir mahal qo'ltig'ining tagiga muzdek shamol kirib, g'uwillab yengidan chiqib ketibdi. Ra'no bir seskanibdi. Shamol hadeb qo'ynidan kirib, yengidan chiqaveribdi. Ra'no uning sovug'iga chidayolmay, chopqillaganicha uyiga boribdi.

— Oyi, ko'chada sovqotib qoldim, — debdi u eshikdan kirishi bilan.

Oyisi Ra'noning paltosini yechib, qorlarini qoqibdi. Shunda paltosining bitta tugmasi yo'qligini bilib qolibdi.

— Nega sovqotganingni bilasanmi? — debdi oyisi.

Ra'no hayron bo'lib oyisiga mo'ltillab qarab turaveribdi.

— Bitta tugmang tushib qolibdi. Shuning uchun sovqotgan-san, — debdi oyisi.

Shunda Ra'no yo'qolgan tugmasining: "Yaqinda meni yo'qotib qo'yasiz", degan gapini eslab achinibdi.

- Endi nima qilaman, oyi, — debdi u.
- Nima qilarding, endi tugmasiz yuraverasan.
- Yo‘q, tugmani topaman, — debdi u.

Ra‘no shunday deb paltosini kiyib ko‘chaga chiqibdi-yu, uzoq vaqt yo‘q bo‘lib ketibdi. Undan xavotirlanib oyisi ham Ra‘noni izlab ko‘chaga chiqibdi. Qarasa, qizil tugmachani axtarib, yig‘lab yurganmish. Oyisi ham birgalashib izlabdi. Lekin baribir tugmacha topilmabdi. Ular qaytib uyga kirishibdi. Oyisi paltosiga boshqa tugma qadab beribdi. Yangi tugma ham qizil ekan-u, avvalgi yo‘qolgan tugmaga o‘xshagan chiroyli emas ekan. Lekin buni Ra‘no oyisiga aytmbdi. Indamay yuraveribdi. U o‘sha kundan boshlab tugmalarini o‘ynamaydigan bo‘libdi.

Aziz Abdurazzoq

BO‘RINING TABIB BO‘LGANI HAQIDA ERTAK

I

Nelar bo‘lmas jahonda...
 Yer go‘yo ters aylandi. —
 Tabiblikka o‘rmonda
 Yirtqich Bo‘ri saylandi.
 Ana qarang, tish qayrab
 O‘tirar shum shifokor.
 Yo‘lga boqar jovdirab,
 Tezroq kelsa deb bemor.

II

Keldi ingrab Quyonvoy,
 Shalvirab ding qulog‘i.
 Qadamlari poyma-poy,
 (Balki tortmas oyog‘i)
 — Qani, o‘tir,
 Xix-xix-xi...
 Darding nima,
 Ayt, inim?
 — Bo‘ri og‘a,

Uch kunki,
 Tinmay og‘rir biqinim.
 Bo‘ri yaqin o‘tirdi,
 Dono bilib o‘zini.
 Biqin qolib,
 Tekshirdi —
 Quyoning chap ko‘zini.
 — Kechikamiz. dingquloq,
 Ko‘rmasak tez chora gar.
 Oshqozoning sal chatoq,
 Buni tumov deydirar.
 Biz tabiblar bu dardni
 Juda yaxshi bilamiz.
 Dadilroq bo‘l,
 Sen mardni
 Muolaja qilamiz.
 Qani, rozi bo‘l shartta,
 Keyin rahmat aytasan.
 Omon qolsang, albatta, —
 Uyga tirik qaytasan.
 Dikkaytirib dumini,
 Qochib qoldi tez Quyon.

Bechoraning biqini
Og'rimas shundan buyon.

III

Keyin og'rib tomog'i,
Keldi yig'lab yosh To'ng'iz.
Ushlab ko'rib oyog'in,
Bo'ri dedi:
— Voh, esiz!..
Tomoq og'riq boshlanar
O'ng oyog'ing poyidan.
Kesib olsak soz bo'lar,
Go'shtlikkina joyidan.
Bo'ri tayyor, deb o'lja,
Yutar ekan so'lagin:
Fursat poylab To'ng'izcha
Rostlab qoldi juftagin.

IV

Keldi Tulki ming'irlab,
Tikan kirib qo'liga.
(Bo'ri der: "Bu boshqa gap!"
Uchrab go'shtning mo'liga.)
— Tabib, uzr,
Keldim kech...
Juda chatoq ishlarim...
— Dard ko'rmasan endi hech,
Omon bo'lsa tishlarim!
— Kecha tunda uzoqdan,
Tinglab shirin ovozini.
Tutib keldim qishloqdan
Tul kampirning xo'rozin.
Yo'lda ablah bo'ztikan,
Yaraladi qo'limni.
Azobi ja zo'r ekan
Bukchaytirdi belimni.
"Shoshmay turgin, muttaham!"
Der Bo'rivoy ichida.

— Ko'z tegmasin,
O'zing ham, —
Yetilibsan-da juda.
Mana senga xap dori,
Beri kel-chi, jon ini,
Shunday qilib,
Bir chetda
Bo'ri yedi Tulkini.
So'ngra ochib bemorni —
Qabul qilish daftarin,
Silab-siypab qornini,
Yozdi ushbu gaplarni:
"Qo'lin tirnab bo'ztikan,
Tulki keldi notetik.
Ahvoli og'ir ekan,
Chora topmadik...
Yedik!"

V

Kechga yaqin kekkayib,
Kirib keldi qari sher.
Bo'ri yetti bukchayib,
"Xush kelibsiz, shoxim!", der.
Sher harsillab o'zini,
O'rindiqqa tashladi.
Chaqchaytirib ko'zini,
Darg'azab so'z boshladi.
— Yuray desang sog', quvnoq,
Yaxshilab ko'r, akasi.
Bir haftaki, sal yo'qroq
Ishtahamning mazasi.
Bo'ri aytar: — Oh, shohim,
Tortmang buncha dard g'amin.
Buning chorasi oson,
Sizga kerak vitamin.
Tabibdir yetti pushtim,
Shunday uqtirar ular:
"Semiz hayvonning go'shti
Vitaminga boy bo'lar".

Ta'zim qilib bemorga,
 U tugatgach gapini,
 Boqib semiz tabibga
 Sher yaladi labini:
 — Yaxshi emas, har holda,
 Men vitamin izlasam.
 Shoh bo'lsam-u, shoqolday —
 O'rmonda g'iz-g'izlasam.
 Qo'ldan bersam imkonni,
 So'ng yurarman armonda. —
 Senday semiz hayvonni
 Topish mushkul o'rmonda.
 Qadrlayman men har choq
 Tabiblarning so'zini...
 Totmoqchiman hoziroq
 Vitaminning tuzini.
 Zo'ravonga jazo shu,
 Qasoskordir bu zamin.
 Avval bo'ri edi u,
 Endi bo'ldi vitamin.
 Lekin gavjum o'rmonda
 Tabib kerakdir albat.
 Davra qurdi hayvonlar,
 Qilmoq uchun maslahat.
 Barchaga teng biyronni
 Tanlaylik deb bu ishga,
 Yubordilar Quyonni
 Tabiblikka o'qishga.

Anvar Obidjon

QISH BOBO MEHMONDA

Qish bobo Bahoroyning
 Eshitibdi ta'rifin.
 Maysa, gullar haqida
 Tinglabdi qo'yib ishin.

Bahoroy juda go'zal,
 Hamma fasldan o'zar.
 Gul-chechakdan libosi.
 Unda sayraydi qushlar,
 Shamollar ko'ngil xushlar.
 Qish bobo bo'lib hayron,
 Ishonmay deydi: "Yolg'on.
 Ishonmasang, borib ko'r,
 Fasli bahor juda zo'r.
 Mayli, do'stlarim, mayli,
 Borib ko'rsam, ko'rarman
 Gullarini qaerdan
 Olganini so'rarman.
 Sovg'a-salomlar bilan
 Yurtga kirib keldi qish,
 Bir hafta mehmon bo'ldi.
 Chatoq bo'ldi hamma ish,
 Gul, daraxtni Qish bobo
 Suyib quchdi chin dildan
 U tekkan gul so'lishin
 Payqab qoldi-ku birdan,
 Qarasa yon-veriga
 Xomush dala-yu bog'lar.
 So'libdi hamma narsa,
 Ma'yus boqardi tog'lar.
 Qish bobo bu ishidan
 Bo'libdi juda xafa.
 Rahmi kelib gullarga
 Yig'labdi hafta-hafta.
 Shundan beri Qish bobo
 Bahorga qo'yib ixlos,
 Rang-u shakl tanlabdi
 Qorparchada gulga mos,
 Odamlar Bahoroyni
 Sog'inmasinlar butkul,
 Deya Bahornikiday
 Oynalarga solar gul.

Mavluda Ibrohimova

SHAMOL HAM YIG'LAYDIMI?

- Shamol ham yig'laydimi? Dengiz-u daryolarda
— Zorlanib yig'laydi. To'fonlar turib ketsa.
Yangi oynak toshdan sinsa,
Jigar-bag'rin tig'laydi. — Bulutlar-chi, bulutlar?
— Qushlar ham yig'laydimi? — Yig'laydi zimdan boqib.
Albatta chekar nola, Suvsiz dasht, sahrolarga
O'q-dori, dudga to'lsa, To'satdan qolsa cho'kib.
Ona yer, moviy dala. — Bobo, so'nggi savolim:
— Baliqlar yig'laydimi? Yig'larmi asalari?
— Moviy ko'llar qurib ketsa, — Ha, yig'laydi qurib qolsa,
Adirdagi gulning bari.

Bayon as-Safudiy

ONA QARG'A

Qish keldi. Kunlar sovidi. Atrof oppoq qorga burkandi. Uylarning mo'rilaridan pag'a-pag'a bulutlar chiqq boshladi. Daraxtlarning so'nggi yaproqlari qishning ilk izg'iridayoq to'kildi...

O'zbekistonga qarg'alar uchib keldi.

Ko'chada bolalar chovgan o'ynashardi. Ko'chaning narigi betida turgan Rustam sopqondan qushlarga tosh otardi.

Shu pavt daraxt shoxiga ikki qora qarg'a kelib qo'ndi. Rustam birini mo'ljalga olib otdi. Tosh qarg'aning ko'ziga tegdi. Qarg'a bir silkindi-yu, qanotlarini patillatganicha shoxdan shoxga urilib yerga tushdi. Ikkinchisi pir etib uchib ketdi. Yaralangan qarg'a uchmoqchi bo'lib qanotlarini silkitdi, lekin uchishga qurbi yetmadi, qanotlari yoyilganicha qoldi.

Rustam "ovchi" yugurib kelib qarg'ani ko'tardi-da: "Bolalar, men qarg'a otdim", — deb baqirdi. Ular esa: "E-e, harom qarg'ani nima qilasan? Uni eb bo'lmaydi. Tashlab yubor", deyishdi. Rustam qarg'ani uloqtirib, chovgan o'ynagani jo'nadi.

Qosh qorayganda xazonlar ustida qanotlari yoyilgan o'sha qarg'a o'lib yotardi. Oyog'iga loy sachragan, patlari to'zg'igan, tumshug'ida don qotib qolgan edi. Uning chap ko'zi qon-

talash, ikkinchisi chala yumuq, tepasida bir qarg'a qag'illab, uchib-qo'nardi. Bu o'lgan qarg'aning onasi edi.

Ona qarg'a uchun og'ir kunlar boshlandi. U qayoqlargadir yo'qolib qolar, ammo yana baribir shu yerga qaytardi.

Bahor keldi. Havo isidi. Qarg'alar esa yana sovuq yurtlarga uchib ketishdi.

Ona qarg'a ham boshqa qarg'alar kabi uchib ketmoqchi bo'lardi, endi uchishga shaylanganida ko'zi o'lib yotgan bolasiga tushardi va uchib ketolmasdi. Ona qarg'a bir necha bor uchmoqchi bo'ldi, lekin ucholmadi. U don ham yemay, suv ham ichmay ozib qoldi.

...Bir kuni ona qarg'a o'z bolasi oldiga asta qo'ndi. Boshini egganicha uzoq turdi. Keyin bir-ikki qadam bosib, shilq etib yiqildi va qaytib turmadi.

Durbek Mahmudov

TOPISHMOQLAR

Bor shunday ulkan chiroq,
Uzoq-uzoqda biroq.
Kechalarni yoritar,
Nuri jahonga yetar.
Simdan quvvat olmaydi,
Yurmasdan turolmaydi.
U nima top Gulchiroy?
— Topdim, to'lin bo'lgan oy.
Hamмамizga chin o'rtoq,
Lekin odammas, biroq.
Tarixlardan so'zlaydi,
Yaxshilikni ko'zlaydi.
Donolarning naqlidan,
Ulug'larning aqlidan.
So'zlab onging oshirar,
Kuch-g'ayrating toshirar.
U nima top, Mohitob?
— Topdim, dadajon...

Na boshi bor, na tani,
Na joni, na vatani,
Eshitsa biror ovoz,
Javob qaytarar showvoz.

Qish qahraton tunlari
Uy isitar poyasi.
Yoz — saraton kunlari
Bahra berar soyasi.

Qizil yuzli bir pari
Yer tagida zindonda.
Mayda o'rim boshlari
Ochiq, yalang maydonda.

Muhammadjon Niyozmurodov

Ibrohim Donish

O'zi ekin, gul taqar,
Pishgach, yesang, xo'p yoqar.
Kun doim unga boqar,
U doim kunga boqar.

Suv betin jimirlatar,
Daraxt bargin shivirlatar.

Yuzni silar, dilga yoqar.
Ko'rinmasdan darcha qoqar.

Dur shodalar uzilgandek
Ko'kdan tushar patirlab.
Yer yuzida turar andek,
Suv bo'lguncha yaltirab.

Ziyod Komilov

HAYVONOT BOG'İ

Ayiq

"Tur, maktabga!" — deydi oyim
Quyosh chiqishi bilan.
Maza-maza ayiqniki:
Uxlaydi qishi bilan.

Tulki

Dumim durkun o'sadi deb
Tulki kekkayib ketdi.
Darhaqiqat, o'sib-o'sib,
Dumi boshiga yetdi.

Kenguru

Kenguru bolasining
Manglayi tirtiq ekan.
Tushib qopti onasining
"Cho'ntagi" yirtiq ekan.

Karkidon

Qayrilma shox, bug'u shox,
Lekin bari — o'rnida.
Bir karkidon g'alati:
Uning shoxi burnida.

Olashaqshaq

Barg ostida berkinib,
Kim u "shaq-shaq" etgan?
Boqsam yong'oq o'g'risi —
Olashaqshaq ekan.

Xo'roz

Qushlar sayrar, odam yayrab,
Yurak-bag'ri ezilar.
Nega endi men sayrasam,
"Qichqiradi" deydilar.

Jirafa

Naynov, chipor jirafa
Bolalarning ermagi.
Salom desam egilishga
Bo'yni yor bermadi.

Toshbaqa

Endi uch yuzga kirdim,
Hali men yoshman.
Shoshmayman, tashvishim yo'q,
Chunki men toshman.

To'ti bilan maymun

— Men ermakka odamning
Gapini o'g'irayman.
— Men qilig'in takrorlab,
Xatosin to'g'irayman.

Asqad Muxtor

JIMJILOQ

(*Ertak*)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kampir bilan cholning bo'yi jimjiloqday keladigan o'g'li bo'lgan ekan. Oti ham Jimjiloq ekan. Nima bo'пти-yu bir kuni bu bolani bo'ri yutib yuboribdi. Yo'q, undan ham oldin uni tuya eb qo'ygan ekan. Voqea bunday bo'libdi: Jimjiloq otquloq bargining soyasida uxlab yotgan ekan. O'sha yerda o'tlab yurgan tuya bolani bargga qo'shib, yamlab yuboribdi. "Tuya yutganini bilmaydi, kavshaganini biladi" degan masal o'shandan qolgan ekan.

Jimjiloq tuyaning qornida yotib, bor ovozi bilan chinqirib yordam so'rabdi. Chol bilan kampir bu ovozni eshitib qolib, tuyani so'yishibdida, qornidan chiqarib olishibdi.

Bir kuni yelib-yo'rtib kelayotgan och bo'ri Jimjiloqni uchratib qopti.

— Zig'irtday bo'lib olib buncha likillaysan, kimsan o'zi? Ikki yamlab bir yutaymi? — debdi bo'ri.

— Yo'q, menga tegma, — debdi Jimjiloq, — o'zingga qiyin bo'ladi, it qilib qo'yaman seni.

— Gaping buncha betayin, bo'rining it bo'lganini kim aytdi senga o'zi? Mana shu gaping uchun seni yeyman, — debdi-da, bo'ri bolani yutib yuboribdi. Jimjiloq bo'rining chap ichagiga ham yuq bo'lmabdi. Shu-shu bo'ri bo'ri bo'lganiga pushaymon bo'la boshlabdi. Qorni ochib qo'ylarga yaqinlashishi bilanoq, Jimjiloq bo'ri qornida turib, bor ovozi bilan "Ey cho'pon, uxlama! Men o'g'ri bo'riman, qo'ylaringni qiyratgani kelyapman!" — deb jar solar ekan.

Holdan toygan bo'ri yerga ag'anabdi, o'zining qorin-biqinini jahl bilan uqalay boshlabdi. Jimjiloqqa nima. Qaytanga undan battar avjiga chiqarmish:

— Ey qo'ychivonlar, chopinglar, bu tomonga, meni sava-langlar!

Cho'ponlar uning oldida hozir-u nozir bo'lishibdi. Bo'rining esa dumini qisib qochib qolishdan boshqa iloji qolmabdi. Hamma hayronmish. Bu qanday sir bo'ldi o'zi? Qochib ketayotgan bo'ri hadeb: "Meni quvib etinglar" deb baqirarmish. Bo'ri bir amallab qutilishga qutilibdi-yu, qornini hech narsa bilan to'ydira olmabdi.

Shunday qilib, bo'ri qayerga bormasin, Jimjiloq hammani ogoh qilaveribdi. Bo'rining toqati toq bo'libdi. Ozib ketganidan eti borib ustixoniga yopishibdi. "Endi nima qilsam ekan, o'z boshimga falokatni sotib oldim-ku, qayga bormay, endi menga tinchlik yo'q", — deb yig'lamoqdan beri bo'libdi.

Jimjiloq bo'lsa, sekingina uning qornidan: "Toshmatga boq, qo'ylari semiz! Boymatga boq, itlari qari! Ermatga boq, qo'ychivonlari uyquchi!" deb ovoz chiqarib qo'yarmish. Bo'ri oxiri hiqillab yig'lab: "Gaplaringga kirib bo'pman, undan ko'ra biron odamning oldiga borib, it bo'lib olganim yaxshi", debdi. Shunday qilib, bo'ri it bo'lib qolgan ekan.

Chingiz Aytmatov

QASHQIR BILAN ECHKI

(Ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qashqir bo'lgan ekan. Bir kuni qorni och qashqir yo'lda kelayotsa, bir echkini ko'rib qolibdi. Qashqir:

— Echki, men seni yeyman, — debdi, Echki:

— Meni yesang, tumshug'ingni chayib ye, — debdi. Qashqir hovuzga boribdi:

— Ey hovuz, bergin suv, chayay tumshuq, yeyay echki, — debdi.

Hovuz:

— Sen tovoq olib kel, keyin tovoqqa suv olib chay. Mendan odamlar suv ichadi, — debdi. Qashqir kulolning oldiga boribdi:

— Ey kulol, bergin tovoq, boray hovuz, chayay tumshuq, semiz uloqni men yeyay, — debdi.

Shunda kulol:

— Sen ustadan tesha olib kel, soz tuproq olib kel, men tovoq yasab beraman, — debdi.

Qashqir ustaga boribdi:

— Ey usta, qilgin tesha, teshani menga ber, qaziy tuproq, uni kulolga beray, yasin tovoq, boray hovuz, olay suv, chayay tumshuq, semiz uloqni men yeyay, — debdi. Usta tesha beribdi. Teshani olib tuproq qazibdi, soz tuproqni kulolga olib boribdi.

Kulol tovoq yasab beribdi. Tovoqni olib hovuzga boribdi, suv olib tumshuq chayibdi. Keyin endi yeyman deb kelsa, echki allaqachon ketib qolgan ekan. Qashqirga alam qilib uvillay boshlabdi:

Oq echkini yemagan ahmoq boshim u-u-u,
Qari echkini yemagan qari boshim u-u-u,
Sariq echkini yemagan sodda boshim u-u-u,
Ko'k echkini yemagan ko'k miya boshim u-u-u.

Qashqir shudgordan ketib borayotganda bir quyruqni ko'ribdi.

Shudgorda yotgan quyruq, qotgan quyruq, na quyruq,
Bir balosi bo'lmasa, nechun yotar bu quyruq, —

deb, quyruqda qopqon borligini bilib, yemay ketib qolgan ekan.

ONA LAYLAK QISSASI

Qadim zamonda daryoning narigi yog'ida bitta ona laylak bor ekan. Shu laylak to'rttagina tuxum qo'yibdi. Keyin ularni issiq bag'riga bosib yotgan ekan. Oy-kuni yaqinlashib, to'rttagina jo'ja ochib chiqibdi. Ikkitasi qiz, ikkitasi o'g'il ekan. Kunlar isib ketgach, bolalarini daryoning bu qirg'og'iga olib o'tmoqchi bo'libdi. Keyin ular bilan savol-javob qilibdi. Birinchi qizini chaqirib:

"Ayt-chi, seni daryodan o'tkazib qo'ysam, ertaga katta bo'lsang, nima qilasan?" deb so'rabdi. "Katta bo'lsam, Sizni jonimdan yaxshi ko'raman, qarisingiz har kuni cho'miltiraman, kasal bo'lsangiz, boqaman", — debdi. Ona laylak: "Bir mavsum shoshmay tur", — debdi. Keyin birinchi o'g'lidan so'rabdi: U: "Katta bo'lsam, Sizni jonimdan ham yaxshi ko'raman, nima desangiz aytganingizni qilaman", — deb javob beribdi. "Sen ham bir mavsum shoshmay turasan", — debdi laylak. Navbat ikkinchi qiziga keladi. "Xudo xoxlasa, katta bo'lsak, avval munosibrog'i topilsa, turmushga chiqaman. Vaqtini topsam, bola-chaqam, erim bilan kelib, sizdan xabar olib ketaman", — debdi. Ona laylak uni yelkasiga mindirib daryoning bu qirg'og'iga olib o'tibdi. Qaytib borib kenja o'g'lidan so'rabdi. O'g'li: "Katta bo'lsam, nasib etsa, xotin olaman,

bola-chaqa qilaman, opa-akalarimdan xabar olib turaman, hammamiz birgalashib Sizning xizmingizda bo'lamiz", — debdi. Bu o'g'lining javobi ham ma'qul kelib, keyin uni ham daryodan olib o'tibdi...

— Xo'sh, ayting-chi, nimaga ikkita laylak bolasi daryoning naryog'ida qolib ketdi.

Ne'mat Aminovdan

CHINOR VA MAYSALAR

Chinor tuni bilan bezovtalanib chiqdi. Uning uyqusi tez-tez buzilib turdi. Ba'zan "oh" urib yuborar, ba'zan esa yosh boladay qiqirlab kulardi. Chinor har alahlaganda uning atrofida o'sgan maysalar cho'chib ketishardi.

— Voy-dod, chaqin tushdi. Yonyapman! — qichqirib yubordi tongotar payt va yomg'iru chaqmoqlar tushiga kirganini anglab g'udrana-g'udrana yana mudray boshladi.

Tong otdi. Ufqda ko'tarilgan Quyosh nurlari bilan chinorni quchoqlab oldi:

— Omonmisiz, go'dagim?

Chinor Quyoshning hayotbaxsh nurlari og'ushida yasharib ketganday bo'ldi.

— Go'dakmish, — hiringlashdi maysalar Chinorni mazax qilib. — Unda biz kimmiz?

— Sizlar ham go'daksizlar, — dedi Quyosh bobo nurlari bilan maysalarni chimchilab va ular tunda sotib olgan durgavharlar — shabnamlarni tortib oldi. — Kechagina tug'ildinglar-u, darrov taqinchoqlarga o'ranib olibsiz. Oliftalar...

— Besh kunlik dunyoda taqqanimiz qoladi, — shovqin solishdi maysalar.

— Qo'ying, bobo, ularning gapiga e'tibor bermang. — Chinor tuni bilan bezovtalanib chiqqanidan nolidi. — Nega bunday bo'ldi, hayronman. Ilgari tinch uxlardim.

— Iye, nahotki buning boisini anglamagan bo'lsang, axir bundan ming yil oldin xuddi shu kuni urug'ingni yorib, yer yuziga chiqqanding-ku! — dedi Quyosh bobo Chinorning yaproqlarini silab.

— Buni qarang-a, ming yoshga to'ldimmi hali?! — Chinor maysalarga qaradi. — Eshitdinglarmi, ming yoshga kiribman.

— Ming yosh! Bu nima degani? — maysalar hayron bo‘lishdi. Ular bahor va kuz oralig‘ida bir necha oy umr kechira olganliklaridan ming yosh, ming yil nimaligini aqlariga sig‘dirolmasdilar. — Ming yosh ming kunmi?

— Ming yosh degani, bolalarim, — dedi Quyosh bobo, — bu o‘rtancha o‘g‘lim Zaminbek girdimdan ming marta aylanib chiqishidir.

— Zaminbek kim? Nega u sizning atrofingizda aylanadi? — savollar yog‘dirishdi maysalar.

Quyosh bobo qarasa, maysalarning savoli ko‘pga o‘xshaydi. Shuning uchun:

— Hoy Chinor, o‘zing tushuntirib ber maysalarga, — deb yo‘lida davom etdi.

Olloyor Begaliev

BIRINCHI IYUN

— Bilag‘on deb atashar
Do‘stlaring seni, Suyun.
Top-chi, qanday kun o‘zi
Deylik birinchi iyun?
— O‘sha kuni ta‘tilga
Chiqishadi bolalar.
Farzandlarin hordiqqa
Jo‘natadi xolalar.
— Aytganlaring-ku, to‘g‘ri,
Bilib ol yana shuni,
Birinchi iyun, jo‘ra,
Yozning tug‘ilgan kuni.

Abdurahmon Akbar

TUT PISHIG‘I YAQIN EDI

Onamning xayoli yana parishon, yana shu voqea tushiga kiribdi. Har gal shu mash‘um voqeani tush ko‘rsa, onam juda g‘amgin, o‘ychan bo‘lib qolardilar. Bunga ancha yillar bo‘lgan. Onamning hayotida qanchadan-qancha voqealar sodir bo‘lib, ko‘pi xotirasidan ko‘tarilib ketgan. Ammo bu voqea xuddi kuni kecha bo‘lib o‘tgandek.

Ochlikdan madori qurigan onam sekingina ayvon ustuniga suyanib, bo'shshib o'tirdi. Boshi aylandi. Uning hovuchida to'rt-besh dona endi pisha boshlagan oq tut bor edi. Hamma peshin bo'ldi deguncha tutzorga yo'l olardi. Onam esa endi g'o'ra bo'lgan tutni hovuchiga to'ldirib, uyga oshiqardi. Uy ichida go'dakning hazin ingrashi, buvimning mayin allasi eshitilardi. Onam siynasini go'dakka tutardi. Ammo unda hech narsa yo'q edi. Kundan-kunga mazasi qochar, tut ham pisha qolmadi. To'yib yerdik. "Otamlarnikiga borsammikin, har arpalari sariq qiltiq bo'lib qolgan-ku", o'yilardi onam.

Onamning xayoliga otasining pastqamgina chaylasi, yonidagi bir parcha yerga ekilgan arpa keldi.

— Bolam bechoraga bir parcha non bo'lsa edi...

— Qo'y, bolam, ko'p qiynalaverma. Kuni bo'lsa hech nima qilmaydi. Yurt notinch, o'g'lim eson-omon qaytsa, bu kunlar esingdan chiqib ketadi, ko'rmaganday bo'lib ketasan, bolam.

Onam buvimning gaplarini tinglar ekan, ko'z yoshlarini artidi. Katta umid bilan qizchani ko'targancha otasinikiga yo'l oldi. Yo'lning yarmiga kelganda ham ochlikdan, ham issiqdan go'dak bezovtalana boshladi. Onam qo'rqib ketdi: "Ko'zingni och, jon bolam, qizim, meni qo'rqitma... Qara, senga bobong non olib kelyapti..." Onam qadamini tezlatdi. Go'dak onamning gaplarini tushunganday ko'zlarini majolsizgina bir-ikki pirpiratdi-da, yana yumdi.

Shu alpozda onam chaylaga yetib keldi.

— Voy bolam-e, ko'karib ketibsan-ku, qo'rqdingmi, qani bolani menga ber, — chayladan yugurib chiqqan buvim kuyinib gapirarkan, onamning qo'lidan bolani oldi. — Yig'lama, yig'ining xosiyati bo'lmaydi. Borib savatning tagidagi ovqatni olib chiq, arpa-go'ja qilgan edim.

...Go'dak bir-ikki tamshandi, biroq og'ziga quyilgan ovqat bo'yniga oqib tushdi. Uning ko'zidagi nur tobora so'nib borardi. Onam esa qo'rquvdan dag'-dag' titragancha go'dakdan nigohini uzmad.

...Urush tugadi, otam ham sog'-salomat qaytib keldi. Biroq onam hanuzgacha tushlarida o'sha qiziga bir burda non izlab yurarmish.

Onamning o'ychan yuzlariga tikilib, xayol suraman. Uning tushiga kirsam-u, bir savat non ko'tarib oldilariga peshvoz chiqsam.

Oynisa Pardaeva

BARKASH NON

To'lqinjonning sho'xligi,
Haddidan oshib ketdi.
Anhorning to'lqiniday,
Pishqirib toshib ketdi.
O'tirib choy ichishga
O'yindan qo'li tegmas.
Ota-ona so'zini
Nazar-pisanda qilmas.

O'ynab yurib non yeydi,
Yerga to'kib uvog'in.
Qandni choy bilan ichmay,
G'ajiydi qars-qars tag'in.
Tish bilan qand urishib,
Og'zidan chaqmoq chaqar.
Yalinib chaqma desang,
Senga xo'mrayib boqar.

Bir kun To'lqin ko'chada
O'ynar edi kavshab non.
Yeb tugatmay parchasin
Irg'itdi kesaksimon.
Non burda yerga tushib
Qorishdi chang-tuproqqa.
O'tkinchi bosib yanchar,
O'tsa u yoq-bu yoqqa.

Shunda bir bola dedi,
Kuyib-pishib, achinib:
— To'lqin nima qilganing
Nonni kesakday otib?..
To'lqin aytar: — Ne bo'pti
Yerga tushsa parcha non?
Yeyishga topiladi,
Dadamlar bo'lsa omon.

Demasdanoq bolalar
Tanqid qildi shu payt:
— Dadang axir, o'rtoqjon,

Tekin topmas o'zing ayt!
Ter to'kib mehnat qilar,
Undan so'ng olar maosh.
Agar mehnat qilmasa,
Qaydan olar nonu osh?!

Quddus Muhammadiy

AHMOQ SICHQONCHA HAQIDA ERTAK

Ona sichqon alla aytdi:
— Ko'rar ko'zim, jon qo'zim,
Orom olgin, senga jonu
Don beraman yulduzim.

— Ovozingiz pastdir oyi,
Chiyillamang, siz qancha.
Undan ko'ra bir enaga
Toping, — deydi sichqoncha.

Ona sichqon yolvordi
Borib o'rdak xolaga:
— Uyga yuring, bir iltimos,
Qarab turing bolamga.

O'rdak xolam alla aytdi:
— Oltin bo'lsin suv olsang,
Yomg'ir tinsa bog'dan, g'a-g'a,
Terib beray chuvalchang.

Uyqusirab sichqoncha ham
G'ashlik qilar shu palla:
— Qo'pol ekan ovozingiz,
Menga yoqmas bu alla.

Ona sichqon yalinadi:
— Menga qara qurbaqa,
O'g'ilchamni tebratib tur,
Qani, oshna yur, baqa.

— Qo'y, yig'lama bolakay,
Alla aytar qurbaqa.
— Orom olgin, evaziga
Chivin beray, vaq-vaqa.

Uyqusirab sichqon yana
G'ashlik qilar shu palla:
— Qur-qur ekan ashulang ham,
Menga yoqmas bu alla.

Ona sichqon to'riq otga:
— Amma, — deydi yolvorib, —
Qarab turing, farzandimga,
Uni uyga oborib.

Alla aytar kishnab turib:
— Meni qo'yding, g'avg'oga.
Uxlab tursang bir to'rvada
Yem beraman sovg'aga.

Uyqusirab, g'ingshib yana
Janjallashar shu palla:
— O'ta shang'i ekansiz,
Menga yoqmas bu alla.

— Cho'chqa momo, iltimosim,
Bir kunimga yarab tur.
Bolam sho'xroq, alla aytib,
Ko'z-quloq bo'l, qarab tur.

Alla aytar hur-hur qilib:
— Et qo'shilsin etingga.
Jonim, agar tezroq yotsang,
Bir juft sabzi tekinga.

Ona sichqon chopib bordi
Bu gal oqshom tovuqqa.
— O'g'lim qaysar, alla aytib,
Gap uqtiring sovuqqa.

Tovuq alla aytibdi,
Shoshilmasdan quv-quvlab:

— Kir, qanotim ostiga
Qaysar bo'lma, uqqin gap.

Ona sichqon zir yugurar
Tongda cho'rtan baliqqa:
— Bolam qaysar, uxlatib,
So'ngra tushing ariqqa.

Baliq og'zin ochib chaqqon,
Quloqlarin keng yoyib.
Alla aytar ixlos bilan
Eshitilmas ovozi.

Yana ahmoq sichqoncha der,
Dod-voy solib shu palla:
— Ovozing hech chiqmas ekan,
Menga yoqmas bu alla.

Ona sichqon sarson bo'lib,
Mushukka der: — Yursangiz,
Kenjam o'jar zumrasha
Alla aytib tursangiz.

Mushuk alla aytar quvnab:
— Orom olgin yulduzim,
Karavotga bazo'r chiqib,
Miyov-miyov, yot, qo'zim.

Laqma sichqon tushida ham
Ishonib der shu palla:
— Ovozing ko'p shirin ekan,
Menga yoqar bu alla.

Ona sichqon uyga qaytsa,
Yo'q edi o'z bolasi.
Shundan buyon topolmayin,
Axtarar ko'z qorasin.

Samuil Marshak

FASLLAR TIL TOPISHDI

Davra qurib qolishdi
Kuz, qish, bahor bilan yoz.
Qish nomidan suhbatni
Boshladi sovuq ayoz:

— Oppoq-oppoq qorlarim
Suv bo'lar, hayot bo'lar,
Dehqon boboning shundan
Dalasi obod bo'lar.

—Chiranmagin-da, qishvoy! —
Bahor mayin jilmaydi, —
Mening gulgun faslimda
Dov-daraxtlar gullaydi.

Ko'p maqtanma, ey bahor! —
Bildirdi-ku e'tiroz,
Olam islari anqib,
Olov ko'ylak issiq yoz.

Yam-yashil bog'larimda
Bulbullar sho'x sayraydi.
Poyoni yo'q yaylovda
Qo'y-qo'zilar yayraydi.

Maqtanib imkonicha,
Yoz tugatdi so'zini.
Ana endi oltin kuz
Maqtab ketdi o'zini:

— Mening oltin kuzimda
Mevalar g'arq pishadi.
Shoxlarin ko'tarolmay,
Yerga tap-tap tushadi.

Fasllar kelisholmay,
Janjallashib ketishdi.

Oxir iloj topolmay,
Yil boboga kelishdi.

Yil bobomiz donishmand,
Fasllarga soʻzlab der:
— Doʻst boʻling, bolalarim,
Ish qilinglar oʻylab, — der,

— Ahil yashang doimo,
Olam chamandek kulsin,
Har kim oʻz navbatida.
Izzati bilan kelsin.

Til topishdi fasllar,
Bilmas janjalu gʻamni.
Endi navbatma-navbat
Yashnatadi olamni.

Fotima Ermonova

ALDARKOʻSA BILAN SAVDOGAR

Savdogar sheriklariga maqtanib kelar ekan dedi:

— Aldarkoʻsa hammani aldasa ham, meni alday olmaydi.

Aldarkoʻsa ahmoq odamlarnigina aldaydi.

Shu vaqt roʻparasidan Aldarkoʻsa chiqib qolibdi.

Savdogar soʻzini tasdiqlamoqchi boʻlib:

— Hoy, Aldarkoʻsa, qani, aldar boʻlsang, meni bir aldab,
kuchingni koʻrsat-chi, — deb qichqiribdi.

Aldarkoʻsa darrov:

— Eh, attang, aldar xaltam uyda qoluvdi-da. Otingizni
bering, darrov olib kelaman, oʻshanda koʻrasiz, alday olamanmi,
yoʻqmi? — dedi.

Savdogar tantilik qilib:

— Xoʻp, olib kel! — debdi.

Aldarkoʻsa savdogarning otini minib badar ketibdi, sheriklari
uni rosa masxara qilishibdi.

— Zap boplab aldadi-da! — debdi savdogar.

YULDUZLAR QANI, BUVIJON?

(Hikoya)

Osmonga birov doka tutib qo'yganday xira ko'rinadi-ya? Buvijonim doka anqoning urug'i bo'lib ketgan, deydilar-u, shunchani qaerdan olishganiykin? Shuni o'ylab, supachaga solingan o'ringa yotaman. Buvimning shundoq yonlariga. Ular ertak aytadilar, men esa osmonga tikilganimcha eshitaman. Birdan oymoma yurayotganga o'xshadi. Akam aytganda ishonmagan edim. Kecha o'zim sinab ko'rdim: nima bo'larkin deb tashqi hovlimizga chiqib berkinib oldim. Oymoma birpasda meni topib olsa-ya. Keyin tez ko'chaga chiqdim. O'rtog'im-nikiga qarab chopa boshladim. Oymoma ham ketimdan chopaverdi. Shunda unga qarab dedim:

— Oymomajon, katta bo'lsam, semurg' qushga minib yoningga uchib boraman. Anu-chi, Tojivoyni olib bormayman. Tojivoy senga qarab tosh otgan. Unday qilma, axir oymoma opanglarga o'xshagan chiroyli-ku, desam, toshni unga yetkazmoqchiman, deb maqtangan. Senga tosh otib bo'ladimi, oymomajon, tabarruksan-ku!

Buvijonim hatto supachamiz ham tabarruk, deydilar. Buni buvam o'z qo'llari bilan qurib ketgan ekanlar. Samovarni vaqirlatib qo'yib, kechqurunlari rosa choy ichishar ekan. Keyin shu supachada uxlashar ekan. O'shanda osmon tip-tiniq bo'lar ekan. Yulduzlar osmonni to'ldirib, marjon bo'lib turisharkan. Dadamning unga havaslari kelganidan "Yulduzni olib bering", deb xarxasha qilarkanlar.

— Hozir yulduzingni topamiz, — derkanlar buvam. Keyin to'p-to'p bo'lib turgan yulduzlardan birini tanlamoqchi bo'lisharkan. Yulduzlar bir-biridan chiroyli, bir-biridan yorug' bo'lishganidan dadam tanlay-tanlay uxlab qolarkanlar.

Men ham yulduzlardan birini tanlamoqchi bo'lib osmonga tikilaman. Yulduzlar dadam havas qilganlaridek ko'p emas. Borlari ham ancha-muncha xira. Shunda buvimdan so'rayman:

— Charaqlagan yulduzlar qani, buvijon?

Ular chuqur xo'rsinib osmonga qaraydilar:

— Yulduzlar ko'p-u, ko'rinmaydi-da.

— Nega? — hayron bo'lib so'rayman men.

— Oldin havo-yu jahon toza edi. Hech kim ko'chalarni changitib supurmasdi. Xazonni bemavrid yoqish qayoqda-yu,

burningni achishtiradigan tutun qayoqda edi... Hozir unaqamas, bolam.

— Nega unaqamas, buvijon?

— Oldin andisha bor edi. Bir ish qilmoqchi bo'lsang, avvalo atrofdagilarni o'ylarding. Hozir-chi? Yuzingda ko'zing bormi, demay, bo'lar-bo'lmasni suvga ag'darishadi. Bitta daraxt ekdim deb, o'ntasini kesishadi. Qo'y, bolam, uxla.

Men ularning kuyinib gapirganlarini tushunganday bo'laman. Ko'chamizni supuradigan Bahri xola barglarni to'plab yoqqanlarini ko'rib, Nosir buva hassalarini do'qqillatganlaricha koyiganlarida to'g'ri qilgan ekanlarda!

Uyqum o'chib ketadi. Osmonga tikilaman. Uning yuzini to'sib turgan dokani olib tashlagim keladi. Birdan oymomani qidiraman. Topolmayman. Uni kimdir o'g'irlab qo'ygandek cho'chib ketaman.

— Buvijon, oymoma qani?

— Hademay ko'rinib qoladi. Uxlagin, bolam.

Uxlolmayman. Oymomadan xavotirlanaman. Borib-borib u ham yulduzlarga o'xshab xiralashib ketsa-ya? U ko'rina qolsa, yalinsam...

— Oymomajon, tez-tez ko'rinib tur! Yuzingni chang-to'zon pardasi qoplasa ham, uni yorib chiqaver. O'zim qo'shni amakidan, papiros chekmang, tutun oymomaning yuzini to'sib qo'yadi, deb iltimos qilaman. Ko'chani burqsitib supurayotganlarni ko'rsam, Nosir buvaga aytaman. Isi havoni buzadigan zavodga bo'lsa, o'qituvchimiz bilan boramiz... Ko'zim uyquga ketyapti... Sen tepamga kelsang, men shu yerdaman, deb qo'y... Oy... mo... ma... jon...

Yayra Sa'dullaeva

ORZULAR BIR

Bir yoqadan bosh chiqarib
Yo'qni ham bor etdik deb.
Ko'p mashaqqat oshib dovon,
Shu kunlarga yetdik deb —
Bobolar so'z ochganda,
Ra'no o'yga botadi:

— Nega shunday deyishadi,
 Balki bu soʻz xatodir.
 Qani oʻylang, bir koʻylakka
 Sigʻadimi koʻp odam?
 Buning siri nima ekan?
 Aytib berdilar dadam:
 — Gaplarimni, oppoq qizim,
 Magʻzin chaqsang, koʻp hikmat!
 Doʻstlikda hamma qudrat.
 Yolgʻiz otning changi chiqmas,
 Yolgʻizlikda yoʻq hech naf!
 Bu-har boshda, har xayolmas,
 Orzular bir, degan gap.
 Xalq puflasa boʻlar hatto
 Kuchli boʻronlar paydo.
 Qoʻllar qoʻllarga tutashganmi —
 Yoʻllarimiz purziyo!
 Bir yoqadan bosh chiqarib,
 Dovrugʻ taratdik bizlar.
 Olamni ham goʻzal qilib,
 Iqbol yaratdik bizlar!

Yoʻldosh Sulaymon

Yod olish uchun

QARGʻA

— Qargʻa, qargʻa!
 — Qogʻ, qogʻ, qogʻ.
 — Koʻngling nega
 Chogʻ, chogʻ, chogʻ.
 — Qor yogʻmoqda,
 Qor-qor-qor.
 Unga koʻpdan
 Edim zor.

Barot Isroil

LOLA VA MUSHUK

Men Lolaman, Lolaman,
 Ozoda qiz bolaman.
 Erta bilan turaman,
 Yuz-qoʻlimni yuvaman.
 Mushugim bor qoramosh,
 Oʻzi judayam yuvosh.
 Mendan oldin turadi,
 Yuz-qoʻlini yuvadi.

Shukur Saʼdulla

QISH BO'LSA

Qor yog'sin-u
Qish bo'lsin.
Menga o'yin...
Ish bo'lsin...
Meni kutar
Chang'i ham.
Uchsam ketar
Zangi ham.
Chiniqtirib
Tanamni,
Ishga soldim
Chanamni.
Qor yog'sin-u
Qish bo'lsin.
Ko'nglim doim
Xush bo'lsin.

Mahmud Yunus

MUSHUK

Mushugim deydi: — Miyov.
Sichqon bizning uyda yov.
Shuning uchun qo'ymayman,
Qancha yemay, to'ymayman.

Shukur Sa'dulla

QO'G'IRCHOG'IM

Qo'g'irchog'im Lolaxon,
Quvontirar bir zamon.
Joni bordir misoli,
Jilmayadi iboli.

Bo'yniga soldim munchoq,
Jajjigina qo'g'irchoq.
Uni quchib o'ynayman,
Men boqchadan kelgan choq.

A. Ro'zimuhamedov

O'RTOQJON

Qani jilmay,
Yuzing shirmoy.
Bo'lsin o'rtoqjon.
Kulgin ziyo,
Nurga dunyo
To'lsin o'rtoqjon.
Hamma odam,
Butun olam
Kulsin o'rtoqjon.

Qambar Ota

Tez aytishlar

Teshabop sop
Qopda serob. -b-p-s.

*

Qo'g'irchog'im-ovunchog'im
Ovunchog'im-qo'g'irchog'im. -q-ch-g'.

*

Tez ayting-u, tez ayting,
Tez aytganga bir patir. -t-z-r.

*

Eshik oldida buloq,
Buloqdan suv ichar uloq,
Uloqcham uzun quloq. -b-q-ch.

*

Chovli simdan, chovgum — misdan. -ch-s.

*

Qo'sh qo'lqop,
Qo'shovi ham
Bo'sh qo'lqop. -q-sh.

*

Oydin oyisidan oldin otlandi. -d-n.

*

Shu mushuk shum mushuk, shumshuk mushuk. -sh-k.

*

Saodat soatni soatsozga sozlatdi. -s-z.

*

Ko'k choynakka ko'k qopqoq,
Oq choynakka oq qopqoq. -ch-k-q.

Topishmoqlar

1. Birlashtirib kiyimni
Issiq tutadi sizni.
2. Elakdan un elandi,
Supra unga belandi.
3. Ariqdan oyna oldim.
4. O'zi oppoq, qor emas,
Non bo'lmaydi, un emas.

5. Uyga osdik bitta nok,
Yop-yorug' bo'ldi har yoq.
6. Yozda ham qishda
Bir xil kiyimda.
7. Akasi uy poylaydi,
Ukasi o'ynab yurar.
8. Dam oladi kunduzi,
Xonadonning yulduzi.
9. Kechasi xizmatda,
Kunduzi izzatda.
10. Katta oppoq dasturxon
Yer yuzini qoplagan.
11. Zar gilam, zargar gilam
Ko'taray desam og'ir gilam.
12. Qo'lsiz, oyoqsiz gul soladi.
13. Qanoti yo'q — uchadi,
Dala-bog'ni quchadi.
O'zi juda ham yumshoq,
Paxtadek rangi oq.
14. Yonsa tutun chiqmaydi,
Har yerga gard yuqmaydi.
Bas, gugurt chaqsang faqat,
Qaynar choy, pishar ovqat.
15. Bir idishda ikki taom.
Aralashib ketmaydi ham.
16. O'zi asaldek shirin,
Biroq uni eb bo'lmas.

Topishmoqlarning javoblari

1. Tugma. 2. Qor. 3. Muz. 4. Shakar. 5. Lampa. 6. Archa. 7. Qulf-kalit. 8. Lampochka. 9. Ko'rpa. 10. Qor. 11. Yer. 12. Sovuq, deraza qirovi. 13. Qor. 14. Gaz. 15. Tuxum. 16. Uyqu.

Maqollar

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

*

Bir yigitga yetmish hunar oz.

*

Oltin o'tda bilinar,
Odam — mehnatda.

*

Kattaga hurmatda bo'l,
Kichikka izzatda bo'l.

*

Etti o'lchab bir kes.

*

Eshik ochiq bo'lsa ham so'rab kir.

*

Yolg'on so'zni so'zlama,
So'ng boshingni qashlama.

*

Shirin-shirin so'zlasang,
Ilon inidan chiqar.
Achchiq-achchiq so'zlasang,
Musulmon dindan chiqar.

*

Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir.

*

Birliksiz kuch bo'lmas.

*

Hurmat qilsang,
Hurmat ko'rasan.

*

Non ham non, ushog'i ham non.

*

Bir yaxshi gap esdan chiqmas,
Bir yomon gap.

*

Uyalmay desang, yolg'on gapirma.

*

Shoshilmasang, tez yetarsan,
Shoshilgandan o'zib ketarsan.

UCHINCHI CHORAK

O'qib berish uchun

ODIL VAZIR

(Ertak)

Eron shohlaridan birining Abdulla ismli vaziri bor edi. U podshoh yoniga bir yilga qadar kelmay, boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lib qoldi. Shu muddat ichida xalq orasida notinchlik boshlangan edi.

Abdulla bir yildan keyin podshoh yoniga qaytib kelayotgan edi, yo'lda uni xalq to'xtatib, o'rtaga oldi. Xalq orasidan bir kishi yugurib kelib, vazirning soqolidan ushlab silkitdi. Xalq u kishining qo'lidan vazirni qutqazib oldi. Vazir Abdulla podshoh yoniga kelgach, undan xalqning tilagini berishni, o'ziga adab-sizlik qilgan kishiga jazo bermaslikni o'tindi.

Ertasi kun Abdullaning huzuriga bir do'konchi savdogar kirib keldi. Vazir undan nima ish bilan kelganini so'ragan edi, savdogar shunday deb javob berdi:

— Kecha sizning soqolingizni g'ijimlab ozor bergan kishining kim ekanini aytgani keldim. U mening qo'shnim, ismi Sodiqdir. Siz uni chaqirib jazo bering.

Abdulla savdogarni chiqarib yuboribdi va bir xizmatchisiga Sodiqni olib kelishni buyurdi. Sodiq qo'rqa-qo'rqa, rangi-ro'yi o'chgan holda vazir yoniga keldi. Uning oyog'iga yiqilib kechirim so'radi. Vazir Abdulla Sodiqni ko'tarib turg'izdi. Unga tasalli berib aytdi:

— Men senga jazo berish uchun emas, qo'shning savdogarining yaramas kishi ekanligidan xabardor bo'lishing uchun chaqirdim. Qo'shning savdogar chaqimchi, ig'vogar bir kishi ekan. Mening yonimga kelib, sening haqingda chaqimchilik qildi. Bor, uyingga ket, o'zingga ehtiyot bo'l. Chaqimchi, ig'vogar qo'shningdan saqlan.

RUXSAT SO'RASH ODOBI

Bir kishining uyiga borib, u kishi bilan ko'rishish va biror ish to'g'risida so'zlashishni istasangiz, uy egasidan kirishga ruxsat oling. Indamay-netmay eshikni ochib, uyiga kirish adabsizlik va tartibsizlik sanaladi. Avval eshikni sekinroq taqillating. Uydan hech bir tovush chiqmasa, birozdan keyin yana taqillating. Shu tariqa uch marta taqillatganingizdan keyin ham hech kim javob bermasa, uyda odam yo'qligi yoki uy egasi hech kimni qabul qilishni istamaganligi anglashiladi.

Agar uy egasi eshik taqillaganini eshitib kelib, "Kimsiz?" deb so'rasa, "Men" deb javob bermang, otingizni to'la-to'kis ayting. Uy egasi eshikni ochgandan keyin u bilan salomlashib ko'rishing, nima ish bilan kelganingizni unga bildiring. U uzringizni qabul qilsa, o'sha yerda muddaongizni so'zlang. Maslahatini, kerakli javoblarini eshitganingizdan keyin uning ruxsati bilan xayrlashib qayting.

"G'uncha"dan

HIKOYA

Bir kishining bor edi to'rt bolasi,
Yotgan edi uyga kelib xolasi.

Tursa xola erta bilan o'rnidan,
Bir so'mi yo'q bo'lmish uning qo'ynidan.

So'rdi, chaqirdi bolalardan ani,
"Ko'p xafa qilmang, beringiz, deb mani".

Har biri ham: "Olganimiz yo'q", dedi,
Ichdi qasam: "Ko'rganimiz yo'q", dedi.

Bildi ota foydasizdir qiynamoq,
Lozim uni olmoq uchun aldamoq.

Barchasini qo'ydi qamab bir uya,
Oldiga har qaysini qozon kuya.

Dedi: "Kimki rost esa, gar so'zi,
Qora bo'lur o'zicha ikki yuzi.

Kimning agar yolg'on erursa so'zi,
Bor-yo'g'i qora bo'lur o'ng yuzi".

Kattasi olgan edi ul aqchani,
Bilmadi ul o'zi uchun hiylani.

Dedi: "Qora bo'lsa o'zi o'ng yuzim,
Qora qilay chap yuzimni o'z-o'zim.

Qora qildi chap yuzini vahm etib,
Ikki ko'zin turdi eshikka tikib.

Boshqalari olmagani to'g'ridan,
Tek turishib kutdi ani o'g'ridan.

Chiqdi olib barchasini otasi,
Boqdiki, chap yuz qoradir kattasi.

Ko'rdi u ham boshqalarning oq yuzi,
Bo'ldi xijolat, chiqib egri so'zi.

Berdi ul dam xolasining so'mini,
Tashladi so'ng shuyla fe'li shumini.

Hissa: Kimki buyla xiyonat qilur,
Bir kun o'zini shuyla xijolat qilur.

TO'G'RI SO'Z BOLA

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,
To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.

Dedi biri: "Tanga berurman sanga,
So'zla bir og'izgina yolg'on manga".

Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:
So'zlang ako, qomatingizga qarab.

Bu so'zingiz aslida yolg'on erur,
Tangaga yolg'onni kim olg'on erur.

Sizda ko'p ekan o'zi yolg'on ako,
Siz oni avval sotib aylang ado.

Qolsa kamib, yetmay agar sizdanam,
O'rtog'ingizda ko'p erur bizdanam".

Ofarin etdilar uning so'ziga,
Tangani xolis beribon o'ziga.

Hissa: kimki to'g'ri so'zi har qachon,
Tekizadir doimiy bo'ylab hison.

Hamza Hakimzoda Niyoziy

KO'CHA-KO'YDA O'ZINI TUTISH

Ko'chada yurganda ehtiyotkorlik bilan yurish, kiyimlarni iflos narsalar tegishidan saqlashga harakat qilish lozim. Og'zini ochib, har narsaga alanglab yurish yaxshi xislatlardan sanalmaydi.

Bozorda va odamlar yig'ilgan joylarda juda ehtiyotlik bilan yurish tavsiya qilinadi. Beparvolik bilan qadam tashlab, kishilarning oyoqlarini bosib olish yoki turtib yuborish, shunday bejo harakatlar orqali boshqalarga ozor berish yaxshi emas. Agar ikki erkak kishi yoki bitta ayol bilan erkak kishi so'zlashib turgan bo'lsalar, ularning o'rtasidan yorib o'tish tartibsizlik sanaladi.

Agar yo'lda qariya uchrab qolsa, hurmat yuzasidan uning ortidan yurish lozim. Ishi zarur bo'lib shoshib turgan kishi chetdan, yo'lovchi qariyaga turtinib ketmay, oldinga o'tib ketishi mumkin.

Odamlar o'tib turgan yo'l ustida so'zlashib turib, o'tuvchilarga xalaqit berish to'g'ri emas, chetroq joyda turib so'zlashish lozim. Yo'lovchi yo'l ustida yotgan tosh, tikan kabi narsalarni ko'rsa, ularni chetroqqa olib tashlasa, boshqa yo'lovchilarga foyda etkazgan bo'ladi. Yo'l ustiga tupurmoq, burun qoqmoq va iflos narsalar tashlamoq tarbiyasizlik sanaladi. Yo'lda chol,

zaif kishi yoki kichik yoshli bolalar uchrab qolsa, ularga yordam qo'lini cho'zish zarur. Ularning yuklari bo'lsa, darrov qo'llaridan olib, yordam bergan kishi juda ham olijanoblik qilgan bo'ladi.

"G'uncha"dan

PALAPON

Tinmas churq-churq qilib,
Uyasida palapon.
Boshida ming o'rgilib,
Ona chumchuq girgитton,
Palapon nega buncha,
Tinchimaydi chirq-chirq deb?
Qorni ochar menimcha,
To'yguncha chigirtka yeb.
Palapon o'z inida,
Sayrashni mashq qiladi.
Chirqillab qush tilida,
So'ylamoqchi bo'ladi.

Barot Isroil

TOSH

Bir bola yo'lda ketayotsa, oyoq ostida kattagina bir tosh yotgan ekan. Bola: "Men toshga qoqilmay o'tib ketdim, kerak odam o'zi surib olar deb toshni chetga surib qo'ymabdi. Lekin shu paytda nima bo'libdi-yu ro'parasidan bir navvos dumini xoda qilib, shataloq otib chiqib qolibdi. Buni ko'rgan bola qo'rqib ketib, orqasiga ura qochibdi va kelib haligi toshga qoqilib yiqilib tushibdi.

"G'uncha"dan

BULBUL BO'LISH QIYIN-DA

— Qushlar qanday kiyinar?
— Biri soz-u, biri zo'r!
Qora kamzul, oq ko'ylakda
Ola qarg'a dirijyor.

Sariq kitel tiktiribdi
Yozga moslab zarg'aldoq.
To'tiqushning qulog'ida
Taqa nusxa zarbaldoq.
Pochapo'stin to'g'ri kelmay
Qorayaloq xit-xunob.
Malla kostyum zo'r yarashib
Tam-tam bosar qarqunoq.
Qizilishton boshi uzra
Enlik alvon toj bilan,
Chumchuq yurar yetaklashib
Sergak chittak goj bilan.
Kalxat so'zlar: — Popishakxon,
Bugun juda po'rimsiz.
Bulbul kiygan ustiboshlar
Hay, namuncha ko'rimsiz.
Qaldirg'och der: — Do'stlar, nahot
Qadr-qimmat kiyimda.
Boshing ko'kka yetsa hamki,
Bulbul bo'lish qiyin-da.

Tursunboy Adashboev

G'ALATI BOLALAR

Bizning sinfimizda g'alati-
G'alati bolalar bor.
Hayron bo'laman juda
Gap-so'zlari qilib kor.
— Dadam kuchlilar rosa,
Polvonlar, — deydi Davron.
Davronning o'zi esa
Juda ham ozg'in, nimjon.
Xolning adasi olim,
Yozar-o'qir erta-kech,
"Ish"dan boshi chiqmas hech.
— Mening oyim shifokor, —
Deydi maqtanib Sobir.
Ammo ukolni ko'rgach,
Sobir qaltirar dir-dir.

Rahimning bobosi bor,
Nishon olgan qahramon.
Rahimning chiqar esi,
Ko'rib qolsa gar sichqon.
Dildoraning buvisi
Xonanda, zo'r san'atkor.
Bo'lsa maktabda kecha
Og'iz ocholmas Dildor.
Ota-bobosi bilan
Har kim qilarkan faxr.
O'zlari ham munosib
Farzand bo'lsin-da axir.

Rauf Tolib

ANA XOLOS!

— Qaysi bizga
Yaqinroqdir —
Oymi yoki
Afrikami? —
Deb so'rasam,
Javobini
Lahza o'tmay
Aytdi Hamid:
— Albatta, Oy
Yaqin bizga.
Tepamizda
Porlar har kech.
Afrika-chi,
Durbin bilan
Tikilsang ham
Ko'rinmas hech!

Rustam Nazar

QO'SHIQCHI

Qachon qo'shiq ayt deya
Qistasangiz Karimni,
Rubobin olib qo'lga

Aytar "Jo'jalarim"ni.
Bir kuni hazillashib
Der unga do'sti Sodiq:
"Axir u jo'jalaring
Bo'lmasmi sira tovuq?".

Dilshod Rajabov

HALI YOSH-DA...

— Doskaga chiq, Mukambar,
Bo'rni ol-chi, xo'sh, qani.
Bitta misol ishlaymiz,
Uchga uchni qo'sh qani?
Lekin oddiy misolni
Yecholmabdi Mukambar.
Sodiq aka so'rab qoldi:
— Ayt-chi, qancha ukang bor?
— Oltita.
— Ular birdan konfet yesa,
Bo'lar nechta?
— Beshta.
— Hech-da!
Shoshilmasdan o'yla boshda.
— Bitta ukam konfet yemas,
Hali yosh-da...

Tursunboy Adashboev

LAYLAK BILAN TULKI

(Ertak)

Laylak bilan tulki do'st bo'lgan ekan. Qimmatchilik vaqti kelib ikkalasi bola-chaqasi bilan och qolibdi. Bir kuni laylak tulkiga:

— Tulkijon, sen uyga qarab tur, men uchib borib o'zimizga va bolalarimizga ovqat topib kelay, — debdi. Tulki rozi bo'libdi. Uyida bolalariga qarab qolibdi. Laylak ovga ketibdi.

Tulki uyda o'zining va laylakning bolalariga qarab o'tiraveribdi. Oradan besh kun o'tibdi, olti kun o'tibdi, laylakdan darak bo'lmabdi. Tulkining qorni nihoyatda ochib, holdan ketay deb qolibdi, ochdan o'lar holga kelibdi. Tulki u yoq-bu yoqqa qarab, hech kim yo'qligidan foydalanib, laylakning bitta bolasini sharta bosib yeb qo'yibdi. Bolani yeb bo'lgandan keyin qarasa, laylak ikki toshbaqa, beshta qurbaqa, ikki ilonni ko'tarib ovdan kelibdi.

Tulki aytibdi:

— Eh, attang, bir kun kutsam bo'lar ekan, do'stim ancha oziq olib kelar ekan, endi nima deb javob beraman, deb yig'labdi.

Laylak uyiga kelsa, tulki do'sti yig'lab o'tirgan emish. Laylak:

— Ey tulki, do'stim, nega yig'laysan, — deb so'rabdi.

Tulki yig'i aralash:

— Hay-hay, laylak do'stim, bolalaringning biri kasal bo'lib qoluvdi, shunga yig'layapman, — deb suyaklarini ko'rsatibdi. Laylak xafa bo'lib yig'labdi va bolasini olib boshqa yoqqa uchib ketibdi.

CHUMCHUQ BILAN CHUMOLI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qishloqda kattakon tepalik bor ekan. Tepalik yonida bir tup qari tut bor ekan. Tutning quyuq chayir shoxlarida chumchuqlar chug'urlashar ekan. Tepalikning yonlarida chumolilar o'rmalashib yurar ekan. Chumchuqlar chumolilarning har kuni tinimsiz yuk tashib yurishlari haqida gaplashib, ularni mazax qilib kulishar ekan. Bir kuni qoq tush paytida bitta chumchuq pirillab yerga tushibdi. Bitta bug'doyni tishlab ketayotgan bir chumolini ko'rib qolibdi.

— Bug'doyni menga ber, — debdi chumchuq.

— Nega, — debdi chumoli. — Kap-katta bo'lib mendan bug'doy so'ragani uyalmaysanmi? O'zing topib yesang bo'lmaydimi? Shu bitta bug'doy bilan to'lasanmi?

— Kun isib ketdi, — debdi chumchuq. — Hech qayerga borgim kelmayapti.

— Shuni ertalab salqinda o'ylamadingmi? — debdi chumoli. — Don kerak bo'lsa, izlab top. Axir qanoting bor. Agar mening senikidaqa qanotim bo'lganida ming chaqirim joyga ham erinmay borib kelar edim.

— Qanot menga don izlash uchun berilgan emas, — debdi chumchuq. — Mushukdan saqlanish uchun berilgan. Bo‘lmasa, xirmonga borib to‘yib kelardim. Lekin u yerda mushuk bor. Qo‘rqaman, meni yeb qo‘yadi.

— Nega mushuk seni yeydi-yu, meni yemaydi, — debdi chumoli.

Chumchuq chirillab kulib yuboribdi:

— Gapingni qara-yu, mushuk seni boshiga uradimi? Sening go‘shting oz. Buning ustiga achchiqsan.

— Menga o‘xshab mehnat qilsang, sen ham terlab achchiq bo‘lib ketarding, — debdi chumoli. — Sen bo‘lsang doim tekni ovqat qidirasan. "Sen achchiqsan, men shirinman", deb maqtanmay qo‘ya qol. Aslida sen o‘zing shirin emassan, joning shirin. Joningni koyitging kelmaydi.

— Mayli, nima desang, deyaver, lekin mana bu bug‘doyingni menga beraqol, — deb yalinibdi chumchuq.

Shu payt qayoqdandir paydo bo‘lgan mushuk bir hamla qilib chumchuqni tappa bosibdi.

— Voy, chumolijon, meni qutqar. Mushukni chaqib ol! — deb chirillabdi chumchuq.

Shunda mushuk chumchuqni tishlab, yugurganicha tepalikning narigi tomoniga o‘tib ketibdi.

— Ey nodon chumchuq, — debdi chumoli o‘zicha kulib. — Mushuk seni yeydigan bo‘lsa bu yerdan ham topar ekan-ku, sen xirmonga borishdan qo‘rqib o‘tiribsan-a.

U shunday deb bug‘doyni tishlaganicha jo‘nab ketibdi.

Aziz Abdurazzoq

BOTINKANING SHIKOYATI

Tepib o‘tar albatta
Yo‘lda yotgan har toshni.
Tergaydigan kishi yo‘q,
Bu betamiz Yo‘ldoshni.
Og‘zim ochilib qolsa,
Tuzatishga chopadi.
Axir, usta ungas,
Mixni menga qoqadi.

Dilshod Rajabov

BEFAROSAT ESHAK

(Ertak)

Bir eshak bor ekan. U o'zini juda aqlli deb bilar ekan. Kunlardan bir kuni bir boqqa kiribdi. Qarasa, daraxtlarda mevalar, polizlarda qovun-tarvuzlar, qovoqlar pishib yotgan ekan. Eshak daraxtlardagi mevalarga, polizdagi qovoqlarga qarab diqqat qilibdi. Shalpang quloqlarini qimirlatib:

— Tabiat-ku hamma narsani bilib yaratgan-a, lekin ko'p narsalar borki, ularni boshqacharoq qilib yaratish kerak edi-da, — debdi.

Daraxt shoxida o'tirgan chumchuq eshakdan:

— Qani ayt-chi, senga bularning nimasi yoqmadi? — deb so'rabdi.

— Ko'rmayapsanmi? — deb javob beribdi eshak olma va qovoqlarga imo qilib, — shunday katta daraxtlarning solgan mevasini qara — bolaning mushtumidan ham kichkina. Endi anavi qovoqlarni qara: kallamday keladi, nozik palaklarga ilinib turibdi...

— Hamma hikmat shunda-da, — debdi eshak. — Olmalar qovoqdek, qovoqlar olmadek bo'lsa tuzuk bo'lardi.

Shunday deb eshak olma daraxtiga surkalgan ekan, bitta olma uzilib, "taq" etib boshiga tushibdi.

— Voy boshim, — debdi eshak, — yorilayozdi.

Chumchuq kulib:

— Yaxshiyamki olma qovoqdek emas, bo'lmasa miyangning qatig'ini chiqarib yuborardi.

— Rost aytding, og'ayni! — debdi eshak va olma daraxti-ning tagidan nari ketibdi.

MEHMON KELDI

Uyimizga
Mehmon keldi.
Dilimizga sevinch
To'ldi.
Choy qaynatib
Yoqdik olov.
Pishirdilar,
Onam palov.
Bezatdik tez

Dasturxonni.
Qo'ydik mayiz,
Issiq nonni.
Mehmon
Uyimizning naqshi.
Mehmon kelsa
Qanday yaxshi.

Shukurjon Tolibov

O'RMONDA ZIYOFAT

Sher oshxona ochibdi,
O'rmonda bugun.
Yovvoyi va xonaki
Hayvonlar uchun.
Pishar turli taomlar
Qozonda "jaz-jaz".
Bo'rivoy — o't qalovchi,
Quyvon — bosh oshpaz.
Yumronqoziq masalliq
Tayyorlashda band.
Ho'kiz bobo — qorovul,
Echki — ofitsant.

Oshxonaki — hashamdor,
Ko'rinmaydi gard.
Eshikka xat yozilgan:
"Tuyog'ingni art!"

Birin-ketin hayvonlar
Keldi bir yondan.
Tog'u qishloq, yaylovdan,
Hamda o'rmondan.

Xo'randalar behisob,
Zo'rg'a yetdi joy.
Kuchuk suyak buyurdi,
Maymun — achchiq choy.

Mushuk dedi: "Keltiring —
Sutga to'g'rab non.
Yo'qmi, sizda mabodo,
Yangiroq sichqon"?

Tulkivoy der: "Bugun sal
Tashqari sovuq.

Menga qaynoq kakao
Va tirik tovuq".

Qo'zi beda so'radi,
Olmaxon — yong'oq.
To'ng'iz esa buyurdi
Chirik oshqovoq.

Talab qildi buzoqcha
Kunjara, somon.
Yoqib tushdi kirpiga
Chipor suvilon.

Ishtahadan nolimay
Suli kavshar ot.
Ikki lagan baqani
Yedi begemot.

"Menga hang... ham qarang! —
deb

Baqirdi eshak.
Sekingina dedi fil:
"Bir tonna xashak!"

Xo'p yayrashdi hayvonlar
Bo'ldi jamuljam.
Faqatgina toshbaqa
Edi bunda kam.

Toshbaqa ham uzoqda
Ko'rindi, ana.
Afsuski, u kelguncha
Yopiq oshxona.

Anvar Obidjon

LOLA

Bahor keldi elimizga,
Ko'm-ko'k bo'ldi bog', dala.
Sevinch to'lib dilimizga,
Terib keldik gul-lola.
Qanday rohat bahor chog'i,
Tabiat ham o'zgacha.
Keng Vatanning chaman bog'i
Yam-yashildir kuzgacha.
Go'zal bahor kunlarida
Sayr etib qaytamiz.
U haqda qish kunlarida
Doim eslab o'tamiz.
Bahor keldi elimizga,
Yashil to'n kiydi dala.
Shodlik to'lib dilimizga,
Terib keldik gul-lola.

Ilyos Muslim

BOYCHECHAK

(Ertak)

Ra'nolarning uyi shahardan chetroq joyda ekan. Derazadan qarasa, kattakon dala, dalaning narigi boshida tepaliklar ko'rinib turar ekan.

Bir kun qor yog'ib turganida Ra'noning buvisi shahardan mehmon bo'lib kelibdi. Ra'no juda suyunibdi. Pechka yoqilgan issiq uyda buvisi bilan har kuni gaplashib o'tiribdi. Buvisi unga kechqurunlari ertaklar aytib beribdi. Ba'zida ashula ham aytib beribdi. Ayniqsa, buvisining boychechak haqidagi ashulasi Ra'noga juda yoqib qolibdi. Ra'no uni yodlab olib, har kuni aytadigan bo'libdi. Bir kuni u buvisidan boychechak qayerda o'sishini so'rabdi. Buvisi Ra'noni deraza yoniga boshlab borib, dalani, teraklarni ko'rsatibdi.

— Huv o'sha dalada, tepaliklarning etagida boychechak uxlab yotibdi, — debdi buvisi.

— U qachon uygʻonadi? — deb soʻrabdi Raʼno.

— Qorlar erib, bahor kelayotganida eng birinchi uygʻonadigan gul — boychechak boʻladi, qizim, — debdi buvisi.

— Oʻshanda men sizga boychechak terib kelaman, — debdi Raʼno.

U oʻsha kundan boshlab qorlarning erishini, boychechakning yerdan chiqishini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Har kun ertalab oʻrnidan turganda qorlar eriganmikan, deb tashqariga qaraydigan boʻlibdi. Buni buvisi sezib yurgan ekan.

— Qorlar hali erimaydi, qizim, — debdi u. — Erisa yana yogʻadi. Hali toʻqson chiqishiga ancha bor.

— Toʻqson nima, buvi? — deb soʻrabdi Raʼno.

— Toʻqson deganim toʻqson kunli qish-da, qizim, — debdi buvisi. Toʻqson chiqadi, undan keyin Navroʻz keladi, ana oʻshanda boychechak ochiladi.

— Navroʻz kim, buvi? — deb soʻrabdi Raʼno.

— Navroʻz — bayram, — debdi buvisi. — Bahor bayrami. Ungacha men uyimga borib kelay. Men kelgunimcha sen boychechak haqidagi ashulani oʻrtoqlaringga ham oʻrgatib tur. Boychechak ochilganda borib ashulani aytib, terasizlar.

Shunday deb buvisi shaharga joʻnab ketibdi. Raʼno uning aytganini qilib oʻrtoqlariga ashula oʻrgatibdi. Bir kuni qorlar erib, yerlarning loyi qurib, koʻm-koʻk oʻtlar chiqib, kunlar salpal isib, shamollar ham odamga yoqadigan boʻlib qolganda Raʼnoning buvisi shahardan kelibdi. Raʼno juda suyunibdi. Buvisi hamma bilan koʻrishibdi. Keyin u Raʼnoning oyisi, dadasi bilan gaplashib oʻtirganida:

— Buvi, endi toʻqson chiqdimi? — deb soʻrabdi.

— Ha, qizim, endi boychechak tersang boʻladi, — debdi buvisi. — Toʻqson allaqachon chiqib ketdi. Ertaga Navroʻz bayrami boshlanadi.

Ertasiga Raʼno koʻchaga chiqib oʻrtoqlarini topibdi, ular derazadan koʻrinib turadigan dalaga yugurishibdi. U yerdagi tepaliklarning yoniga borib, boychechak izlashibdi. Bu vaqt boychechaklar endigina uyqudan uygʻonib, yerning tagidan qanday chiqishni oʻylab turishgan ekan. Ulardan bittasi qizlarning ovozini eshitishi bilan yerni yorib, boshidagi tuproqni silkitib chiqibdi. Lekin atrofga qarab, qizlarni koʻrmabdi. Chunki oftob charaqlab turganidan uning koʻzlari qamashib qolgan

ekan. Shunda haligi boychechak osmonga qarab, ingichka ovoz bilan:

— Salom Quyosh! — deb qichqiribdi. U xursand bo‘lib kulgan ekan, atrofdagi tepaliklar qo‘ng‘iroqday jaranglab ketibdi. Uning ovozini eshitib, qizlar yugurib kelishibdi.

— Kim u kulayotgan? — debdi Ra‘no.

— Bu men, Boychechakman. Salom, qizlar! — debdi boychechak.

Qizlar ham baravariga:

— Salom, Boychechak! Navro‘z bayramingiz muborak bo‘lsin! — deyishibdi.

Keyin ular boychechakning atrofida o‘yinga tushib, Ra‘noning buvisi o‘rgatgan ashulani boshlab yuborishibdi:

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayroni.
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayroni.
Qattiq yerdan tatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.
Boychechakni tutdilar...

— Yo‘q, meni tutmanglar, — debdi boychechak.

Qizlar jim bo‘lib qolishibdi.

— Meni yulmanglar, — debdi u yana. — Bo‘lmasa, oyimni chaqiraman. Oyi!

Shunday deyishi bilan uning yonidan bitta katta boychechak o‘sib chiqibdi.

— Kim mening bolamni xafa qilmoqchi? — debdi u.

Shunda qizlar yana o‘yinga tushib, boshqa ashulani boshlab yuborishibdi:

Boychechakning bolasi, bolasi,
Qulog‘ida donasi, donasi.
Donasini olay desak
Yugurib chiqdi onasi, onasi.

Keyin ular baravariga:

— Salom, boychechakning onasi! Navro‘z bayramingiz muborak bo‘lsin! — deyishibdi.

Boychechakning onasi jahlidan tushib, u ham salomlashibdi:

— Salom, qizlar! — debdi. — Sizlar yaxshi, aqlli qizlar ekan-sizlar. Men bo'lsam, bolamni olib ketasizlar, deb o'ylabman.

— Olib ketamiz-u, lekin yana olib kelib o'zi o'sgan joyga ekib qo'yamiz, — debdi Ra'no. — Bugun bayram. Uyda buvim borlar. Men buvimlarga boychechak olib borib ko'rsatmoqchi edim.

Boshqa qizlar Ra'noning gapini tasdiqlashibdi. Ular ham buvilariga boychechakni olib borib ko'rsatmoqchi ekanliklarini aytishibdi. Bunga boychechakning onasi rozi bo'libdi.

— Hoy bolalarim, chiqinglar, Navro'z keldi, bizlarni qizlar o'ynatib kelishmoqchi.

U shunday deyishi bilan butun atrofdan boychechaklar boshlaridagi tuproqni silkitib chiqa boshlashibdi. Qizlar ularni avaylab bitta-bittadan olib, uylariga yugurishibdi. Hammalari buvilariga, buvalariga olib borib ko'rsatishibdi. Buvilari, buvalari boychechakni qo'llariga olib "omonlik, omonlik" deb yuzlariga, ko'zlariga surtishibdi. Keyin qizlar boychechaklarni olib ketib, joy-joyiga ekib qo'yishibdi. Ashula aytib uy-uylariga tarqalishibdi.

Agar har yili Navro'z bayramida qizlarning boychechak haqidagi ashulasini eshitsangiz, bu Ra'nolarning ovozi deyavering. Chunki bu atrofda Ra'no bilan o'rtoqlaridan boshqa hech kim boychechak haqida bunchalik quvna boshladi.

BEDANA QO'SHIG'I

"Bedananing uyi yo'q,
Qayga borsa pitpildiq".
Qiltuzoqqa ilinib,
Mana biz "uy"li bo'ldik.
Topgan qasrim misoli
Quv ovchining kallasi —
Usti dag'al to'rparda,
Osti qovoq pallasasi.
Don, suv, ushoq bor bunda,
Qorin tarang, doim to'q.
Bunda bor qanot qoqish,

Ammo parvoz qilish yo'q.
Sayrash, yig'lash, o'ylashga
Topilar bunda imkon.
Bor bunda dumaloq erk,
Shunga yarasha osmon.
"Bedananing uyi yo'q
Qayga borsa pitpildiq".
Qiltuzoqqa ilinib,
Mana biz "uyli" bo'ldik.
Sayramasam so'yishar,
Sayrasam og'rir jonim.
Ko'zim tikib tolmayman,
Endi senga osmonim!

Abdurahmon Akbar

QO'RQOQ

Bir kishi g'oyat qo'rqqoq va yuraksiz bo'lib, kechalari aslo ko'chaga chiqmas edi. Bir kuni o'rtoqlaridan biri: "Birodar, san ham kechasi ko'chaga chiq, nimadan qo'rqasan. Agar bir kishi sanga qarab kelur bo'lsa, san ham oning ustiga bosib boraver. San qandoq qo'rqasang, ul ham sandan shundoq qo'rqar. Saning yuraklik va botirlig'ingni ko'rib, sandan qochar", deb oni yuraklik qilmoq uchun nasihat qilsa, bir oz o'ylab turib: "Oh, do'stim, yo'q, bu ish aslo bo'lmas. Agar bu nasihatni ul odam ham eshitgan bo'lsa, ul ham mening ustimga qarab bostirib kelsa, man ul vaqtda qayga qochib qutulurman. Qo'y, birodar, saning bilg'oning o'zingga, mani bilg'onim o'zimga", debdi.

Abdulla Avloniy

O'XSHAMAY KETGUR

Yaylovda o'tlab yurar,
Tuya, eshak, ot.
Bolalari yayrashib

Qilardi rohat.
Kutmaganda to'polon
Boshlanib qoldi.
Gurssa-gurs bir-biriga
Tashlanib qoldi.
Ot va tuya baravar
Deyishdi dangal:
Qaysi eshak janjalni
Boshladi avval?
Chipor moda erkasin
Aybin yashirib,
Ta'rifu tavsifini
Qildi oshirib:
— Eshak demang bolamni
Hozircha kurra.
Peshonasin, voy sho'rim,
Kim qildi g'urra?
Ko'p xushbichim, yarashiq
Shalpang qulog'i.
Eng muhimi, samimiy,
Toza yuradi.
Hoy, ot, xudo saqlasin
Toychog'ingizdan.
Xo'tik ismi yoqmagan
Olchog'ingizdan.
Tuya, siz ham yuribsiz
Bo'talog'im deb.
Esiz, bo'la olmas u
Umringizga zeb.
Boshdan-oyoq boqsangiz
Yo'q to'g'ri joyi.
Shu ham farzand bo'ptimi,
Vo-yey, xudoyim!
Sho'rlikning g'alvasidan
Uyalgan bo'lib,
Ota-ona hurmatin,
Izzatin qilib.
Tortinibroq turardi
Toychoq, bo'taloq.

Kurra esa otadi
Battar shataloq.
Oyoqlari g'izillab,
Erkin havolab,
Naq oyisin jag'ini
O'tdi savalab...
Jon achchig'i depsinib
Dodlar: "Yer yutgur,
Voy, eshak-a, eshakka
O'xshamay ketgur!"

Qambar Ota

BOTIRLAR VATANI

Mening buyuk Turonim
Mard, botirlar Vatani.
To'marisday, Shiroqday
Bahodirlar Vatani.
Ulug' Temur bobomiz
Sevgan, sig'ingan Vatan!
Bobur mirzo doimo
Qo'msab, sog'ingan Vatan!
Vatan so'zin bobolar
Tilidan hech qo'yganmi?
Usmon Nosir, Cho'lponlar
Chiroyiga to'yganmi?
Inson Vatan der har choq,
Vatan — shodlik, qayg'usi.
Vatanni ozod ko'rmoq
Insonlarning orzusi.
Baxt quyoshi — istiqlol
Yurtim uzra sochdi nur,
O'zbekiston Vatanim,
Mustaqildir, erkin, hur!

Rauf Tolib

NAVRO'Z BAYRAMI

Binafshalar qo'limda,
Keldi Navro'z bayrami.
Katta sayil elimda,
Keldi Navro'z bayrami.
Sumalaklar qozonda
Keldi Navro'z bayrami.
O'yin-kulgi azondan
Keldi Navro'z bayrami.

Rauf Tolib

O'ZIMNING ONAGINAM

Mehri misoli daryo,
Qalbi to'la nur, ziyo.
Ko'zlarimga to'tiyo
O'zimning onaginam.

Erkin Madrahimov

QUYOSH, QUYOSH, QUYOSHJON

Quyosh, quyosh, jon quyosh,
Yorug'likka kon quyosh.
Tezroq chopib chiqa qol,
Sevar seni qari, yosh.
Ketib qolma uzoqqa,
Bekinib olma toqqa.
Tara zardek kokiling,
Kuch berar dala, boqqa.

Erkin Rahimov

BOLA VA TO'RG'AY

Sayra, to'rg'ay, jon to'rg'ay,
Sayrasang ko'nglim to'lg'ay.
Kelganida har bahor.
Seni kutaman nahor.
Tayyorlayman in senga,
Sayrab berasan menga.
Mening otimdir Ahmad,
To'rg'ay deydi: — Ko'p rahmat!
Sayraydi tinmay to'rg'ay,
Sayrasa ko'nglim to'lg'ay.

KICKINA QUSH

Hay, hay chumchuq — jajji qush,
Shoxda turmay pastga tush.
Erta-yu kech tinmaysan,
Charchamoqni bilmaysan.
Chirqillaysan izlab don,
Mana, chumchuq senga non!
Qorning to'ysa aytasan,
So'ng uyingga qaytasan.

Shukur Sa'dulla

UYGA MEHMON KELDI

Kiyim to'ni
Ola-bula,
Hakka sayrar
Qarang xola!
Shoxdan shoxga
Uchib yurar,
Quchib yurar.
Yaxshi xabar
Olib kepti,
Bizning uyni

Bilib kepti.
Sayrayotir
Tinmay bir on,
Demak, uyga
Kelar mehmon.

Barot Isroil

SA'VA

Sa'va keldi bog'imga,
Ola-bula pati bor.
Sayrashlari chiroyli
Chiroyli qanoti bor.

Haydar Muhammad

GUNAFSHA

Gunafshaxon, gunafsha,
Navbahorning gulisan.
Erta bahor ochilib
Bizni xursand qilasan.
Salom senga bahorning
Ko'rki bo'lgan gunafsha,
Hidlaringni taratib
Ochilib doim yashna.

Adham Rahmat

ONAMLARNING BAYRAMI

Quyosh kulib boqqan kun,
Bahor tanga yoqqan kun.
Sakkizinchi mart bugun
Onamlarning bayrami.

Eson Rahimov

KELDI BAHOR

Tog'da nega
Eridi qor.
Nega loyqa
Oqar anhor?
Nega gullar
Kuldi takror?
Chunki yana
Keldi bahor.

Muhammadjon Qo'shoqov

Tez aytishlar

Tez aytishni tez-tez ayt. z-sh.
Qora qaldirg'och qayrag'ochga qo'ndi. q-g'.
Chamanoy chinniga chiroyli gul chizdi. ch-z.
O'ktam ko'm-ko'k, ko'rkam ko'klam rasmini ko'm-ko'k
qalamda chizdi. k-m.
Tog' tagida Tursunboy tog'amning traktori tirillab turibdi.
t-g'.
Gulsara gul saralab gul sanadi. s-r.
Lazokat Nazokatning singlisimi,
Nazokat Lazokatning singlisimi? L-z.
Shahlo shaqildoqni shaqillatdi. sh-q-l.

Topishmoqlar

1. Ko'klam kelsa unadi,
Oftob chiqsa kuladi.
U bahorning elchisi,
Buni hamma biladi.
2. Ko'k yeb oltin o'raydi.
3. O'tmas pichoq yer kavlar.
4. Boshi bor-u sochi yo'q,
Tez suzishda tengi yo'q.
5. O'zi go'zal, qizib biram,
Qirda yozar qizil gilam.

6. Ko'k ko'ylakka qo'l yetmas.
7. Vujudimda turadi,
Duk-duk qilib yuradi.
8. Ko'kka chiqib olov shar,
Bizga ziyo ulashar.
9. Yuguradi, yeladi,
Baland tog'dan keladi.
Mo'l-ko'l bo'lsa yoz chog'i,
Yashnaydi dala-bog'lar.
10. Qilich urdim o'rni yo'q.
11. Qozon emas qaynaydi,
Qishin-yozin tinmaydi.
12. Jilovi yerda, o'zi osmonda.
13. Bittasini yerga sochdim
Bir hovuch terib oldim.
14. Ikki otim bor
Bir-biridan chopog'on.
15. Oppoq sandiq ochildi,
Olamga nur sochildi.
16. Quyon emas uzun quloq,
Ot emas to'rtta oyoq.
17. Besh juft oshna
Doim ishga tashna.
18. Osh pishirdim tuzi yo'q.

Topishmoqlarning javoblari

1. Boychechak. 2. Ipak qurti. 3. Tomchi. 4. Baliq. 5. Lolaqizg'aldoq. 6. Osmon. 7. Yurak. 8. Quyosh. 9. Suv. 10. Suv. 11. Buloq. 12. Kosmik kema. 13. Bug'doy. 14. Oyoq. 15. Osmon, quyosh. 16. Eshak. 17. Barmoqlar. 18. Sumalak.

Maqollar

Vaqting ketdi — baxting ketdi.

*

Bulbul chamanni sevar
Odam — Vatanni.

*

Bir kun burun sochsang,
Hafta burun o'rasan.

*

Birni kessang o'nni ek.

*

Ish ishtaha ochar,
Dangasa ishdan qochar.

*

Suvsiz hayot bo'lmas,
Mehnatsiz — rohat.

*

Baxilning bog'i ko'karmas.

*

Halol ish — lazmatli yemish.

*

Yong'ir bilan yer ko'karar,
Tinchlik bilan — el.

*

Mehnat qilgan elda aziz.

*

Shirin so'z shakardan shirin.

*

Olay desang mo'l hosil,
Mehr qo'yib mehnat qil.

TO'RTINCHI CHORAK

O'qib berish uchun

YARASHTIRGICHLAR

— Qilichmi, to'qmoq?
— To'qmoq!
— Shunday bo'lsa,
Man san birla
Qirq yilgacha o'rtoq.
Karimga berdim toychoq,
U ola bermadi har choq.
Toychoq'imni kim olsa,
Men u bilan chin o'rtoq.

* * *

OQ SHOLI — KO'K SHOLI

— Oq sholi,
— Ko'k sholi.
— Oq sholini oqlaylik,
— Ko'k sholini ko'klaylik.
Guruchidan Oyxonning
To'yigacha saqlaylik.
— Xo'p-p!
— Xo'p-p!
— Oq sholi,
— Ko'k sholi.

TOSHBAQA

Toshbaqa o'zi bilan
Ko'tarib yurar uyin.

Ajablanmangiz sira,
Toshbaqaga ham qiyin.
Yo'lga tushsa, uyini
Yelkaga olar asta.
Yo'qsa tosh kulbasini
Qo'msab qolar birpasda.

Hamidulla Murodov

AHMAD VA AHAD

Ahmad keksa boboning
Qo'lidan yukin oldi.
Ahad: — Begona-ku, — deb
Ohista jo'nab qoldi.

KUZATISH

Barvaqt turib,
Yuzim yuvib,
O'z o'rnim tuzataman.
Hozirlab joy,
Keltirib choy.
Odob-la uzataman.
Ishga oyim
Ketsa doim
Xayr, deb kuzataman.

Obid Rasul

O'RMONGA NEGA O'T KETDI?

(Ertak)

Qadim-qadimda bepoyon o'rmon bo'lar ekan, unda turli-tuman jonzodlarning barchasi jamoa bo'lib, bir oila a'zolari-dek ahil va inoq yashar ekanlar. Sichqon oftobda mudrab yotgan mushukning bag'rida erkalanib o'ynar, bo'ri qo'zichoqni o'z bolasidek yalab-yulqar, tulki jo'jalarni don-dun bilan siylar, yo'lbars esa kiyik bolalarini yelkasiga mindirib sayr qildirar ekan.

Barcha jonivorlarning yemishi faqat daraxtlarning shirin-shakar mevalari-yu sershira o't-o'lanlar ekan. Ular har oqshom yig'ilishib, topgan-tutganlarini o'rtada baham ko'rishib, bazmi jamshid qilishar ekan. Bulbul kuylar, g'oz karnay chalar, o'rdak surnay, qizilishton nog'ora qoqar, tovus tovlanib raqsga tushar, maymun masxarabozlik qilar, ayiq tosh ko'tarib polvonligini, mushuk bilan yo'lbars esa abjirligini namoyish qilib, barchaning ko'nglini xushnud etar ekan. Kunlar ketidan kunlar mana shunday quvnoq va serzavq o'taveribdi. Hech kimning hech kimga g'ayirligi va xusumati yo'q ekan.

Davr kelib kimdir mayni kashf etibdi. Bu ichimlik hayvonlar orasida tarqalib, iste'mol qilina boshlabdi. Oqibatda har xil o'yintomoshalar o'rmini kayf-safo egallay boshlabdi. Mast-alast hayvonlar o'rtasida asta-sekin nizo chiqibdi, har kim o'zining nimaga qodirligini ko'rsatgisi kelib qolibdi. Birinchi bo'lib yo'lbars o'zini ko'rsatibdi.

— Eng zo'r hayvon men bo'laman, hamma menga bo'ysunishi shart, — deb o'rmonni boshiga ko'tarib bo'kiribdi.

— Bekorlarni aytibsan, — debdi unga izzat-nafsi og'rigan sher, — o'rmon meniki, unga men xo'jayinman.

— Oromimni buzding, — deb shirakayf mushuk sichqonni quvlab qolibdi.

Boshi tars yorilay degan bo'ri "Suvni bulg'atyapsan", — degan bahonada qo'zini iskanjaga olibdi.

Shunday qilib, butun bir jamoaning inoqligiga darz ketib, hayvonlar har yoqqa tarqalishibdi. Endi ular bir-birlarini qo'llab-quvvatlash o'rniga qirg'inbarot urushni boshlashibdi. O'rmonga o't qo'yishibdi. Dov-daraxtlar va o't-o'lanlar kuyib kul bo'libdi. Yegulik hech vaqo qolmabdi. Oqibatda hayvonlar yirtqichlashib, kuchlilari kuchsizlarini yeb kun kechirishni kasb qilishibdi.

RASSOM

— Zo‘r rassomman, — der G‘ani,
Bolalar so‘rar: — Qani,
Ishga solib bor kuchini
Chizib ber-chi, bir qushni?
G‘ani asta bosh qashlab
Qator gap to‘qib tashlar:
— Chizganim bilan biroq
Jon kirib u qushchaga
Uchib ketsa-chi, shu choq?
— Filni solib ber bizga.
— Sig‘mas deyman qog‘ozga.
— Otni sol hech bo‘lmasa!
— Chopmoqchisizda rosa,
Rahmdilman jonzodga,
Yo‘q, minmaysizlar otga!
Bolalar qiqirlashar,
— Yo‘qsa, nok chiz, — der Oygiz.
— Bo‘lmaydi, yeb qo‘yasiz.
Labin yalab Alisher
Der: — Shokolad chizib ber.
— Ho, yo‘qmi boshqa bir ishing,
Og‘rib qoladi tishing.
Bolalar der: — Bu rassom
Tumshug‘idan ilindi.
Juda qizg‘anchiq ekan,
O‘z-o‘zidan bilindi.
So‘ng yana pichirlashar,
O‘zaro shivirlashar.
— Sendan so‘nggi iltimos,
Der kulimsirab Olmos, —
Ishga yo‘q mahmadona,
Maqtanishda yagona,
Bir bolani chizib boq,
Qoyil qolaylik, o‘rtoq.
G‘ani jim qolar bir dam,

So'ng: — Uyda qopti qalam,
Hozir olib kelaman, —
Deb qalamin yashirdi,
Uyi tomon shoshildi.

Hamza Imomberdiev

QOVUNLAR

Ananas qasr-qusur,
Pichoqqa ilinmaydi.
Oqurug' — mayiz, holva,
Po'chog'i bilinmaydi.
Ko'kcha, cho'tir, gaz bo'yi,
Umrboqi degandek.
Labni labga bog'laydi,
Qizil qantak yegandek,
Bo'rikalla, asati,
Ko'k turnasin aytmayman.
Ming til bilan so'zlab ham
Maqtoviga yetmayman.

Tolib Yo'ldosh

Hikoya qilib berish uchun

O'RDAK BILAN OY

O'rdak daryoda baliq izlab yurib, kun bo'yi bitta ham baliq topa olmadi. U qorong'i tushganda suvda oy aksini ko'rib, baliq bo'lsa kerak deb o'yladi va uni tutib olish uchun suvga sho'ng'idi. Boshqa o'rdaklar buni ko'rgach, masxara qilib kula boshladilar. O'sha vaqtdan boshlab o'rdak uyatchan va tortinchoq bo'lib qoldi. Suvda baliq ko'rganda ham uni ovlamaydigan bo'ldi.

"G'uncha"dan

QOPQONDAGI AYIQ

O'tmish zamonda bir o'g'il yolg'iz onasi bilan qo'l uchida hayot kechirar ekan. Ular yozda dehqonchilik qilar, qishda esa ov ovlab tirikchilik o'tkazar ekan. O'g'il bir kuni ovda yursa, qopqonga ilinib qolgan bo'rining ustidan chiqib qolibdi. "Meni qopqondan qutqar", — deb unga yalinibdi bo'ri. Bola uni qopqondan zo'r-bazo'r bo'shatib olibdi, shunda bo'ri bolaga yuzlanib:

— Yaxshiliging uchun tashakkur, hech qachon unutmaysan, lekin qornim o'lguday och, shu bois seni yeyman, bo'lmasa o'lib qolaman, — debdi.

Bola qanchalik yalinib-yolvormasin, bo'rining vajohati o'zgarmabdi. Nihoyat u ovlagan o'ljasini bo'riga tashlab arang qutulibdi. Kunlarning birida ovga chiqqan bola qopqonga ilinib yotgan ayiqni ko'rib qolibdi. Qo'rqa-pisa unga yaqinlashibdi. Qarasa, ayiq obdon holdan toygan, o'zini bilmay yotar ekan. Bolaning unga rahmi kelibdi. Lekin ayiqni qopqondan qutqarib olay desa, u ham o'ziga tajovuz qilishidan qo'rqibdi. Bola o'ylab-o'ylab: "Jonivorni bu ahvolda tashlab ketish insofdan emas" deb urina-urina uni qopqondan bo'shatibdi. "Xoynahoy bu ham och bo'lsa kerak", deb o'ylabdi, o'z o'ljasini uning yoniga qoldiribdi-da, uyiga quruq qaytibdi. Bo'lgan voqeani dardmand onasiga aytib bergan ekan, u o'zida qanoat hosil qilibdi. Lekin o'g'lining bir hayvonni deb onasini och qoldirganidan vijdoni qiynalibdi. Nima qilib bo'lsa ham tezroq tong otsa-yu, onasiga biror yegulik olib kelsa. Shu o'yda kechasi bilan halovat bilmabdi.

Ayiq xushiga kelib qarasa, uni kimdir qopqon changalidan qutqaribdi. Ayiq bundan juda ham sevinib ketibdi. Lekin a'zoyi-badani qaqshab og'rir emish. Buning ustiga ochlik ham uning tinka-madorini quritibdi. Biror yegulik ilinjida u yoq-bu yoqni timirskilab ko'rsa, go'shtning isini sezibdi. Qarasa, kimdir yegulik ham tayyorlab ketibdi. Ayiq uni yeb qornini to'yg'azibdi. So'ng "Kim menga yaxshilik qildi ekan", deb o'yga cho'mibdi. Tevarak-atrofni iskab-iskab o'ziga yaxshilik qilgan odamning isini topibdi. U ushbu izning ketidan tushib, o'z haloskorini izlab ketibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, axiri o'rmon chekkasidagi bir kulbaga yetib boribdi.

Kulbada bir xasta ayolning inqillagan ovozi eshitildi. Ayiq ahvolni tezda tushunibdi-da, orqaga qaytibdi. U kiyiklar makoniga kelib bitta kiyikni tutibdi-da, yelkasiga ortibdi va o'rmonning eng shifobaxsh asalidan bir idishga to'ldirib olib, kulba tomon jo'nabdi. Kulbaga yetgach, keltirgan sovg'alarini eshik tagida qoldiribdi.

Bola erta tongda tashqariga chiqsa, qay ko'z bilan ko'rsinki, ostonada bitta semiz kiyik go'shti va katta idishda asal turgan emish. U bir zum hayron bo'lib qolibdi. So'ng go'sht va asalni uyiga olib kirib qozon osibdi. Onasi uyg'onguniga qadar kiyik go'shti hil-hil pishibdi. Nonushtaga onasining oldiga issiq sho'rva bilan asal keltiribdi. Buni ko'rgan ona hayron bo'lib o'g'lidan shuncha taomni qaerdan olganini so'rabdi. O'g'li bu narsalar sirli ravishda eshik tagida paydo bo'lib qolganligini aytibdi. Ko'pni ko'rgan ona bu voqeaning siri nimada ekanligini xayolidan o'tkazibdi va bu haqda o'g'liga hech nima demabdi. Kiyik go'shti va shifobaxsh asal bemor onaning dardiga malham bo'libdi. Endi ona-bola yana shodon hayot kechira boshlabdilar.

Ko'klam kelibdi. Ular dehqonchilik qilish niyatida dalaga chiqishibdi, yer haydashga kirishibdilar. Lekin ularning omochga qo'shadigan na ho'kizi, na oti bor ekan. Bir kuni ikkovlon omoch sudrab yer haydashibdi, kech bo'lgach, uyga qaytishibdi. Ertalab yana dalaga borishsa, barcha yerlari haydalib, mola bosilib qolgan emish. Shundan keyin ular nimaiki ish boshlasa, erta tonggacha o'z-o'zidan bekami-ko'st bajarilib qoladigan bo'libdi. Har kecha eshiklari oldida har xil yegulik paydo bo'lishi ham davom etarkan... Bola bu sirni bilmoq uchun kechasi poyloqchilik qilibdi. Qarasa, bu ishni o'zi qopqondan qutqargan qo'ng'ir ayiq amalga oshirayotgan ekan.

Bunday ko'mak va g'amxo'rlikdan ona-bolaning kundankunga hayoti yaxshilanib, boy-badavlat bo'lib, murod-maqsadlariga yetishibdi.

Savob ishning oqibati ro'shnoqlik, deganlari shu bo'lsa ajab emas.

"G'uncha"dan

KIM KIMNI ALLALAYDI?

Buvin meni mehr-la,
Allalaydi har tunda.
Biroq ko'zi suzilib,
Uxlab qolar bir zumda.
Oyim boshlar allasin
Par yostiqa jim yotib.
Qanchalar urinmasin,
Uxlab qolar dong qotib.
Navbat kelar dadamga,
"Ko'zing yum", deb shoshirar,
Alla, xurrak jo'r bo'lib,
Bor uyqumni qochirar.
Oxiri nochor qolib
Yumganimcha ko'zimni,
Alla aytib shivirlab
Uxlataman o'zimni.

Hamza Imomberdiev

ASALNING YARATILISHI

(Ertak)

Ari dunyoga kelganining dastlabki kezlarida duch kelgan ozuqalarni tamaddi qila boshlabdi. Ularning biri shirin bo'lsa, biri bemaza, biri achchiq, biri esa chuchuk ekan. Bunday yashash bora-bora nozikta'b arining joniga tegibdi. U o'ziga ma'qul taomni topmoqchi bo'libdi. Dunyoda bor ne'matning barchasini tatib ko'ribdi. Ari bir necha bor noxush ne'matlardan zaharlaniydi. Shunday bo'lsa-da, u bir daqiqa ham niyatidan qaytmabdi. Ari daraxt ustida har xil sinov va tajribalar o'tkazib, uning tagida yashovchi ayiq polvonning oromini buzar ekan. Tinchi ketgan ayiq unga o'shqirar, shunda ari: "Qo'ng'ir polvon, men dunyodagi eng yaxshi taomni yaratish ustida ish olib bormoq-daman. Uni yaratganimcha hech tinchimayman", — der ekan.

— Ey tentak, o'zingni qiynab nima qilasan, eng lazizatli taomni men allaqachon kashf qilganman. Xohlasang, senga ham o'rgatib qo'yaman, — debdi ayiq.

— Qanaqa taom ekan u? — so‘rabdi ari.

— Biron-bir o‘lgan jonivorni yerga ko‘mib qo‘yasan, ma‘lum bir vaqtdan so‘ng u o‘zidan yoqimli hid tarata boshlaydi. Ana o‘shanda uni olib yesang, bay-bay, hamma lazzat o‘shanda bo‘ladi, — debdi ayiq og‘zining tanobi qochib.

— Fu, kim go‘shetni sasitib qo‘yadi desam, bu sening ishing ekan-da. Men bunday qo‘lansa hid ustidan uchib o‘tishga ham hazar qilaman. Ta‘bim xiralashib, ko‘nglim behuzur bo‘lib ketaveradi, — debdi ari ijirg‘anib.

Bundan ayiqning jahli chiqib, daraxtni bor kuchi bilan tebratib bo‘kiribdi. Arini quvlamoqchi bo‘libdi. Lekin ari o‘z maqsadidan qaytmabdi. Kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilibdi. Nihoyat xush ta‘mli taom tayyor bo‘libdi.

Bir kuni tong sahardan ari bor ovozi qo‘yib qo‘shiq aytib, raqsga tusha boshlabdi. Yana shirin uyquasi buzilgan ayiq ko‘zini ochibdi-da:

— Ey, ovozing o‘chgur, nimaga kallai saharlab dunyoni boshingga ko‘tarasan? — debdi.

Ari bo‘lsa hamon "topdim", "topdim", deb g‘o‘ng‘illab raqsga tushar emish.

— Nimani topding? — so‘rabdi ayiq.

— Eng lazzatli taomni topdim!

Ari o‘zi tayyorlagan taomdan totib ko‘rish uchun bir bo‘lagini ayiqqa tashlabdi. Ayiq ijirg‘anib ozgina yalabdi. Taom shunchalik totli ekanki, ayiq bir zum gangib turibdi, ishonqiramay yana dadilroq yalab, haqiqatan lazzatli ekanligiga ishonch hosil qilibdi. U qolgan bo‘lakchani bir yamlab yutibdi-da, ariga:

— Mazasiga unchalik tushunmadim, yana bormi? — deb mug‘ombirona kulibdi.

Xullas, ari ko‘p sabot va chidam bilan qilgan mehnati, izlanishi natijasida lazzatli, shifobaxsh taom — asalni yaratishga erishibdi. Shundan buyon millionlab yillar o‘tgan bo‘lsa-da, hech kim asaldan shirinroq taomni yarata olmabdi. Hamma asalni xush ko‘rib iste‘mol qilar ekan. Ari o‘z kashfiyoti bilan dunyoda mashhur bo‘libdi. Odamlar uni sharablab, nomiga asal so‘zini qo‘shib, "asalari" deb atashadigan bo‘lishibdi. Ayiq polvon bo‘lsa, asalari uya qurgan daraxt tagidan makon qilib, asalari-ning taomini tortib olish payida bo‘lar ekan.

IT O'ZIGA QANDAY QILIB DO'ST TOPDI?

Cho'ltoq bir it bor ekan,
Dunyo unga tor ekan.
Yakka-yu yolg'iz o'zi,
Har tomon alanglar ko'zi.

Do'st topsam deb o'ylardi,
Dala, qirni bo'ylardi.
Bir kun to'rtko'z olapar,
O'rmonga qildi safar.

Do'st izladi tinmayin
Yo'l yurdi erinmayin.
Uchradi kulrang bo'ri,
Shu o'rmonning eng zo'ri.

— Zo'r bo'lsang, — der olapar, —
Do'st bo'laylik birodar!
— Xo'p, — deb maqtanar yirtqich, —
Menga monand zo'r yo'q hech.

Quyonlarni tutaman,
Chaynamasdan yutaman.
Opqochaman qo'ylarni,
Vayron qilib uylarni.

Do'sting senga loyiq, zo'r,
O'tkir tishlarimni ko'r!
It boqarkan bo'riga,
Aylanadi cho'riga.

Zo'r ko'ringach ko'ziga,
Do'st qiladi o'ziga.
Kech kirgancha yotishar,
Charchab xurрак otishar.

Bir vaqt daraxt shovullar,
It shamolga vovullar.

Cho'chib uyg'onar bo'ri,
"Bu olamning eng zo'ri":

— Shilinmasin naq po'stim —
Desang jim yot, ey do'stim!
Bilsa-chi bizni birov,
Po'stimiz shilar darrov...

— Qo'rqqoq ekansan, — der it,
Do'stim bo'lolmaysan, ket!
Nari ketar olapar,
Kim uchrarkin bu safar?

U yo'l yurdi, mo'l yurdi,
Ayiq polvonni ko'rdi.
— Zo'r bo'lsang, — der olapar, —
Do'st bo'laylik, birodar!

— Men, — der maqtanib ayiq, —
Zo'rman, zo'r... Mendan hayiq.
Tulkilarni tutaman,
Chaynamasdan yutaman.

Bo'riga tik boqaman,
Po'stagini qoqaman.
Do'sting didingga loyiq,
Men polvonman, — der ayiq.

It tikilib ko'ziga,
"Ko'ramiz" der o'ziga.
Kech kirganda yotishar,
Charchab xurrak otishar.

Bir vaqt daraxt shovullar,
It shamolga vovullar.
Cho'chib uyg'onar "polvon",
Yurak yorilgan — hayron...

— Sog' qolsin desang po'stim,
Vovullamay yot, do'stim!

Bilsa-chi bizni birov,
Po'stimiz shilar darrov!

— Qo'rqqoq ekansan, — der it, —
Do'stim bo'lolmaysan, ket!
Uni tashlab it ketar,
Bir changalzorga yetar.

Olaparga uchrar fil:
— Men, — der, — zo'rman, do'st deb bil.
Qo'rqadigan kishim yo'q,
Tog' qulasa ishim yo'q!

Jahonni suv bossa ham,
To'pig'iga chiqmas nam.
Achchig'im kelsa bormi,
O'rmonmi yo gulzormi,

Tekislayman birpasda,
Xartumim cho'zib asta.
Xullas, zo'rman, do'st deb bil, —
Otim, — deydi, — polvon fil.

Uydek tebranib borar,
Changalzor bag'rin yorar.
Do'stlar yurar ilgari,
Og'a-ini singari.

Kech kirganda yotishar,
Ikkov xurрак otishar.
Bir vaqt daraxt shovullar,
It bezovta vovullar.

Cho'chib turib deydi fil:
— Bu nima dahshat, tez bil!
Qayga qochay, yo'l ko'rsat,
Tez bo'l, o'tmasin fursat!

— Qo'rqqoq ekansan, — der it, —
Do'stim bo'lolmaysan, ket!
Olapar nari ketar,
Keng bir vodiya yetar.

Nazar tashlab damba-dam
It ko'rsa kelar odam.
— Hoy og'ayni, do'stim bo'l,
Sening qo'ling emish gul.

Meni olgin o'zingga,
Kiray aytgan so'zingga.
Bo'ri, ayiq, fil emas —
Qo'rqmas bo'lsang, menga bas...

— "Qo'rqoq bo'lgan nimasi?
Men hayotning egasi.
Menga bo'lsang vafodor —
Senda bo'lib kuch-mador...

Do'stlar borar ilgari,
Qalin oshno singari.
Kech kirganda yotishar,
Charchab xurрак otishar.

Birdan o'rmon shovullar,
It uyg'onib vovullar.
Dovul qo'zg'alar shu kech,
Odam pinak buzmas hech.

Choponidan tortar it,
Kirar burniga hush hid.
Odam turib shu zamon,
Ko'z soladi to'rt tomon:

Dovul to'xtab qoladi,
Bulutlar tarqaladi.
Ko'kda miltillab yulduz,
Yotar yerga tikib ko'z.

— Men yoningdaman har dam,
Qo'rqma, do'stim, — der odam...
Shunday qilib olapar,
Do'st va vafodor topar.

Shukur Sa'dulla

Tez aytishlar

O'zim uzum uzib yedim. -z-m.

*

Olma shoxida olmaxon,
Olmaxonni olma Olimxon. -m-l.

*

To'lqin turpni tunda to'pladi. -r-t.

*

Bo'ri boqqa, Soqi toqqa bordi. -q-t.

*

Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir. -ch-j.

*

Bir tup tut, tut tagida turp,
Tut turpni turtib turibdi, turp tutni turtib turibdi. -t-r.

*

Sora allalaydi, Rashid arralaydi. -r-l.

*

Hashar — hashardan shahar yashar. -sh-r.

Topishmoqlar

1. Xo'ppa semiz-bir tuki yo'q.
2. Ikki yaproq bir tanda,
Kezar yozda, chamanda.
3. Chaynaladi, chaynaladi, yutilmaydi.
4. Zuv-zuv borar, zuv-zuv kelar.
Doston o'qir, g'alvir to'qir.
5. Kasbi doim g'adir-budur,
Qayda ilon ko'rsa cho'qir.
6. Osti tosh, usti tosh,
O'rtasida jonli bosh.

7. Suvda yotar suv ichmas,
Yurganin odam bilmas.
8. Bir parcha patir olamga tatir.
9. Tosh ostida qo'sh chiroq.
10. Soqoli bor, mo'ylovi yo'q.
11. Otlari har xil, yoshlari bir xil.
12. Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa tashlama.
13. Mazasi qaymoq kabi,
Eriydi sariyog' kabi.
Yozda rosa yegaysiz,
Oh-oh, mazza, degaysiz.
14. O'zi shirin tukligina,
Mazasi bor totligina.

Topishmoqlarning javoblari

1. Tarvuz. 2. Kapalak. 3. Saqich. 4. Ari. 5. Laylak. 6. Toshbaqa. 7. Oy. 8. Quyosh. 9. Ko'z. 10. Echki. 11. Haftaning kunlari. 12. Kitob. 13. Muzqaymoq. 14. Shaftoli.

Maqollar

Gap bilan shoshma,
Ish bilan shosh,

*

Mehnat — mehnatning tagi rohat.

*

Birlashgan o'zar,
Birlashmagan to'zar.

*

Egri o zadi, to'g'ri o'zadi.

*

Yaxshiga yondosh, yomondan qoch.

*

Aql yoshda emas, boshda.

*

Olim bo'lsang, olam seniki.

*

Odob oltindan qimmat.

*

Inson odobi bilan,
Osmon oftobi bilan.

*

Odobli bola elga manzur.

*

Ish bilmagan ish tanlar.

*

Yozgi mehnat — qishki rohat.

*

Mardni mehnat yengolmas.

*

Bilim — davlatdan qimmat.

*

Aytar so'zni ayt,
Aytmas so'zdan qayt.

*

"Sen" ham bir og'izdan,
"Siz" ham.

*

Qoqilsa, suya,
Yiqilsa, ko'tar.

*

Yurti boyning o'zi boy,
Mehnat qilganning qo'li boy.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
------------------	---

Birinchi qism

Ogʻzaki nutq oʻstirishning ilmiy-metodik asoslari	5
---	---

1-§. Kichik yoshdagi bolalar nutqida toʻgʻri talaffuz koʻnikmalarini shakllantirish	7
---	---

2-§. Birinchi sinf oʻquvchilarini soʻz birikmasi va gap tuzishga oʻrgatish	10
---	----

3-§. Ogʻzaki nutqni oʻstirishda bolalar adabiyotiga doir asarlar boʻyicha mashgʻulotlar olib borish	14
---	----

4-§. Ogʻzaki nutqni oʻstirishda oʻyin va qoʻshiqlardan foydalanish	18
--	----

Ikkinchi qism

5-§. Maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilariga tillarni oʻrgatish boʻyicha metodik koʻrsatmalar	26
--	----

6-§. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oʻzga tilga oʻrgatishning didaktik talablari	31
--	----

7-§. Mashgʻulotlardan tashqari vaqtlarda rusiyzabon bolalar bilan ish olib borish	33
---	----

Uchinchi qism

Nutq oʻstirish uchun materiallar	44
--	----

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH

O‘quv qo‘llanma

Muharrir *G. Karimova*
Badiiy muharrir *U. Solihov*
Texnik muharrir *U. Kim*
Musahhihlar *Sh. Oripova, N. Umarova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Ye. Gilmutdinova*

Terishga berildi 14.12.2000. Bosishga ruxsat etildi 16.03.2001.
Bichimi 84×108¹/₃₂. Shartli bosma tabog‘i 8,4. Nashr tabog‘i 8,52.
Nusxasi 5000. Buyurtma № K-36. Bahosi shartnoma asosida.

"O‘zbekiston" nashriyoti, 700129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Nashr № 119-2000

O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi ijaradagi Toshkent
matbaa kombinatida bosildi. 700129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi 30.

74.102

Б833

Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish: Oliy o‘quv yurtlarining pedagogika-psixologiya va boshlang‘ich ta‘lim uslubiyati fakultetlari talabalari uchun // Tuzuvchi-mualliflar: M.Asqarova, S.Matchonov, M.Xudoyberganova va boshq. / —T.: "O‘zbekiston", 2001. — 160 b.

1. Asqarova M., tuzuvchi.

BBK 74.102

№ 555-2000

Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Respublikasining
Davlat kutubxonasi

4/5 =

